

ISTIQLOL KITOBLARI

---

MIRAZIZ A'ZAM

# ENG YORUG' YULDUZLAR

*Maktab sahnasi uchun darslar, hikoyatlar,  
p'esalar, maqolalar.*

«ShARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2002

*Qadrli bolalar!*


Yozuvchimiz Miraziz A'zamning bu kitobini o'qib chiqsangiz,  
ming yillik tariximizning turli ko'chalarini ziyorat qilganday bo'lasiz.  
Ulug' vatandoshlarimiz Imom Byxoriy, Mahmud Zamahshariy, Amir  
Temur va Ulug'bek kabi siymolarning ba'zan kulgili, ba'zan achinarli,  
ammo ibratli hayat sahifalari ko'nglingizga o'rashib qoladi degan  
fikr damiz.

28983  
10  
291

**A'zam, Miraziz.**

Eng yoryg' yulduzlar: (Maktab sahnasi uchun darslar,  
p'esalar, maqolalar). — T.: «Sharq», 2002, 112b.

**BBK 74.200.58**



© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi,  
Bosh tahririyati, 2002.

# MAKTAB SAHNASI UChUN DARSLAR

## BUXORIY DARSI

*O'yin*

### Qatnashuvchilar:

1. **H a k i m** — Litsey o'quvchisi, 14 yoshda.
2. **S a i d** — Hakimning sinfdoshi, tengdoshi.
3. **M a n s u r** — Hakim va Saidning sinfdoshi, tengdoshi
4. **O' q i t u v c h i** — 30 yoshlarda.
5. **O' q u v c h i l a r**.

## B I R I N Ch I K O' R I N I Sh

*Respublikadagi litseylardan birida odatdagи sinf.  
Sinfda uch og'ayni — H a k i m , S a i d va M a n s u r  
o'tirishibdi.*

**Hakim:** — Menga qara, Said, bir narsa hech xayolimdan ketmayapti. Sen nima deb o'ylaysan: o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi munosabatlar qanday bo'lishi kerak?

**Said:** — O'zaro hurmatga asoslangan... Bu hammaga ma'lum, ming marta aytilib kelgan gap-ku! Nimasini o'ylaysan?

**Hakim:** — Albatta... turgan gap... Ammo men boshqa narsani aytmoqchiydim. Deylik: o'qituvchi dars be-ra turib adashdi... Noto'g'ri fikr aytdi. Buni bilmagan bola indamay eshitishi mumkin. Bilgan bola esa, yo fikrni tuza-tishi, yo bila turib indamasligi mumkin. Misol uchun, o'qituvchini izza qilmay deb, indamaydi... faqat darsdan keyin muallimga sekkingina xato qilganini aytadi, deylik... Shu to'g'rimi?

**Mansur:** — (gapga aralashadi) — Menimcha, to'g'ri. O'qituvchini o'ziga dushman qilmagani ma'qul. Sekkingina qulog'iga aytsa, keyingi darsda muallim ham o'z xatosini

o'quvchilarga aytadi. Ish joy-joyiga tushadi. Hech kim zarar ko'rmaydi.

**Hakim:** — Men ham taxminan shunday deb o'ylardim. Lekin olamda, do'stim, «ilmning sharafi» degan gap ham bor. Mana Imom Buxoriy «Al-jome al-sahih» kitoblarida shunday hadisni keltirganlar: «Valav anna ahlul ilmi sanuhu sanahum». Ya'ni: «Ilm abli ilm sharafini qanday himoya qilsa, ilm ham ularni shunday himoya qiladi». Menimcha, muallimning xatosini seza turib, jamoat o'rtasida indamasak, o'z shaxsiy manfaatimizni o'ylagan va ilm sharafini boy bergen bo'lamiz. O'zimizga zarar yetsa ham, muallim-ku hech vaqt o'z o'quvchisiga dushman bo'lib qolmaydi, ammo dushman bo'lib qolish ehtimoli bo'lsa ham, biz ilmda to'g'rilikni himoya qilishimiz kerak. Mana bunga qara (Kitobni varaqlaydi), Buxoriy Ad-Doxiliy degan muallim, mashhur bir olimdan dars olardi. Bir kuni darsda Ad-Doxiliy bir hadis aytibdi va «bu hadisni Sufyon Abu az-Zubayr dan Ibrohim eshitgan» depti. Byxoriy shu ondayoq: «Ibrohim, Abu az-Zubayr dan rivoyat eshitmagan» depti. Domlasi xijolat bo'lib, achchiqlanib Buxoriyni urishibdi. «Bilmagan narsangga alakashma, tek o'tir!» deb ozorlabdi. Buxoriy ham xijolat bo'libdi. Ammo o'ziga qattiq ishongani uchun «Yoningizda bo'lsa kitobingizga qarang!» depti, — «Ibrohimning davrida Abu az-Zubayr olamda yo'q edi». Domlasining qo'lida kitobi yo'q ekan. Ichkariga kirib ketib kitobni olib chiqibdi. Qaytganda Buxoriydan to'g'risini so'rabdi. «U rivoyatni Ibrohimga Abu az-Zubayr emas, Zubayr Ibn Odiy aytgan», «Bular bir-birlariga zamondosh edilar» depti Buxoriy. Domlasi kitobga tuzatish kiritib qo'yibdi. Bu paytda Buxoriy 10 yoshta ekanlar.

**Mansur:** — E, bilimdan ham, yurakdan ham bergen ekan da! Domlasidan 70 darra falaqa yeyishi ham hech gap emas edi...

**Hakim:** — Bu yerda gap yurakdan ham ko'ra haqni, ilmni ulug' deb his qilishdadir.

**Mansur:** — Qo'rroq bo'lsa ilmni ulug' deb bilsa ham, in doimas edi-da!

**Hakim:** — Sening aytganing ham to'g'ri: bu yerda jasorat va imon birligi ko'rindi.

*O'qituvchi kiradi. Sinf o'quvchilar bilan to'ladi. Odatdag'i salom-aliklar. So'ng o'qituvchi o'quvchilarga yuzlanadi.*

**O'qituvchi:** — Qani, bolalar, tinchlaning! Bugun, avval kelishganimizdek, Imom Buxoriy darsini o'tamiz. Hozir o'n bola o'n hadis aytadi. Qisqa-qisqasidan...

**Birinchi o'quvchi:** — «Islom dini besh dalilga asoslangan: Ollohdan boshqa iloh yo'qligi va Muhammad Ollohnning quli va elchisi ekanligiga ishonmoq, namoz o'qimoq, zakot bermoq, hajga bormoq va ramazon ro'zasini tutmoq».

**Ikkinchchi o'quvchi:** — «To'rt xislat borki, kimda bor bo'lsa, u aniq munofiqdir. Bular omonatga xiyonat, yolg'on so'zlash, shartnomal tuzib shartida turmaslik va urishganda kek saqlash va nohaqliq qilish».

**Uchinchi o'quvchi:** — «Ilimga ilm olmoq yo'li bilan erishilg'ay».

**To'rtinchi o'quvchi:** — «Osonlashtiring, qiyinlashtir-mang. Qiziqtiring, bezdirmang».

**Beshinchi o'quvchi:** — «Musulmon odamning Haq yo'lida (vatan yo'lida) urushib olgan har bir jarohati Qiyomat Kuni qon pishqirayotganday ko'tinadi, rangi qon rangi, lekin hidi mushk hidi bo'ladi».

**Oltinchi o'quvchi:** — «Odam qiladigan gunohi azimlar-dan biri — ota-onasini haqorat qilmoqdir. Birovning ota-onasi ni so'kkani odam o'z ota-onasini haqorat qilgan bo'lur».

**Yettinchi o'quvchi:** — «Siz hammangiz cho'ponsiz, qo'l ostingizdagilarga javobgarsiz: Yurt boshliqlari ham cho'pondir, xalqning ahvoli uchun mas'uldirlar. Ota — oila cho'ponidir, oilasi uchun mas'uldir. Ayol uyning cho'ponidir, uydagi tartib, saranjom-sarishtalik uchun mas'uldir. Xizmatchi boshlig'iga tegishli mol-holning cho'ponidir, qo'l ostidagi narsalar uchun mas'uldir».

**Sakkizinchi o'quvchi:** — «Musulmon odam daraxt ekar, uning hosilidan inson yesa ham, hayvon yesa ham ekkan kishining sadaqasi o'rniда o'tadi».

**To'qqizinchi o'quvchi:** — «Yaxshilik sadaqadir». «Insonning orasini buzmoq uchun g'iybatchilik qilganlar jan-natga kirolmaydilar».

**O'ninchi o'quvchi:** — «Mard odam deb uni-buni kurashda yenggan odamga aytilmaydi. Haqiqiy ma'nodagi mard, achchig'i kelganda o'zini tuta bilganlardir».

Domla! So'fi Olloyorda bir bayt o'qigandim. Menimcha u shu hadisdan ilhomlangan.

*Ajdaho birlan so'qish qilg'on kishini er demang,  
Er o'shal erdurki tursa odamiy tamg'o bilan.*

**O'qituvchi:** — To'g'ri aytasan. Shoirlarimiz hadislarning mag'zini halqqa yetkazishda ko'p xizmat qilganlar. Yashanglar, rahmat sizlarga... Endi menga aytинглар: Hadis nima?

**Said:** — Men aytaman. «Hadis arabchada «Yangi» degan

ma'noni bildiradi. Janob payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning har bir aytgan gaplari har qachon ham yangi gapday eshitilgani uchun biz ularni hadis deymiz. Lekin butun tarix davomida «hadis» so'zining ma'nosi kengayib borgan va endilikda hadis so'zi payg'ambarimizning amirlari, xattiharakatlari, fe'l-atvorlari, axloqlari, xislat va holatlari va umuman hayat yo'llari ma'nolarini ham qamrab olgan. «Hadis» o'rnida «Sunnat» ham ishlataladi. Hadisdan bahs etuvchi ilm «Hadis» deyiladi «Muhaddis» esa «Hadischi» deganidir, hadislarni to'plovchi, tartibga soluvchi, taxlil va tekshiruv yo'li bilan bu so'z chindan ham payg'ambarimizga oidmi, yo'qmi, aniqlik kirituvchi, hadislarni to'plovchi degan ma'nolarda ishlataladi.

**O'qituvchi:** — Endi yana bir savol: Payg'ambarimiz haqidagi kim qisqacha ma'lumot bera oladi?

**Birinchi o'quvchi:** — Biz payg'ambarimiz hayotini hali o'rghanmadik, domla... Bunday topshiriq herganining yo'q biga...

**O'qituvchi:** — To'g'ri... Men baho qo'yish uchun so'ramadim... Kim nima bilishiga qiziqaman xolos. Hakim! Mabodo sen aytolmaysanmi?

**Hakim:** — Yo'q, domla. Men faqat Buxoriyning «Hadis» kitoblarini o'qidim. Unda bunday ma'lumot yo'q. Faqat boshqa tarix kitoblarimizdan Payg'ambarimiz milodiy 570 yilda tug'ulib, 632 yilda vafot etganlarini bilaman, xolos. Buxoriyning «Hadis» kitobida payg'ambarimizga nechuk vahiy kela boshlagani haqida keng bir ma'lumot bor. Mansur bu hadisni yodlab olgan. Xo'p desangiz o'qib bersin.

**Mansur** (yoddan o'qiydi): — «Oysha onamiz naql qiladilar: Hazrat Payg'ambarimzda ilk vahiy uyquda tiniq tushlar ko'rish bilan boshlangandi. Shundayki, ko'rgan butun tushlari tong shafag'i yorishishi bilan bir aniqlik kasb etardi. Shundan so'ng, Rasululloh yolg'izlikni xushlaydigan bo'lib qoldilar. Oilalarini tark etib, yolg'iz o'zları Hiro tog'idagi g'orda qatorasiga bir necha kun toat-ibodat qilib chiqar ekanlar. Shu boisdan ham o'zları birlan yegulik olib chiqib ketar edilar. Yegulik tugagach, xotinlari Xadichanining huzuriga kelib, yana taom olib toqqa qaytar edilar. Oxiri bir kun Hiro tog'ida ibodat qilib o'tirganlarida Haq amiri keldi. Shundayki, bir farishta kelib: «O'qil!» dedi. «O'qishni bilmayman, dedim», — deyildilar Rasululloh... Shu payt farishta meni bo'g'a boshladti, xirillab qoldim. Keyin qo'yib yubordi-da, yana «O'qil!» dedi. Men yana: «O'qishni bilmayman», dedim. Farishta ikkinchi marta meni xirillab qolgunimcha bo'g'di. So'ng yana qo'yib yuborib: «O'qil!» dedi. Men yana «O'qishni bilmayman» dedim. Ul meni

uchinchi marta xirillab qolgunimicha bo'g'di. Keyin qo'yib yuborib: «Rabbingning nomi bilan o'qil Rabbing insonni laxta qondan yaratgan! O'qil! Rabbingning saxovati benihoya! U insonga qalam bilan yozishni o'rgatgan. U insonga bilmagan narsasining hammasini o'rgatgan!» dedi.

Shunda Hazrat Payg'ambar bu oyatlar sababli qo'rquvdan yuraklari titrab uyga qaytdilar. Xadichaning huzuriga kelib: «Meni o'rab qo'ying» dedilar. Janob Rasulullohning qo'rquvlari tarqalguncha o'rab qo'ydilar. So'ng, Xadichaga bo'lgan voqeani aytib berdilar-da: «O'zimdan xavotirdaman!» dedilar. Xadicha raziyallohu anho: «Unday demang. Xudo haqqi, Olloh sizni xafa qilmag'ay, chunki siz xotin-bola-chaqaga yaxshi qaradingiz; ojizlarning yukini yengil qilasiz, kam-bag'allarga zakot berdirasiz, mehmonlarni izzat-ikrom qilasiz. Haq yo'lida to'sqinliklarni yengib o'tishda hammaga yordam berasiz» deb javob berdilar. So'ng, Xadicha onamiz janob Rasulullohni amakivachchalari Varaqa ibn Navfal huzuriga olib bordilar. Varaqa ibn Navfal johiliya davrida nasroniy dindida edi. Ibroniha savodi bor, Injildan Ollohnning aytganlarini yoza olardi. Ko'zları ko'rmaydigan keksa bir kishi edi. Xadicha onamiz Varaqaga: «Ey, mulla og'al — dedi. — Bo'langizning gaplariga qulqoq soling. Qarang, nima deyaptilar!» Varaqa «Nima gap, e bola, nima ko'rding, ayt!» dedi. Janob Rasululloh ko'rganlarini bir-bir aytib berdilar: Shunda Varaqa «Bu ko'rganining Olloh Taolo, Muso Alayhissalomga indirgan Nomusi Akbar (ya'ni yashirin sirlar tashuvchi eng buyuk Farishta Jahroil)ning o'zi-ku! Eh, qani endi xalqni islam diniga da'vat qiladigan kunlaringda yosh bo'lsamu yoningda bo'lsam... Qavming seni yurtidan haydar chiqazgan vaqtida hayot bo'lsam» deb aytди. Rasululloh «Meni qavmim haydaydimi?» dedilar. Varaqa: «Ha, zero sening kabi Ollohdan vahiy keltirgan hech bir kimsa yo'qli, dushmanlikka uchramagan bo'lsa. Agar da'vat kunlaringga yetishsam, senga kuchim yetgancha yordam beraman», deb javob berdi. Lekin ko'p o'tmay Varaqa vafot etdi. Vahiy bir muncha vaqt kelmay qo'ydi.

**O'qituvchi:** — Rahmat Mansur, o'tir. Endi, bolalar, to'ppa-to'g'ri Imom Buxoriyga o'taylik...

**Mansur:** — Bir oz to'xtang, domla. Buxoriy haqida bir og'iz so'z aytay.

**Ikkinchı o'quvchi:** — Hech qo'ymaydi-da shu Mansur. Gapirmay tursa yorilib o'ladi.

**O'qituvchi:** — Mayli, ayt, nima demoqchisan, Mansur?

**Mansur:** — Mening dadam sharqshunos olim, ko'p yurtlarga borib kelgan. Amerika, Fransiyaga, Angliyaga, Misrga...

Dadam aytadilarki, chet ellarda ko'pchilik odamlar: «O'zbekiston» desa, «Bu qaysi yurt?» deb tanimay hayron bo'larkanlar. Ammo «Buxorodanman» desa, shu ondayoq ta'zim qilib, qo'lini o'pib: «Xush kelibsiz» deb, to'rga olarkanlar. Buxoro, Samarqand, Horazmni bilmaganlar yo'q ekan. Ular bizning mamlakatimizni Turkiston deyisharkan. Buxoroni jahonga taniitganlar Buxoriy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband kabi siymolardir, «Buxoro tarixi»ni yozgan Narshaxiy kabi tarixchilardir.

**O'qituvchi:** — To'g'ri aytding. Mansur Buxoriy haqdagi so'zni uning vatanı Buxorodan boshlash kerak. Qani, Said, Buxoro haqda sen gapir...

**Said:** — Buxoro hozir O'zbekiston Respublikasining bir viloyatidir. Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi Zarafshon vodiysida joylashgan. Buxoro haqidagi eng eski ma'lumotni Mansur aytgan Narshaxiyning kitobidan olish mumkin. Narshaxiy 899 yilda tug'ilib, 960 yilda vafot etgan, ya'ni 60—61 yil umr kechirgan. «Buxoro tarixi» kitobini 943—944 yillarda yozib tugatgan. Narshaxiy o'z kitobida ilgari Rometan Buxoro deb yuritlgani va u 3000 yildan buyon majud bo'lganligini aytadi. Narshaxiy davridan beri yana ming yil o'tganini hisobga qo'shsak, Buxoroning yoshi to'rt ming yildan oshgani tasavvur qilishimiz mumkin. Yerlari juda eski paytlardan suv kanallari orqali sug'orilgan. Dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik yuksalgan, obod bir mintaqaga bog'lган. Shimoli-shargdan Samarqandga katta yo'l bilan bog'langan. Janubda Termiz-Balx yo'li bo'lган. Shimoli-g'arbdan Xorazmga, janubi-g'arbdan Marv orqali Nishopurga borilgan. Shuning uchun ham Narshaxiy Buxoroni «Tijorat shahri» deb ulug'laydi. Buxoroda «zandaniycha» degan bir turli bo'z mato ishlab chiqarilgan. «Xurosning hech bir shahrida bunday matoni to'qiy olmas edilar. Zandaniyadan kiyim kiygan biror podshoh, amir, rais yoki amaldor bo'lмаган. Uning qizil, oq va yashil ranglisi bo'lar edi» deb yozadi Narshaxiy. Buxoroda yana paloslar, darpardalar, yumshoq kiyimlar, yostiq jiddlar, jigarang joynamozlar tikilardi va to'qilardi. Mis qandillar, ot anjomlari, charv yog'i,ilik yog'i, qo'y terisi, maxsus qog'ozlar ishlab chiqarilar, jahonda tengi yo'q shirin-shakar qovunlari bo'lar edi. Modomiki, Buxoro shunday bo'lgach, uning dovrug'i butun yer yuziga taralgan bo'lishi tabiurdir.

**O'qituvchi:** — Qanday xalqlar yashardi Buxoroda?

**Said:** — Narshaxiy: «Buxoroning aholisi Turkistondan kelgan turklar edi», deb yozadi. Kayxusrav istilosiga paytlarida bir muncha forslar ham ko'chib keldi. Paxlavon ajdodimiz Alp Er Ta'ng'a zamonida forslar bilan «eqiz oldi-berdi»lar ham ort-

gan. Yurtimizga Ibn Qutayba boshchiligidagi arablar bostirib kirdgandan keyin arablar ham kelib, mahalliy xalq tarkibiga qo'shildi. Qadimiy turk madaniyatiga yana ikki katta madaniyat ham qorishdi va Buxoroda jahonshumul siyilli za tsisiga yuzaga keldi.

**Hakim:** — Domla... Bir savol bersam maylimi?

**O'qituvchi:** — Albatta.

**Hakim:** — «Hadis jiddalarini o'qiganimda, Buxoroiy hamma vaqt menga butun bo'y-basti, qon-joni bilan bizning urug'lariidan bo'lib ko'rindi. Ammo ba'zi tarixchilar Buxoriyni forsylardan deb yozishibdi. Ajdodi Bordizbexga borib taqaladi. «Bordiz» forscha so'z. Shuning uchun u turk bo'lishi mumkin emas deb uqtirishibdi. Holbuki, biz hozir ham turli millatlar bilan aralashib yashaymiz, bir-birimizdan otlarni o'zlashtiraveramiz. Bu bilan millatimiz o'zgarib qolmaydi-ku!

**O'qituvchi:** — To'g'ri... Menga ham Buxoriyni fors deguvchi olimlarning dalillari zaif ko'rindi. Ammo gap shundami? Eng muhimi shuki, u Buxoriydir, ya'ni buxorolikdir. Buxoro havosidan nafas olgan, Buxoro yerini ishlagan, ekinini ekkan, bichgan, Buxoro olimlariidan ta'lim olgan. Turkiy madaniyat bag'rida o'zini topgan. Bizning ota-boholarimizga xos o'ziga ishonch, amaliy zako, azm, yaratuvchanlik, matonat, fidokorlik, jasorat, ish intizomi singari xislatlarga ega bo'lgan. Va bizga barcha millatlar, barcha insonlarning mulki bo'lgan ilm va yuksak ma'naviyat namunalarini meros qilib qoldirgan. Turk dunyosining nomini dunyoga yoygan. Hazrati Payg'ambarning yuzlarcha sifati yonida «Arabiya» degan sifat allaqanday nojioz ko'ringani kabi, Buxoriy nomi yonida ham «turkiy» yo «forsiy» sifatini ishlatalish hech o'rinci bo'lmaydi. Biz uchun Buxoriy bashariyatga turk dunyosi bergen buyuk olim sifatida qadrliroqdir.

*Qo'ng'iroq. Parda.*

## I K K I N C h I K O' R I N I S h

*O'sha sinfi: O'qituvchi so'zlayotir.  
Bolalar jum qulog solishmaqda.*

**O'qituvchi:** — Bolalar! Tarixda hadischilik bilan shug'ulangan olimlar ko'p bo'lgan. Ammo Buxoriy muhaddislarning shahanshohidir. U «Qur'on»dan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi «Al-jome' al-sahih»ni yaratdi. Boya Hakimning gapini

eshitdingiz: Payg' ambarimiz 570 yilda tug'ilib, 632 yilda vafot etganlar. Imam ibn Ismoil al-Buxoriy esa, 810 yilda tug'ilib, 870 yilda vafot etganlar. Bu ikki xayot orasida deyarli 200 yillik farq bor. Shunday bo'lismiga qaramay, Payg' ambarimizni o'z ko'zi bilan ko'rgan, xali voqealar eskirmasdan burun hadislar yozgan boshqa olimlardan qanday qilib oldinga o'tib ketdi?

Payg' ambarimiz, Varaqa aytganday, o'z vatandoshlarini islam diniga da'vat etdilar. Ona shahri Makkadan quvildilar. Madinaga xijrat qildilar. Islomni butun Arab Yarimorolida tarqatdilar. Vafotlaridan so'ng do'stlari, oila-a'zolari, safdoshlari, saxobiylar degan fidoyi jihodchilar Rasululloh haqida xotiralarini aytib yo yozib yurdilar. Ularni tartibga soluvchi, kitob holiga keltiruvchi ne-ne hadischilar yashab o'tdilar; ne-ne tarixiy kitoblarni yozib qoldirdilar. Nima voqealarning yuz berdiki, oradan deyarli ikki asr o'tgach, olis Buxorodan bir olim chiqdiyu, ularning hammasini orqada qoldirdi?

**Said:** — Bu juda katta saboq. Imam Buxoriy hayotining ayrim manzaralari bilan tanishsak, xulosa va javob o'z-o'zidan kelib chiqarmidi...

**O'qituvchi:** — To'g'ri. Shunday qilamiz. Ammo men hozir savolimga eng qisqa bir javobni eshitmoqchiman.

**Hakim:** — Buxoriyning hadislari eng ishonarli hadislardir. Odadta bir odam vafot etsa, u haqida xotira yozuvchilar yoki aytuvchilar aytilgan-aytilmagan gaplar, bo'lgan-bo'lмаган voqealarni yonlaridan qo'shib yuboradilar. Buxoriy ana shunday hadislarning barchasiga tarixiy aniqlik kiritgan. O'z davrida yaratilgan hadislarning barchasi bilan tanishgan, 600.000 hadisni yod olgan, 12 yil ishlab, ulardan 7275 tasini ishonarli hadis deb topgan.

**O'qituvchi:** — Barakallal Yasha, Hakim! (Pauza) Ana endi biz Buxoriy bunga qanday erishganini hayot manzaralari orqali ko'rib chiqamiz. Qani endi Buxoriyning eng kichik bola payti, hali jo'juqlik vaqt, hali dadasi va onasi uni «Mamajon» deb chaqiradigan chog'ida qanday bola bo'lganini kim aytib berar oladi?

**Mansur:** — Domla! Buxoriy xali Mamajon deb aytildi-  
gan jo'jqlik paytida qanday bo'lganligi to'g'risida hech qayerda hech narsa yo'q. Ammo-lekin, domla, u qanday bola bo'lganini men bilaman.

**O'qituvchi (kulib):** — Qani, bilganingni ayt-chi...

**Mansur:** — Mamajonning dadasi Ismoil ota ko'p kitob o'qigan kishi bo'lgan. Mamajon 3—4 yoshligidanoq dadasining pinjiga tigilib, «Men ham o'qiymen» deyaverardi. Dadasi: «Yo'q, to'xtab tur. Sen hali kichkinasan»desa ham bo'lmasdi.

«Bo'lmasa ovoz chiqarib o'qing» derdi Mamajon. Dadasi ovoz chiqarib o'qisa, Mamajon eshitganlarini takrorlar va darrov yodlab olaverardi. Tushunmagan so'zlarini «Dada, bu nima degani?» deb so'rab bilib olardi. Dadasi uning qobiliyatini ko'rib, alifboni o'rgatgan. Mamajon bir yilga qolmay o'qish-yozishni o'rGANIB OLGAN. Dadasi sevinib ketib unga Qur'ONNI YODLATISHNI boshlagan. Lekin shu orada dadasi vafot etgan. Mamajon esa hijjalab-hijjalab o'qiyyergan.

**O'qituvchi:** — Xuddi ko'rganday gapirasan-al Qayoqdan bilasan shunday bo'lganini?

**Uchinchi o'quvchi:** — E, domla, bu Mansurda fantaziya kuchli...

**Mansur** (parvo qilmay): — Buni bilish qiyin emas. Chunki, «Irshod» degan kitobda yozilishicha, kichkina Buxoriy olti-etti yoshlariida birdan ko'r bo'lib qoldi. Qancha dori-darmoq qilishsa ham tuzalmadi. Onasi kunlarcha, haftalarcha o'g'lini duo qilib, Ollohg'a yolvorib yig'lar edi. Shuncha ko'p yig'ladiki, hatto ko'zi ko'r bo'lib qolayozdi.

**To'rtinchi o'quvchi:** — Voy bechora-ye!

**Mansur:** — Bir kuni yig'lay-yig'lay, Xudoga yolvora yolvora chuqur uyquga ketganida, tushida Ibrohim Payg'ambarni ko'rdi. Bu ulug' Payg'ambar, kechani kecha, kunduzni kunduz demay ko'zda yoshi bilan Tangriga yolvorgani uchun, Olloh Taolo o'g'lining sog'lig'ini qaytarib berajagini aytdi. Ertalab uyg'onib qarasa, chindan ham o'g'lining ko'zi tuzalib, ko'ra boshlagan ekan.

**Beshinch'i o'quvchi:** — Yo tavba...

**Mansur:** — Menimcha, yosh Buxoriyning ko'r bo'lib qolishi hali o'qish yoshiga yetmasdan burun ko'p o'qiganligi tufayli yuz bergan. Onasi shundan keyin Muhammadjoniga to maktabga borguncha o'qishga ruxsat berongan bo'lsa kerak.

**O'qituvchi:** — Mushohadangda jon bor. Fikringga qo'shilaman. Duoning ta'siriga kelsak, hozir aniq fanlarda ham buni tasdiglovchi bir talay dalillar bor. Biz bu mavzuda boshqa darslarda fikrashamiz. Hozir yana Buxoriyning hofiza kuchi, ya'ni favqulodda yodlash qobiliyati haqida so'zlashaylik.

**Mansur:** — Muhammad Buxoriy maktabga o'n yoshlari-da bordi. O'sha paytlarda Kuttob degan o'qish va yozishni o'rgatadigan bir turli maktab bo'lardi. Kuttobda ad-Doxili degan bir olim dars berardi. Darsdan oldin biz boyta Hakim bilan gaplashgan edik. 10 yashar Buxoriy, bir o'qituvchisi hadis o'qib xatoga yo'l qo'yganida tuzatish kiritgan, shu tufayli hamma taniydigan bola bo'lib qolgan edi. Ad-Doxiliyning

darslariga 13 yoshlarigacha qatnadi. Bu orada uning hofiza kuchi butun mактабга овоza bo'lib ketgan edi. Bir kuni uning yoniga bir katta yoshli kishi kelib: «Sen o'qiganlaringni oson yodlab olish uchun «balozur» degan dori icharmishsan. Shu to'g'rimi? deb so'rabdi. «Iya, odam ichganda yaxshi yodlatadigan dori bor ekanmi?» deb savolga savol bilan yuzlanibdi unga. «Bilmayman, — debdi oqsoqot, — ko'п narsani yodda tu-ta bilish uchun kishida qattiq iroda bo'lishi kerak, ya'ni yodlanadigan matnni yodlash bifan doim mashg'u'l bo'lisch shart, men bundan ham foydaliroq dori borligini bilmayman».

**Oltinchi o'quvchi:** — To'qri mulohaza. Yodlatadigan dori ham bo'larkanmi hech zamonda?

**Mansur:** — Yosh Muhammad hadislarga shu qadar qattiq qiziqdiki, o'z darslarini qoldirmagan holda, Buxoroning boshqa olimlari darsiga ham qatnay boshladи. Buxoroning barcha olimlarining barcha hadislarini surishtirib bilib o'rganib yodlab oldi... 14 yoshida, ya'ni xuddi bizdaylik paytida, hadis bilimini kengaytirish dardida boshqa shaharlarga ham keta boshladи. Baykandga bordi, Nishopurga bordi, Marvga bordi. Ozgina vaqt ichida 70 ming hadisni yodlab ulgurdi.

**Yettinchi o'quvchi:** — Yo tavba-a...

**Mansur:** — Tarix kitoblarida yozilishicha, bir kuni Sulaymon ibn Mujohid degan bir olim boshqa bir olim do'stidan: «San oldinroq kelsayding 70 ming hadisni yodlagan bolani ko'rarding» degan gapni eshitadi. Va Buxoriyni izlashga tushadi va oxiti topadi. Buxoriydan: «70 ming hadisni yodlagan bola senmisan?» deb so'raydi. «Ha, hozir undan ham ko'pini bilaman, — deydi Buxoriy. — Ayni chog'da, — deb davom etadi u, — sahobiylar va tobeinlardan qolgan bir hadisning rivoyatini eshitsam, men o'sha sahobiylar va tobeinlarning tug'ulgan va o'lgan paytlari, yashagan joylarini ham, albatta, bilib olaman. Undan tashqari, sahobiylar va tobeinlar rivoyat qilgan hadislar bilan Qur'oni Karim va Payg'ambar sunnatlarini bir-biriga solishtirib, asl yo noaslligini aniqlamagunimcha tinchimayman», deydi. Demak, Buxoriy hadisning haqiqiyisi bilan odamlar to'qib chiqarganini bir-biridan ayirish uchun yoshlik chog'idanoq eng to'g'ri asoslarga tayanib ishlagan.

**O'qituvchi:** — Yashavor-e, Mansur... Men seni oddiygina gapga chechan, sho'x, o'yinqaroq bola desam, toza biliming o'tkir ekan-ku!

**Mansur:** — E, nima deb qo'yibsiz, domla. Bizning yetti ota-buvarniz eskichani yaxshi o'qigan kishilar bo'lishgan. Bizga ham ozgina o'tgan-da ulardan.

**Sakkizinchı o'quvchi:** — Ko'riniб turibdi.

**O'qituvchi:** — Piching qilishning hojati yo'q, chindan ham ko'riniб turibdi.

**To'qqizinchı o'quvchi:** — Muncha maqtanmasang, Mansur...

**Mansur:** — Ho'v, maqtanish bilan g'ururlanishning farqi-ga borasanmi o'zing?

**To'qqizinchı o'quvchi:** — Hammasi bitta: maqtanchoq odam mag'rur bo'ladi, mag'rur odam maqtanchoq bo'ladi.

**Mansur:** — Kechirasani. Maqtanish — bu, o'zida yo'q narsani bor qilib ko'rsatishdir. G'urur esa, bor narsa bilan, shu bor narsaning afzalligi bilan ko'krak ko'tarib yurish va shunga yarasha so'zlashdir. Shunga yarasha ishlashdir.

**To'qqizinchı o'quvchi:** — Bay-bay-bay... Muncha kallang falsafaga to'la?... Miyang g'ij-g'ij aql-a...

**O'qituvchi:** — Bas qilinglar... Bunday gaplarga vaqtimiz yo'q. Qani, Said, sen ham yana bir-ikki qiziqarli voqealardan qo'sh...

**Said:** — Muhammad Buxoriy 16 yoshida onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga chiqdi. Makkada haj marosimlarini ado etdilar. So'ng onasi va akasi Buxoroga qaytdilar, Buxoriy esa hadis to'plash maqsadida Makkada qoldi. Ikki yil davomida Madinada, Bag'dodda va boshqa yirik shaharlarda aylandi, hadis to'pladi va shu paytgacha yig'gan barcha ma'lumotlari asosida «At-tarix al-kabir» degan muhim bir kitobni yozib tutgatdi. Bu hadis aytgan roviylar haqida eng qimmatli asardir. Avval Payg'ambarimizga hurmat yuzasidan barcha Muhammad otli roviylar haqida biografik ma'lumot beradi, so'ng alifbo asosida boshqa roviylar haqida qisqa-qisqa ma'lumot va hikoya-chalar keltiradi. Muhaddislар to'plagan hadislar qanchalik ishonarli ekanligini ko'rsatib qo'yadigan bu kitobda 13 ming roviying tarjimai holi bor. 18 yashar, ya'ni bizlardan bor-yo'g'i 4 yosh katta bo'lgan bir yigitning qanday qilib bunday buyuk ish qilganligini o'ylab o'yimga yetmayman. 200 yillik tarix ichidagi 13 ming odamning hayotini tavsiflab berish uchun kishida devlarning kuchi, farishtalarining zakosi bo'lishi kerak. Biz 200 yil oldin o'tgan bir odamning hayotini ham eplab yozib bera olishimizga ko'zim etmaydi; 200 yil uyoyqda tursin, 10 yil burun o'lgan odamning tarjimai holini ham mustaqil o'tganib chiqishga sabrimiz yetmaydi, domla. Buxoriy esa 18 yoshida shunday bir titan (ustuvor, mahobatli) asar yaratib qo'ygan-a... Mashhur bir olimning yozishicha, o'sha zamondagi 30 dan ortiq mashhur olimning Buxoriy kitobiga ehtiyoji bo'lgan. Ular Buxoriyning bu asarini bir marta bo'lsa ham ko'rishga orzumand bo'lganlar.

**O'ninchi o'quvchi:** — Ha, men Buxoriyning dohiy olim bo'lganligiga ishonch hosil qildim.

**Said:** — Buxoriy 22 yoshigacha Xijozda yashadi. Xamon shaharma-shahar kezib hadis yig'ar va saralar, «Al-jome' al-sahih»ni yozishda davom etar, birda olimlar bilan uchrashib hadis ilmini chuqurlashtirsa, birda o'zi xohlaganlarga hadis yozdirardi. Buni ko'rgan ba'zi olimlar: «hali mo'ylovi chiqmag'an bir yigitchadan hadis yozib olayotgan»larni gap mavzusi qilishardi. Shundan keyin Buxoriy besh yil Basrada yashadi. Buxoriyning Basra hayotidan bir olim shunday hikoya qiladi: Bir kuni Basra jome'sida so'fi: «Ey ilm ahli! Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy Basraga keldil!» deb baqiradi. Buxoriy qanday odam ekan deb qarab turishsa, bir yosh odam namoz o'qiyotganini ko'rishadi. Namozini bitirishi bilan atrofini o'rab olib, bir majlis qurishini iltimos qiladilar. Buxoriy rozi bo'ladi. «Ey, basraliklar! Siz mendan hadis rivoyat etishimni so'rayapsiz. Sizda hadischilar ko'p. Men sizlarga o'z yurttingiz hadislaridan birini aytib beraman. Bir badaviy Payg'ambarimizga: «Ey, Rasululloh, odamman degan kishi o'z millatini sevadi», dedi. Shunda hazrat Payg'ambar: «Inson sevganlari bilan birkadir» deb buyuradilar». So'ng Buxoriy: «Bu hadis sizda yo'q. Siz bilganingiz boshqacha» deb aytadi va bu hadisni kim kimga, qachon, qanday aytgani, ular kim bo'lgani to'g'risida batafsil so'zlab beradi. Oxiri ilmda aniqlikka erishish uchun azmu qaror, g'ayratu shioat ko'rsatib, ilm arboqlari oyog'iga bosh urish kerakligini uqtiradi. Olim bo'lishning birinchi sharti ilm yo'lida jafo chekish ekanligini, qiyinchiliklar qarshisida chekinib ketmay, muammoni yechishga intilish kerakligini qayd etadi.

— Buxoriy Basradan yana Bag'dodga, undan Makkai Madinaga, yana Shomga, Misrga, Kufaga borib-kelib yurdi va o'nlaracha kitoblarni yozib tugatdi. Bularning ichida olimning shoh asari shaksiz «Al-jome' al-sahih»dir. Asar o'n ikki yil davomida yozildi va to'rt jiddan iboratdir. Payg'ambar hadislaridan tashqari, islam huquqshunosligi, marosimlari, axloqodob, ta'llim-tarbiya, tarix, etnografiyaga oid ma'lumotlar bilan to'la bu asarning shuhrati tezda butun islam o'lkalariga taraldi. Imam Buxoriy qay shaharga bormasin, qadami tekkan masjidu jome'lar, maydonlar odamlarga to'lib ketar edi. Tarixchilarning aytishicha Basra va Bag'dod jome'lariiga yigirma mingdan ortiq odam yig'ilgan paytalar ham ko'p bo'lgan.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — Tarixda ham lofchilar bo'lgan ekan-da!

**Said:** — Yo'q, og'ayni, bu lof emas.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — Said, o'zing o'ylagin; u payt-

larda teleko'rsatuv, radio, mikrofon, elektr degan narsalar bo'Imagan, qanday qilib bir odam yigirma ming kishilik olomonga gapiradi? Tag'in hadis aytar emish...

**Said:** — Og'ayni... Bu yig'ilgan odamlar orasida ma'lum bir nisbatda turli-turli joylarda so'filer bo'lgan. Ular boshqalar dan balandroq joyda bo'lib, kursi yo supachalarga chiqib turganlar. Mana shu so'filer imom aytgan gapni o'z tomonidagi odamlarga takrorlab yetkazib turganlar. Imom, to aytgan gapi hammagaga yetib borguncha navbatdagi jumlasini boshlamay kutib turgan. Hamma eshitib bo'lgach gapini davom ettirgan.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — Be... bo'Imagan gap,

**Said:** — Yo'q, og'ayni, u paytdagi kishilarda ixlos boshqacharoq bo'lgan. Ularda birdamlik, hamjihatlik, uhuvvat bo'lgan. U — biz, tarqoqlar, birining gapi ikkinchisiga to'g'ri kelmaydigan, biri ikkinchisini mensimaydigan kishilar toifasi... Agar bizda ham o'shandoq milliy va diniy birlik bo'lsaydi, bir boshliq odamning gaplariga hamma itoat qilsaydi, hozirgi mustaqillik yo'lidagi odimlarimiz bundan ham shiddatliroq bo'lardi. Bildingmi? To'g'ri, u davrlarning ham o'z devlari, ichi qora kishilar, mutaassib arboblari bo'lgan. Bir payt Buxoriy Bag'dodga kelganda bir to'p boshkent olimlari uning hurmatobro'yini bir pul qilmoqchi bo'lgandilar. Ular o'n kishiga o'ntadan hadis taqsimlab, roviylarini, joylarini chalkash-chulkash qilib chiqqanlar va Buxoriyni chalg'itmoqchi bo'lganlar. Buxoriy ulardan birining hadisini tinglab, «Men bunday hadisni bilmayman» degan. Keyingi hadislariga ham «Bilmayman» deb javob qilgan. O'n hadisning hammasiga «Bilmayman» degan. Keyin ikkinchi muhaddisni ham tinglagan. Xamma hadislariga «Bilmayman» deb javob bergan. Uchinchi, to'rtinchi olimga ham shunday... Ahvolni tushunganlar «Buxoriy fitnani bilib qolibdi» deb o'ylashgan. Ahvoldan behabarlar esa: «Bu Buxoriy deganlari hech baloni bilmas ekan-ku» deb o'ylashgan. Buxoriy esa o'n olimning yuz hadisini eshitib, «Bilmayman» javobini bergach, «Bormi yana hadischilar?» deb so'ragan. O'rtaga jumlilik cho'kkanda birinchi olimni turg'azib: «Birinchi hadising bunday... ikkinchisi bunday... Uchinchisi mana bunday... To'rtinchisi bundoq... Beshinchisi bu tarzda...» deb javob qaytara boshlagan. O'n olimning hamma hadislarini takror-takror tuzatib yoddan aytib bergan. Shunda ular Buxoriyning hadis ilmida tengsiz olim ekanligini tan olishga majbur bo'lganlar. Shunday bo'lgan bizning ulug' ajdodimiz Buxoriy!

**O'qituvchi:** — Rahmat, Said, o'tir. Endi navbat senga, Hakim. Sen Imom Buxoriy hayotining so'nggi fasllari haqida gapir...

**Hakim:** — Xo'p bo'ladi, domla... Nishopurda Imom Buxoriyning Muhammad ibn Yaxyo az-Zuhliy degan bir ustozlari bo'lguvchi edi. Ul mo'tabar zot Buxoriyning Nishopurga kelayotganini eshitib, butun talabalarini kutib olishga da'vat etgandilar. O'zlar ham unga peshvoz chiqib, uni quchoq ochib kutib oldilar. Muslim al-Qushayri yozadi: Buxoriy Nishopurga kelganda turli xalq qatlamlari u kishini shunday samimiy hummat va uyushqoqlik bilan kutib oldilarki, bu paytgacha bunday izzat-ikrom na bir boshqa olimga, na bir podshoh yoki hokimga ko'rsatilgan edi. Shaharga 2—3 farsax naridan boshlab yo'lning ikki tarafida odamlar tizilib turishardi. Nishopurning barcha olimlari, shu jumladan az-Zuhliy ham Buxoriyni shahar tashqarisidayoq kutib oldilar. So'ng Buxoriy to'xtagan uyni odamlar bosdi. Uyning tomi, devori, chordoqlari ham muxislarga to'lib ketdi. Bu hol negadir ustoz az-Zuhliyning yuragini rashk o'tida yondirdi. Va bir kuni kelganlardan biri Buxoriya: Qur'oni Karimni o'qirkana, uning lafzlarini talaffuz etish yaratilganmi yo yaratilmaganmi? deb so'radi. Buxoriy: Fe'lizim (qilgan ishlarimiz)yaratilgan. Talaffuzimiz ham fe'lizimning biridir deb javob berdi. Va boshlandi balo... Ertasiga az-Zuhliy «Qur'oni Karim Olloh so'zi. Yaratilgan emas. Uni o'qirkana, so'zlarini talaffuz etishimiz yaratilgandir» deb aytuvchilar — dinimizda yo'q narsalarni dinimizga suqmoqchi bo'lgan bid'atchilardir. Biz bundaylar bilan bir majlisda birga o'tirolmaymiz», deb e'lon qildi. Shundan so'ng Nishopurda joni ham omon qolishiga ko'zi yetmagan Buxoriy zudlik bilan ona shahri Buxoroga jo'nab ketishga majbur bo'ldi. «Yo Rabbib! Nishopurda men bir mansab yo amal istamasam... Nega bunday bo'ldi? Nega ustozim menga qarshi chiqdilar? Nega shuncha ko'p odam menga qarshi? Ko'nglim ona shahrimga oshiqadi... Bu odam menga hasaddan o'lmasin» dedilar buyuk ajodimiz Buxoriy o'zlariga sodiq hamrohlariga.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — Bor ekan-da u paytlarda ham o'zimizga o'xshaganlardan...

**Hakim:** — Ha... Buyuk muhaddis Buxoroga kelgach, bir qancha vaqt yangi shogirdlariga hadis ilmidan dars berib yurdi. Ammo bu yerda ham kulfat changali uning yelkasiga tushdi... Bir kuni Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy Imom Buxoriyni saroya kelib shahzodalarga dars berishni taklif qildi. Buxoriy umr bo'yи o'zi targ'ib qilgan yo'lni unga ham taklif qildi. Buxoriy amiriga: «Ilmni xohlovchilar olimlar huzuriga borib ilm olishlari kerak» deb xat yozdi. Shuning natijasida toju taxt amiri az-Zuhaliy, hadischilar amiri Buxoriyni Buxorodan chiqarish to'g'risida farmon chiqardi... Buxoriy bu-

tun oilasi bilan Samarqandga otlandi. Xartang degan qishloqda kasallandi va 870 yilda vafot etdi (Pauza). Domla... Afu eting, domla... Men Buxoriy hayotining so'nggi yillari haqida o'qiganimda yig'ladim...

**O'qituvchi:** — Yuragingdan aylanay sening, Hakimjon. O'zi shunday. Bu hayotning so'ngi ma'yusroq.

**Hakim:** — Nega shunday, domla, nega shunday? Nega yaxshilarning, ulug'larning yonida hasad ivirsib yuradi? Nega ularga ilashadi bu ifloslik?

**O'qituvchi:** — Aylanayin sendan, Hakimjon... Men ham bu haqda ko'p o'ylayman, Ba'zan dunyoning qurilishida bir nuqs bormi, degan kufr xayollarga ham boraman. Ammo bu balki Ollohnning sinovidir, behikmat emasdir bularning bari, degan yakunga kelaveraman.

**Hakim:** — Axir, qarang, domla... Nishopurlik olim az-Zuhliy Buxoriyga dars bergan-ku! O'z ustozi-ku! Sevinsa bo'lmaydimi axir shogirdining shon-shuhratidan?! «Mening bolam bu!» deb faxrlansa bo'lmaydimi?!

**O'qituvchi:** — Az-Zuhliyni bu gunoh ishga qo'l urdirgan narsa faqat hasad olovi emas! Albatta, uning yuragini yondirgan hasad alangasini inkor etib bo'lmaydi... Lekin, men ga qolsa, gap faqat qalbidagi otash ustida bo'lsa, u o'zini bosa bilardi. Axir, uning o'zi «Olov o'tinni yegani kabi, hasad ham yaxshiliklarni yeydi» hadisini shogirdlariga yuz martalab takror-takror aytmaganmid? Men, az-Zuhliy o'z davrining farzandi sifatida jamiyatdagi fikr to'lqinlardan chetda qololmagan, deb o'ylayman. O'sha davrda bir-biri bilan olishib yotgan turli mazhablar, qon to'kishlar, aqllarda o'rashib qolgan, mutaassiblikka yetaklovchi aqidalar ham qattiq ta'sir o'tkazgan bo'lishi kerak.

**Hakim:** — Podishoh-chi, podshoh! Buxoro amirini aytaman. Nahot o'z yurtining eng nodir farzandidan og'rinsa... «Ilmnинг sharafini himoya qilgan jahonda birdan-bir ulug' olimim,» «erka muhaddisim» deb qo'ya qolsa davlati kamayib qolarmidi?

**O'qituvchi:** — Masalaning nozik tomonlari ko'p, Hakimjon. Balki, hokimiyatning nufuzi va obro'sini saqlash uchun shunday qilishi kerak bo'lgandir. Kim biladi deysiz. Bu masalalarda Olloh bilimdonroq. Lekin, Hakimjon, senga va bolalar, hammangizga tasalli va qanoat beradigan bir narsa bor: Bu dunyo intizomini ko'rsatuvchi bir dalil shuki, har kim ekkanini oladi. Zulm o'tkazganlar zulm ko'radi. Padarkushlar o'idiriladi. Nopok yo'ldan yurganlar, noplak yo'lda halok be'ladi-lar. Imom Buxoriy Buxorodan chiqib ketarkan: «Ollohim!

Menga qilmoqchi bo'lgan ishlarini ularning o'zlariga ham ko'rsat!» deb qarg'agan edi. Oradan bir oy o'tar-o'tmas Buxoro hokimi az-Zuhaliy nosamimiy-nohaq bir farmoni tufayli xalq tomonidan qo'lga olinib, hushtak va qichqiriqlar ostida xachirga teskari mingazib Buxorodan chiqarib yuhorildi. Haj qilish bahonasida qochib qutulmoqchi bo'lganda, Bag'dodda qo'lga olinib, zindonga tashlandi va zindonda parishon bir ahvolda olamdan o'tdi (bolalar yengil tortib «qoyill!» deya qichqiradilar).

**Mansur:** — Lekin Buxoriy yigitning guli bo'lgan! Qotma, oriq, o'rta bo'yli, qora mag'iz. Ko'zlar o'tkir. Bir qarashda insonning butun ichki olamini ko'ra oladigan va umuman mo'ljalga bexato uradigan mernan yigit... Kamonga o'q qo'yib otganida hamma o'qlari nishonga tekkan. Faqat ikki martagina Buxoriyning o'qi nishonga tegmagan.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — Hov, sen o'zing nima deb sayravossan?

**Mansur:** — Sayrayotganim yo'q! Bu — tarix haqiqati. Bilib qo'y: Buxoriy yana chapdast chavandoz bo'lgan. Bir sakrashda otga minar, tog' tepalariga, qir-adirlarga shunday taqirlatib ot choptirardiki, ko'rganlar yo oq'zi ochilib qolar, yo havasdan entikib ketar edi.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — Bir odamni ursak uraveramiz, maqtasak maqtayveramiz. Buxoriyda bu xislatlar bo'lganmi-bo'limganmi, noma'lum. Hoy Mansur, 1200 yil burungi gaplarni sen qayoqdan bilasan?

**Mansur:** — E, og'ayni, tarix shunisi bilan qiziq-da! Bular hammasi sen bilan menga yozib qoldirilgan. Yodingda tut: Imam Buxoriyning Abu Ja'far degan bir shogirdi bo'lgan. Ana o'sha yozib qoldirgan bu gaplarni.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — O'zbek tilida bosilib chiqqanimi bu kitob?

**Mansur:** — Yo'q, arab tilida.

**To'qqizinchi o'quvchi:** — Sen arabchani bilasanmi?

**Mansur:** — Aytdim-ku, dadam sharqshunos olim deb... Agar arabchani bilmasam, men ota o'g'il bo'larmidim?

**To'qqizinchi o'quvchi:** Menga ham o'rgat. Agar bilganning rost bo'lsa...

**Mansur:** — Jonim bilan. Men aytgan kitoblarni o'qimoqchi bo'lganlar arab tilini o'rganishlari kerak. Shunda u kitoblarni o'z qo'llariga olib o'qiy oladilar.

**Said:** — O'rganamiz arab tilini.

**Hamma o'quvchilar** (baravariga): — O'rganamiz! Buxoriy bilganlarini biz ham bilishimiz kerak!

*Parda*

## ZAMAHSHARIY DARSI

### QATNASHUVCHILAR:

H a k i m  
S a i d  
M a n s u r  
O' q i t u v c h i

*Parda ochitganda H a k i m sahna o'rtasidan oldinga  
qarab keladi. Qo'lida gazeta.*

**Hakim:** — Biz ajoyib-g'aroyib xalqımız... Boshimizga qancha balolar yog'ilsa ham shukrona qilamiz, deb yozibdilar muhtaram olimlarımızdan biri (Gazetasini tomoshabinlarga ko'rsatadi). Bu balki fazilatdir, balki nuqsondir, bilmayman debdilar. Men ham bilmayman. Ammo uyda otam ham shukur qiladilar. Shukur qilmay bo'larkanmi? O'zingiz o'ylang axir. Shundoq ko'z o'ndimizda, davlat mustaqilligining sanoqli yili ichida kimlarımızni tiklamadik, kimlarımızga qayta ega bo'lmadik, deydiot am. Rostdan ham shunday bo'ldi. Buyuk davlat arbobları, allomalar, jadidlar... Biz ham shukur qilishimiz kerak, menimcha. Albatta shukur qilamiz.

*Hakim sahnaning o'ng tarafidagi kursiga borib o'tiradi.  
Qo'lida kitob bilan M a n s u r kiradi.*

**Mansur** (tomoshabinlarga ko'rsatib): — Bugun biz nomi jahonga tanilgan buyuk allomamiz Zamahshariy haqida suhbatlashamiz. Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariy 1075 yilda tug'ilib, 1144-yilda vafot etgan. Bizning farzandimiz Xorazmning bolasi. Butun Mashriqu Mag'ribga millatimiz zakovatini namoyish etgan ulug' tafsirchi, hadischi, tilshunos, geograf, adib va shoir. Nomi hech qachon tilga olinmagan shaharcha Zamahsharni jahon haritalarida ko'rsatib qo'yishga majbur qila olgan yarqiroq aql sohibi. Hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan 54 noyob asarning muallifi.

*Mansur sahnaning chap tarafiga borib o'tiradi.  
Sahnaning o'rtasiga tez va sur'atli odimlar bilan  
S a i d kirib keladi.*

**Said:** — Buyuklarning taqdiri shunday bir hodisalardan tarkib topadiki, ularning barcha ishlari — kashfiyotlari ham, fikrlari ham, xatolari ham — hammasi unutilmas ibrat namunalari bo'ladi. Mahmud Zamahshariy ham shunday. U tabiatan sho'x, qat'iyatli, jasur, serg'ayrat, shijoatli, metin irodali inson bo'lgan. Uning boshidan o'tgan bir qancha voqealar Mahmudning sinchkov, qiziq voqealarga o'ch bolakay bo'lganini ko'rsatadi. Zamahshariyga hadis va fiqh ilmidan dars bergan bir olim — ul zotning otlari Muhammad ibn Ali al-Domag'oni bo'lgan ekan — shunday deb yozib qoldirgan ekanlar. Bir kuni Zamahshariy ul zotga shunday degan ekan:

«Bolaligimda bir qushchani tutib olib, oyog'ini ip bilan qattiq tortib bog'ladim, qushcha qo'llimdan chiqib ketib bir inga berkindi. Men uni oyog'idagi ipdan qattiq tortgan edim, oyog'i uzilib ketdi. Onam qattiq xafa bo'lib: «Qushchaning oyog'ini uzganiningdek Olloh sening ham oyog'ingni uzsin» deb qarg'adilar. Yoshim talabalik yoshiga yetgach ilm istab Buxoroga jo'nadim. Yo'lda otdan yiqilib, oyog'im sindi. Buning asoratidan bir oyog'imni kestirishga majbur bo'ldim».

*Said sahnaning o'ng tomoniga Hakim o'tirgan tarafga  
qarab yuradi. Hakim o'rnidan turib sahnaning  
o'rtasiga qarab keladi.*

**Hakim:** — Mahmudning otasi Umar Zamahshariy Xorazmning ko'zga ko'ringan taqvodor, pokiza tabiatli, bilimi o'tkir kishilaridan bo'lib, o'g'lining bir oyog'i kesikligidan, al-batta, qattiq iztirob chekdi, uni uydan hech qayoqqa chiqazmay parvarishlashga kirishdi. «Uyda o'tirib ham kishi ko'p narsa qila oladi, chuqur bilim egallashi ham mumkin» deb o'git berdi va o'g'li istagan kitoblarni keltirib turdi. Mahmud ko'p mutolaa qilish bilan birga, yana ichida katta maqsadlar bilan yashayotgan edi. Otasining, o'ziga qarab ezilishlarini ko'rganda, birinchidan, she'r yozib, «Oqsoqlik nuqson emas» deb, otasiga tasalli berdi va irodasi mustahkamligini ko'rsatishga urindi. Ikkinchidan, otasiga qat'iy iltimos qilib, tashqari chiqdi. Bora-bora madrasaga borib o'qishga ham ko'ndirdi.

*Sahnaning chap tomoniga borib o'tiradi. Mansur o'rnidan turib, sahnaning o'rtasiga keladi.*

**Mansur:** — Xorazmda bu davrda mu'tazila oqimi keng taralib borayotgan edi, ammo bu oqim zamonning rasmiy kishilari tomonidan ta'qibga uchrayotgan edi. Mahmudning otasi Umar Zamahshariy mu'tazila oqimiga mansub bo'lgani uchun qamoqqa olinib, qarilik yillarini hibsda o'tkazdi. Ammo bundan ham Mahmudning irodasi sinmadi, aksincha, yanada toblandi. O'sha davrning diyonatli kishilari, jumladan, madrasa mudarrisi — lug'at, nahv va tib olimi Abu Mudar Zabbiy yosh Mahmudning qudratli iqtidorini fahmlab va oilasidagi qiyinchiliklarni inobatga olib, unga katta moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatib turdi. (Mansur Hakimning yoniga borib o'tiradi. Va uni savolga tutadi.) Menga qara, Hakim, sen bilmaysanmi, mu'tazila qanday oqim ekan?

**Hakim:** — Yo'q, bilmayman.

**Mansur:** — Said bilmasmikin?

**Hakim:** — Bilmadim, o'zidan so'raylik-chi.

**Mansur:** — Said, buyoqqa qaragin! (Said ularning oldiga keladi). Mana bu kitobda Mahmud Zamahshariyning otasi mu'tazila oqimiga mansub bo'lgani uchun qamoqqa olingani to'g'risida, uning mudarrisi Abu Mudar Zabbiy mu'tazila oqimining shaydosi bo'lganligi to'g'risida yozilgan. Zamaxshariya ham shu oqimning asoslarini o'rgatgan ekan. Bu mu'tazila oqimi qanday odim o'zi, bilmaysanmi?

*Ularning suhbati ustiga o'qituvchi kirib keladi.*

**O'qituvchi:** — O'rtaqarda tug'ilgan savolni eshitdim. Bu oqim haqida o'zim gapirib beray (U sahna o'rtasiga qarab keladi). Islom tarixi bilan shug'ullangan olimlardan Ibrohim Ogoh Chubukching fikricha, ilgarigi paytlarda siyosiy voqealarga aralashmaydigan kishilarni mu'tazila deyisharkan. Payg'ambarimiz vafot etganlaridan keyin ularning xotinlari Oysha onamiz bilan kuyovlari Ali o'rtasida ixtilos chiqib, bu — qonli urushga aylanganda, olishuvda betaraf qolganlarni mu'tazila deyishgan ekan. Ammo bu hali oqim emas edi. Mu'tazila maktabining tug'ilishi bir voqeа munosabati bilan 748 yilda yuz beribdi. Basradagi bir maktabning boshlig'i Hasan Basriy o'z talabalariga dars o'tayotgan edi. Bir payt: «Katta gunoh qilgan odam mo'minmi yo'kofirmi» degan savolni o'rtaqa tashladi. Vosil degan bir talaba «katta gunoh qilgan odam kofir ham emas, mo'min ham emas, bunday odam fo'siq», dedi. Hasan Basriy shunda: «Vosil na u yoqlik, na buyoqlik bo'ldi, ya'ni mu'tazila bo'ldi», dedi. «Bizdan ayrıldi» dedi. Vosilning mudarrisdan ayrılishi bilan «Ayrılganlar»

ma'nosini bildiruvchi mu'tazila oqimi vujudga keldi. Hasan Basriyning fikricha, katta gunoh qilganlar, masalan, odam o'ldirganlar, o'g'irlik qilganlar, yetim haqini yeganlar, birovni-birovga gij-gijlagan kishilar — qancha ibodat qilsalar ham, — kofir sanalardi. Mu'tazilaga ko'ra, bunday kishilar tovba qilmasa kofir bo'ladi va jahannamga ketadi. Boshqa qaytarmaslik sharti bilan tovba qilsa, imoni butun ho'lgani uchun, kofirdan yengilroq hukm olib, do'zohda gunohiga yarasha jazolangan-dan keyin, jannatga o'tishlari ham mumkin.

Mu'tazila, sunnat ahlining qarashlariga sal o'xshardi. Ammo undan farqlanuvchi joylari ham bor edi. Sunnat ahliga ko'ra, katta gunoh qilgan kishi kofir hisoblanmasdi, gunohsiz ham hisoblanmasdi, gunohkor mo'min hisoblanardi — Olloh xohlasa, kechiradi, xohlamasa yo'q. Ya'ni sunnat ahliga ko'ra, insonlar uchga bo'linadi: mo'minlar, munofiqlar, kofirlar. Vosil esa to'rtinchı tushunchani o'rta ga olib kirdi, ya'ni fosiq tushunchasini yaratdi. Bu o'sha davrdagi qarashlarga teskari kelayotgan edi. «Fosiq» — «ikki joy orasidagi o'rta joy» tushunchasi yo'q edi. Yana mu'tazila oqimiga ko'ra, taqdir masalasi ham bo'lakcharoq. Ollohning bandalariga ato etgan fe'l-atvorlardidan tashqarisi, Ollohga daxldor emas. Bandalar hoshqasini erkin iroda bilan yaratadilar, demak qilgan ishlari yuzasidan hisob berishga majburdirlar. Demak, mu'tazila oqimi iroda erkinligini himoya qilardi va qilingan ishlari uchun javobgarlik talab qilar edi. Bunday qarashlarni tarixda ba'zi xalifalar qo'llab-quvvatlagan bo'lsa ham, Zamahshariy zamonida mu'tazila oqimini qo'llovchilar hokimiyat tepasida qolmag'an, keng xalq ommasi ham uncha hushlamas edi. Tushunarlimi? Qolganini o'zingilar davom ettiraveringlar. Savol tug'ilsa, meni chaqirarsizlar.

**Said:** — Zamahshariyning yoshlik muhiti Malikshoh va Nizomulmulk zamoniga to'g'ri keldi. Bu hukmdorlar olimlarni va adabiyotchilarni qo'llab-qo'ltinglar edilar. Zamon donish-mandlari saroyda qanday izzat-ikrom qilinayotgani haqidagi xabarlarni eshitgan Mahmud endi o'zining ijodiy faoliyatiga keng maydon ochildi degan xayolga keldi. Shuning uchun ham u Nizomulmulkka bag'ishlab bir qasida yozdi. Qasidasida zamondan noliydi, o'z qobiliyatini maqtab, yuksak martabaga loyiqligiga ishora qiladi. Ammo Nizomulmulk uning qasidasiغا e'tibor bermadi. Chunki u ham mu'tazila oqimini yaxshi ko'rmas, Zamahshariy esa mu'tazila oqimiga mansubligini surishtirib bilib olgan edi. Shundan keyin Zamahshariy Bag'doddan ketib, Xurosonga bordi. Munshi Ali Ardistoniyiga bag'ishlab qasida yozdi. Undan ham e'tibor topmagach,

Isfaxonga borib Malikshohning o'g'li Muhammadga bag'ishlab qasidalar yozdi. Ammo har gal e'tiborsiz qolaverdi, ana shundan keyin u o'zini butunlay ilmiy va ijodiy faoliyatga bag'ishladi.

**Hakim:** — Zamahshariy o'z davrining eng ilmiga tashna kishisi edi. O'qigan bilan, tahsil olgan bilan hech tashnaligi qonmas, yana va yana o'qigisi kelaverardi. Juhonning qayerida qanday taniqli olimlar bor deb surishtirib yurardi va birdan o'shalar yashaydigan yurtlarga ketib qolar edi. Shu tariqa eng oldin Zamahshardan Buxoroga, so'ng Xurosonga, keyin Bag'dodga, Nishopurga, undan keyin Makkaga, Shomga yana Iroqqa, yana Makkaga, yana o'z yurti Xorazmga, undan Xijoza, yana ota eliga qatnay-qatnay ham ilm olar, ham ilm ulashar edi. Hatto bir marta yoshi oltmis beshga yetganda ham, o'zi Makkadagi madrasalardan birida dars bergani holda tag'in Abu Mansur al-Javoliqiy degan katta olimning darslariga ham o'quvchilarday qatnagan edi. Zamahshariy adabiy ilmlarni Ali Nishopuriydan va Isfaxoniydan, hadis ilmini Abul Hattob va Shaqqoniydan, fiqh ilmini Do'mag'oniydan, til, lug'at, nahv ilmini Shajariydan o'rgandi. Makkada Ali ibn Hamza ibn Vahhos bilan do'stlashdi. Hamkorlik qildi. Bu davrda she'riyat, xususan, aruz ilmini teranlashtirdi. Aytishlaricha, Zamahshariy oltmisdan ortiq buyuk olimlar dan ta'lim olgan.

**Mansur:** — Zamahshariy butun umrini ijodiy faoliyatga bag'ishladi. Olamdan uylanmay o'tdi. U «Oltin shodalar» nomli asarida shunday deb yozgan ekan: «Ayol kishiga uning husni kamoli uchun emas, balki, pokiza iffati vajidan uylanish kerak». Pokiza iffat bilan chiroj bir-biriga qo'shilgandagini barkamollik hosil bo'ladi. Barkamollikning bundan ham yuskak cho'qqisi ijodkor kishilar uchun uylanishdan o'zini tiyishdir. «Nozik iboralar» asarida esa shunday degan: «Xat bilan qog'ozni qoralash sohibjamolning yuzini qizartirishdan ko'ra yaxshiroq».

Ana shunday qarashlar olamida yashagan Zamahshariy qisqa vaqt ichida o'z sohasining eng oldingi qatoridagi olimlardan biri bo'lib tanildi.

**Said:** — Zamahshariy tafsir, hadis, fiqh, kalom, nahv, lug'at, adabiyot, aruz, tarjimai hol (hozirgi til bilan aytganda: adabiy portret) sohalarida qalam tebratdi. O'z ona tili o'zbekcha bo'lsa-da, Xorazm lahchasini va forschanı mukammal bilsa-da, u zamon tartibotiga ko'ra, arabchada yozdi. Bizga uning 54 asarining nomi ma'lum. Shundan o'n to'rttasi hozirgacha topilgan emas. Qolgan qirqtasi jahon kutubxonasi

larida sochilib yotibdi. Va jahoning turli mamlakatlarida qayta-qayta nashr etilgan va nashr etilmogda.

Bularning ayrimlarini sanab o'tamiz (zaldagilarga), siz esa eslab qolishga harakat qiling.

**Hakim:** — «Al-Kashshof», Zamahshariy bu asarini Makkada yoza boshlagan, umrining oxirlarida, Urganchda, 1143 yilda bitirgan. Kishi Qur'oni o'ziga qanday kashf qilishi to'g'risida bo'lib, katta mahorat va nazokat bilan Qur'oni tafsirlagan. «Al-Kashshof» ko'p mamlakatlarda bosilib chiqqan, eng yaxshi nashri Bayrutda amalga oshirilgan. Asar to'rt jild-dan iborat.

**Mansur:** — «Al-foiq fi g'arib al-hadis». Hadis matnlarida tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni izohlagan bir lug'at kitobidir. Haydarobodda 1906 yilda va Qohirada 1945 yilda nashr etilgan.

**Said:** — «Al-Mufassal». Bu asar arab tilini o'rganishda darslikday muhim vazifani o'tagan. To'rt bo'limdan iborat. Fe'l, son va tushunilishi qiyin bo'lgan kalimalarga ko'pdan-ko'p har yoqlama izohlar bergan. Angliyada, Hindistonda, Misrda — Iskandariya va Qohira shaharlarida bosilib chiqqan.

**Hakim:** — «Al-Unmuzal». Bu ham til va lug'atga oid asar bo'lib, Britaniyada, Tabrizda, Tehronda, Qohirada, Istanbulda bir necha bora nashr etilgan.

**Mansur:** — «Al-Mufrad val murakkab». Arab sintaksisiga (jumla qurilishiga) oid asar. Bag'dodda nashr etilgan.

**Said:** — «Mas'ala fi kalimat al-shahoda». Tavhid va tilga oid asar. Bag'dodda nashr etilgan.

**Hakim:** — «Asos al-balog'a». Klassik arab tilining so'zlarini bir kitobga tizib, ularning faqat asl ma'nosini emas, majoziy ma'nolarini ham to'la tushuntiruvchi asar. Qohirada, Haydarobodda, Bayrutda va boshqa joylarda bosilgan.

**Mansur:** — «Muqaddimatul Adab». Bu asar o'zbekchada ham chiqqan. Ovrupo tillariga ham tarjima qilingan va nashr etilgan. Leypsigda, Moskva va Leningradda, Istanbul va Bursada, Varshavada va boshqa joylarda bosilgan va keng tadqiq etilgan.

**Said:** — «Navobig' al-kalim». Saylangan hikmatli jumlalar to'plami. Bu asar Leyden, Istanbul, Parij, Qohira, Bayrut kabi shaharlarda nashr etilgan.

**Hakim:** — «Atvoq al-zahab». O'qit, hikmat va axloq mavzularida yozilgan g'oyat go'zal nasriy asar. Yuzta naql va maqolotdan iborat. Venada, Leypsigda, Shtutgartda, Parijda, Istanbulda bosilgan.

**Mansur:** — «Rabi' ul-abror va nusus ul-axbor». Odob,

axloq, iffat kabi fazilatli xususiyatlar haqida tarixiy, adabiy va ilmiy maqolalardan iborat. Qohirada, Tabrizda (fors tiliga tarjima qilingani), Bag'dodda nashr etilgan. To'rt jiddan iborat.

**Said:** — «Devon». Zamahshariyning devoni hanuzgacha hech qayerda bosilmagan. Bir yozma nusxasi Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanmoqda.

**Hakim:** — Biz sizga Zamaxshariy asarlaridan o'n ikkitasini sanab o'tdik, xolos.

**Mansur:** — Bizda, O'zbekistonda Zamahshariyini hozirgacha keng o'r ganilmagan. 1971 yilda professor Alibek Rustamovning «Mahmud Zamahshariy» degan risolasi bosilib chiqqan. «Muqaddimatul adab» asarining tarjimasi ham ma'lum. Sharqshunos olimlarimiz Ubaydulla Uvatov, Zohidjon Islomov va bosqalarning maqolalari chiqarilgan. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligida O'tkir Qoriyev va Mas'udali Hakimjonovning Zamahshariyga bag'ishlangan maqolalari e'lon qilindi. Ammo bular, qilinishi kerak bo'lgan ishlarning ko'lagini o'ylasak, faqat dengizdan tomchilardur, deyishdan o'zga ilojimiz qolmaydi.

**Said:** — Agar Zamahshariy asarlarining hammasini o'zbek tilida chiqaraman desak, ularning jami yuz jildga borib qoladi. Bunga esa bir necha o'n yillar va kattagina mablag' kerak.

**Hakim, Mansur va Said:** — Zamahshariy dahosini to'la biladigan avlod, uni to'la-to'kis o'qishga musharraf bo'ladigan nasllar hali oldinda.

**Hakim:** — E'tiboringiz uchun rahmat!

*Parda.*

## **QODIRIYA QASABASI VA ABDULQODIRNING TO<sup>+</sup>G<sup>+</sup>RISO<sup>+</sup>ZLIGI**

Toshkent viloyatining Buyuk Ipak Yo'lidan Bo'stonliqqa qarab ketsangiz, Do'rmon atrofida Qibrayga yetmasdan burun Qodiriya degan qasabadan o'tasiz.

— Nima uchun bu yer Qodiriya? — deb so'rasangiz uncha-muncha odamdan aniq bir javob ololmaysiz, faqat ayrim paytlarda:

— Bir zamonlar bu yerda Qodiriya muridlari yashagan bo'lsalar kerak, — degan taxminni aytadilar.

Mayli, joylarning nomi masalasini tarixchilarga qo'yaylikda, «Qodiriya» nimaligini bilib olaylik.

«Islom» degan qomusiy lug'at (Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. Moskva — 1991) da: «Qodiriya bu sufiylik tariqatidir» deyilgan va uning asoschisi Abdulqodir Jayloniy (Jiloniy yoki G'iloniy) ekanligi va u 1077—1166 yillarda yashab, faoliyat ko'rsatqanligi qayd etilgan.

Islom tarixi kitoblaridan Abdulqodir Jayloniy «al-Gunya» («Boylik»), «Fath ul-Rabboniyy» («Rabbiga oid ilmlarni egallash»), «Futuhul G'ayb» («G'ayb ilmini egallash»), «Mafotihul G'ayb» («G'ayb egasi bo'lish») kabi butun musulmon olamini o'ziga ergashtirgan kitoblarni qoldirganligini bilish mumkin.

Ba'zi bir rivoyatlarga qaraganda, Abdulqodir Jayloniyning qo'sha-qo'sha o'g'illari bo'lgan. Ular Fasga, Misrga, Arabistoniga, Turkistoniga, ya'ni bizning yurtimizga va Hindistonga tarqalib, otalari Abdulqodirning aqidalarini yoyganlar va shu tariqa Qodiraya tariqati shakllangan. Bu rivoyat qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riliгини aytolmaymiz. Ammo bizning Toshkent viloyatimizda hozir ham Qodiriya qasabasi borligi — fakt. Undan tashqari bizda, bizning «Avliyolar tarixi»ga kirgan kitoblarimizda Abdulqodir G'iloniy haqida bir tالay hikoyatlar bor. Ulardan biti shunday:

Abdulqodir G'iloniy bolaligidagi juda yaxshi o'qir edi. Bir kuni u onasidan katta shaharga borib o'qishga ruxsat so'radi.

— Qayerda o'qimoqchisan? — dedi onasi.

— Bag'doda, — dedi Abdulqodir.

— Nega?

— Chunki Bag'dodda ilm ko'p, — dedi Abdulqodir jovdirab.

Chindan ham u paytlarda Bag'dod — Islom dunyosining ilm markazi sifatida dong taratgan edi. Onasi, Abdulqodirning Bag'dodga horib o'qishiga rozi bo'ldi. Ona o'g'lini qattiq sevar, o'g'li o'qishga ketib qolsa, sog'inib o'layozishini yaxshi bilardi. Ammo Ollohnning nazdida ilmlilar yuqori turishini ham yaxshi bilgani uchun, Abdulqodirni ilmgaga qiziqishini so'ndirgisi kelmadи. Bu yerda ko'cha changitib yurguncha chuqur bilimli bo'lgani yaxshi-ki! — deb o'yadi va Bag'dodda yashashi uchun unga qirq tilla pul berdi. Bu oltinlarni yo'qotib yo o'g'iratib qoymasini degan xayol bilan xirqasining ichiga joylab tikib tashladи. O'g'lini yo'lga solayotganda:

— O'g'lim, hech qachon yolg'on so'ylama. Tilingni hech qachon to'g'rilikdan chetga burma! — deb nasihat qildi.

Keyin ona-bola xayrplashdilar. Bo'a Abdulqodir bir karvonga qo'shilib yo'lga chiqdi. Bir kuni kimsasiz sahroda bexosdan olt-mish nafar otliq yigit, karvonning yo'lini to'sdi. Bular qaroqchilar edi. Karvonni obdan titig'ini chiqarishdi. Qaroqchilar boshlig'i uch-to'rt yigitini bilan bolaga qichqirdi:

— Nari tur, hey... sening nimang bor, kiming bor bu yerda?

— Hech kimim yo'q... Ammo qirq tillam bor! — dedi Abdulqodir.

Ular haholab kulishdi va:

«Bolada qirq tilla nima qiladil» — deb gapini hazilga yo'yib, o'tib ketishdi. Yana bir boshqa qaroqchi uning boshiga keldi:

— Mening qirq tillam bor, — dedi kulib Abdulqodir. Bu qaroqchi ham qo'lini silkib, jilmaygancha o'tib ketdi.

Uchinchi bir qaroqchi:

— Hey, yo'lda nega serratin turibsan! Qoch! — dedi do'q urib.

— Mening qirq tillam bor, — dedi yana Abdulqodir.

— Nima deysan?

— Qirq tillam bor...

Qaroqchi bolani qo'lidan yetaklab, boshliqning yoniga olib bordi:

— Bu bola, qirq tillam bor, deyapti...

Boshliq uni oldin ham ko'rgan emasmi, oldin jilmaydi:

— Qayerda qirq tillang? — dedi haholab.

— Xirqamning ichida!

Boshliq amr qildi, xirqani so'kdilar, qirq tilla chiqdi.

— Nega to'g'risini aytding? Yolg'on so'ylab ketaversang ham bol'ardi-ku?

— Men onamiga: «Hech yolg'on so'ylamayman», deb so'z bergenman-da!

Qo'li qonli, qalbi gunoh bilan to'la boshliq bolaga qarab turib birdan ko'zlar yoshlandi. Marvaridday bir temchi yuzlaridan dumalab ketdi. Birdan butun vujudi marhamatga to'ldi.

— Qaranglar! Bu bola onasiga bergen so'zida turib, so'ziga amal qildi. Biz esa, necha marta qo'lga tushamiz. Necha marta, ortiq qaroqchilik yo o'g'rilik qilmayman, deb va'da beramiz. Ammo so'zimizga xiyonat qilamiz. Nima, biz shu bolachalik to'g'ri va qo'rmas bo'lolmaymizmi? — dedi va shart o'rnidan turib: — Yo'q, sizlar nima qilsanglar qilaveringlar, ammo men endi qaroqchilik qilolmayman. Tavba qildim! — dedi. Boshqa qaroqchilar:

— Bugungacha yo'lto'sarlik, zo'ravonlik, talonchilikda bizza boshchilik qilding, endi tavbada, yaxshilikka qaytishda ham boshlig'imiz bo'lib qol, — dedilar.

Boshliq amri bilan karvondan olganlarini ega-egasiga qaytarishdi. Hammalari o'sha kundan boshlab halol mehnat qilishga o'tishdi.

Ana shunaqa! So'zda turish, to'g'rilik ham hayotga yaxshi ta'sir o'tkazadi. Bizda to'g'riso'z bolalar ko'p. Balki, bizning Qodiriya qasabamizda turuvchi hamma bolalar ham to'g'riso'z bolalardir. Va biz hammamiz ham Abdulqodirday bor gapni aytishdan qo'rqlaydigan, o'limdan ham hayiqmaydigan insonlar bo'lishga intilamiz.

## **QARDOSHLIK YO'LLARIDA (YASSAVIY)**

*Ikki parda, besh ko'rinishli o'yin*

### **QATNASHUVCHILAR:**

A h m a d Y a s s a v i y — XI—XII asrlarda yashab o'tgan shayx, Yassaviyya tariqati asoschisi, 45—50 yoshlarda.

M a n s u r A r s l o n b o b o ' g ' l i — Yassaviyning xalil-S a y y i d X o r a z m i y — falari, 17—20 yosh-S u l a y m o n H a k i m — larda.

O s h p a z

S a m a n d a r o t a — Sayyid Xorazmiyning otasi, 50 yoshda.

O' q i t u v c h i — O'zbekistondagi litsey muallimi, 30 yoshlarda.

M a n s u r —

S a i d — litsey talabalari, 14 yoshlarda.

H a k i m —

M u s t a f o Q o r a — Izmirda Sharqiyot litseyi muallimi, 30 yoshlarda.

B i r i n c h i o'q u v c h i — litsey talabalari,

I k k i n c h i o'q u v c h i — 14 yoshlarda.

U c h i n c h i o'q u v c h i —

T u r o n Q o r a — Mustaf o Qoraning otasi, 50 yoshda.

D a r a k c h i .

*Voqealar Toshkentda va Izmirda bo'lib o'tadi.*

*Yassaviy bilan aloqador voqealar XI asrda Turkistonda  
bo'lib o'tadi.*

## BIRINCHI PARDA

### 1-KO'RINISH

1993 yilning oktabr oyi. Toshkentdagi ilg'or litseylaridan biri. Xonaga qo'yilgan ashyo va jihozlarga ko'ra bu sinf tajriba xonasi ekanligi anlashiladi. Xonada televizor, magnitofon, butun dunyo va O'zbekiston xaritalari, Qirg'i-ziston, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonning manzaralari aks ettirilgan tablolar, plakatlar.

H a k i m kiradi. «Shirq» etib magnitofonni ochib, kas-setani joylaydi va yoqadi. Undan Ahmad Yassaviy hikmatiga bastalangan qo'shiq ovozi taraladi:

*Shaksiz biling, bu dunyo barcha xalqdan o'tar-o,  
Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketar-o.  
Ota-on, qarindosh qayon ketdi — fikr qil,  
To'rt oyog'lig' cho'bin ot bir kun sang'a yetar-o...*

*Hakim magnitofonni o'chiradi va xayolga berilgancha hikmatni har misrasidan so'ng bir to'xtab, yoddan o'qyidi.*

#### Hakim:

*Shaksiz biling, bu dunyo barcha xalqdan o'tar-o...*

Demak, barcha xalqlar, shu jumladan, biz ham bu dunyoda mehmonlarmiz. Barcha xalqlar kelaveradi, ketaveradi, bu dunyo esa abadiy. Bizga abadiy guvoh bo'lib, ammo ko'tgan-kechirganlari haqida hech nima demay jimgina yashashda davom etaveradi. Biz bu dunyoda mehmonlarmiz. Qanday ma'yus, ammo qanday chuqur fikr...

*Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketar-o...*

Ey chindanam, bu mol-dunyo deganlari bir omonat narsa, uni yig'ib, unga ishonib gerdamoq, maqtanmoq, kibru havoga berilmuoq kulgili; ertani unutish, kelajakni o'ylamaslik. Yo'qsa, odam topgan-tutganini yaxshilikka, ma'rifatga, haq yo'lga sarflasa, ko'ngli ravshan bo'lmaydimi? Bu dunyoda yaxshilik izi qoladi-ku!

*Ota-on, qarindosh qayon ketdi — fikr qil,  
To'rt oyog'lig' cho'bin ot bir kun sang'a yetar-o!*

Birgina bizning mahalladan bu yil qishdan to bahorgacha qancha o'shnilar, qarindoshlar o'sha «qayon»ga ketishdi. Biz o'ylamaymiz ham... «To'rt oyog'lig' cho'bin ot» — nima u? «Cho'bin ot...» «Cho'bin» — ya'ni cho'p, ya'ni yog'och. To'rt oyoglik yog'och ot — tobut. Biz o'ylamaymiz ham... Holbuki, bizning ham galimiz kelayotir. Bir kuni bizga ham keladi bu cho'bin ot... Bir rivoyat o'qigandim Ali Oqbosh degan bir shoirdan. Unda shunday bir gap bor edi.

*Tosh qushga tegsa — qush o'ladi...*  
*Qush toshga tegsa — yana qush o'ladi...*

«Men baribir qush bo'laman», der edi rivoyat qahramoni. Shu gap esimiga tushdi. Hayot va o'llim muammozi ham shunday: bu dunyoda mol yiqqan, molga berilgan, bir kun bo'lsa ham faqat zo'r yashab qolishni o'laydiganlar bor. Ular ham o'tadilar.

Yana bir toifa — butun topganini yaxshilikka, inson kamolotiga sarflaydiganlar ham bor; bu dunyoda balki o'zlar hech bir yorug'lik ko'rmasliklari mumkin. Ammo boshqalarga yorug' kun beradilar, ularning yaxshi va go'zal yashashiga hissa qo'shadilar. Bular ham bu dunyodan o'tadilar. Ammo men, o'sha rivoyatda qush bo'lgisi kelgan boladay, baribir butun borlig'imni odamlarga ularшиб yashagim keladi...

*Sinf eshigi ochilib, S a i d kiradi.*

**Said:** — Iya, Hakim! O'zing bilan o'zing gaplashib o'tirib-sanmi? Tinchlikmi?

**Hakim:** (savolga javob hermay, gapni buradi). — Tarix o'qituvchimizning topshiriqlari nima bo'lidi?

**Said:** — Nima, nima bo'ldi? Hech nima bo'lgani yo'q. Aytganlarni qilyapman. Men sening oldingga maqtangani keluvdim: Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» kitobini topdim. Kitob do'koniga kirsam, shundoq peshtaxtada turibdi. Sotib oldim. Lekin odamlarimizga hayroman: bir amaki «Hikmat» kitobini varaqlab ko'rdi-ko'rdi va sherigiga «Sal qim-matraq ekanmi?» dedi-da, qaytarib joyiga qo'ydi. Men avval achinib: «Odamlarimizda pul yo'q!» deb o'yladim, ammo ko'chaga chiqqanda kitobni olmagan o'sha kishi undan uch baravar qimmatiga bir quti sigaret sotib olganini ko'rdim. Biz shunday o'qishga yalqovmi, bilmadim, allaqanday xasis millat-mizmi-yeys?... Boshqa millatlar 10 ming, 20 mingga ham indamaygina kitob sotib olishyapti... Biz... biz...

**Hakim:** — Biz ham millat bo'lib qolarmiiiz...

**Said:** — Ha, endi sen bilan menga qolmagan bu masala...

**Hakim:** — Nega endi? Senga, menga, unga bog'liq bu masala... Hammamizga bog'liq... Har kim o'z joyida, qo'lidan kelgancha bir-birini uyg'otsa... bir-biriga turtki bo'lsaydi...

**Said:** — To'g'ri... Bizga ham bog'liq... Masalan, men bugun Ahmad Yassaviy kimligini bildim. Darsda boshqalarga ham aytaman.

**Hakim:** — Men bugun Ahmad Yassaviyning hikmatlari yozilgan kassetani topib keldim. Hozir kelganingda shuni eshitib, ta'sirlanib o'tirgandim. Xudo xohlasa, hammamiz eshitamiz.

**Said:** — Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida «Turkiston mulkinining shayxul mashoyixi» deb atalgan Xoja Ahmad Yassaviy o'zimizning Sayramda XI asrning II yarmida tug'ilgan. Sayram eski kitoblarda Isfijob yoki Oqshahar deb ham taniqli bo'lgan ekan. Bu yer hozir Qozog'istonning Chimkent viloyatiga qaraydi. Eng qadimiy zamonlardan buyon Sayramda bizning ota-bobolarimiz... yashaganlar. Tabiatchi chiroqli, obod, xushhavo bir voha bo'lgan. Hozir ham shunday. Ibrohim degan bir shayxning va ma'riatlari oiladan chiqqan go'zal xulqlı ayol Oyshaxonimning o'g'li bo'lgan Ahmad yetti yoshida otasidan ayrildi va opasi Gavharoy bilan birga ko'hna nomi Yassi bo'lgan Turkistonga ko'chib ketadi.

Qahramonlik dostonlarida Yassi otalarimizning boshkenti bo'lgani aytilgan. Turkistonda Arslonbob degan bir shayx boshqarib kelayotgan tasavvuf oqimi hukmron bo'lgan. Yosh Ahmad boshlang'ich ta'lifni Arslonbobdan olgandan keyin Buxoroga ketib, mashhur shayx Yusuf Hamadoniy bilan do'stlashadi va deyarli yigirma yil davomida ul buyuk zot bilan hamkorlik qiladi. Biri biriga ustoz, biri biriga shogird bo'ladi-lar. Yusuf Hamadoniy vafotidan keyin ul zotning o'rniiga Ahmad Yassaviy o'tadi. Keyin Yassiga qaytib, to umrinning oxirigacha, ya'ni 1167-yilgacha shayxlik qiladi, butun ellarga yangi tasavvufni yoyish bilan mashg'ul bo'ladi.

**Hakim:** — E, Yassaviyshunos bo'p ket-e! Ja ipidan-ignasigacha bilib olibsan-ku!

**Said:** — Ha endi, «Qimirlagan qir oshar», «Intilganga tole' yor» deganlaridek, biz ham bir oz qimirlab turibmiz. Darsda bir gapiray, bir gapirayki, hammaning og'zi ochilib qolsin...

*M a n s u r kiradi.*

**Mansur** (gapni ilib ketishga kirishadi): — Darsda qulqqa tepib o'tirma! Juda ishqiboz bo'lsang, shundog'am og'iz ochaveramiz. Og'zimiz ochilishiga ishqibozmisan? Mana (og'iz ochib ko'rsatadi): A-a-a!

### *Kulishadilar.*

**Hakim:** — Hozurjavobsan... Gap yo'q. Ammo bizga nima yangilik olib kelding?

**Mansur:** — Senga qanaqasidan kerak? Futboldanmi, siyosatdanmi, qizlardanmi?

**Hakim:** — Yo'q... yo'q... Oqituvchimiz Saljuqbey akaning topshiriqlaridan... Yassaviyga oid qanday yangi gaping bor?

**Mansur:** — Ha, umi? Bor yangilik... Bizda doim yangilik bo'ladi. Men noyob kitoblar do'konidan «Voqeoti Temurlang» degan bir kitob topdim. Unda Yassaviy haqida muhim gaplar bor ekan. (Yon daftarchasini chiqarib, unga imo qiladi.) Ba'zi birlarini bunga qayd qilib oldim. Bobomiz Amir Temur, Xoja Ahmad Yassaviyni ruhan pir deb bilgan ekanlar. Rivoyatda yozilishicha, Ahmad Yassaviy bir kecha bobomiz Amir Temurning tushiga kirib: «Zudlik bilan Buxoroga ket! Amirlik taqdiri sening qo'lingda...» degan ekanlar. Ertasiga ertalab bobomiz Buxoroga safar boshlabdilar va g'alabaga erishibdilar. Shundan so'ng yaqinlari bilan kengash qurib, Yassaviy qabri ustida shohona maqbara qurish masalasini o'rtaga qo'yibdilar. Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy inshootlari o'shandayoq boshlangan ekan. Sayramda ham Temur bobomiz Ahmad Yassaviy otalari va onalarining turbalarini qurdirgan ekan.

**Hakim:** — Haa, sening daraklaring ham chakki emas. O'zi nasib etsa, Sayramu Turkistonga ziyoratga boramiz.

*Shu orada qo'lida qog'oz o'rami ko'targan o'qituvchi  
ko'rindi. Uning ketidan bir qator o'quvchilar kiradilar.  
Hakim, Said va Mansur o'rinalaridan turib salom beradilar.*

**O'qituvchi:** — Vaalaykum assalom. O'tiringlar, o'tiringlar. (*Bolalar joy-joyiga o'tirib tinchlangach, dars boshlaydi*).

Biz bir hafta oldin «Bobolarimiz — faxrimiz» silsilasidan buyuk olimlar hayotini o'rganishga kirishgandik. Yassaviy hayotidan ma'lumotlar to'plashingiz kerak edi, to'g'rimi? Qani, kim nima topib keldi?

**Said:** — Men Yassaviy tarjimai holini o'rganib keldim.

**Mansur:** — Men Yassaviy va avlodlari maqbaralari tari-xini bilib keldim.

**Hakim:** — Men Yassaviy hikmati yozilgan kasseta topib keldim.

(*Boshqa bolalar ham baravar qo'l ko'tarishdi. O'qituvchi bolatarning bu faolligida sevinganini yashirmaydi*).

**O'qituvchi:** — Tashakkur, bolalar, ko'p sevindim. Tashakkur. Men ham sizlarga bir yangilik keltirdim (qo'lidagi qog'oz o'ramini ochib, qarshidagi qoziqqa iladi). Bu — Ahmad Yassaviyning muhri. XVI asrda ko'chirilgan bir kitobdan topdik va sizlar uchun atay kattaytirib nusxa tayyorladik. (O'rtaq jumlak cho'kadi, jumlidan so'ng).

Bu shaklning o'rtasiga «Ahmad Yassaviy Sulton Xoja Hazrat» deb yozilgan. Bu yozuvlarning atroflarida turli ism-shariflar, so'zlar, ta'birlar... Bular nimani bildiradi, men hozircha aniqlay olmadim. Balki, tariqat silsilasidir, balki, Yassaviylar shajarasи, balki, boshqa narsadir. Bularni o'rganishni sizlarga havola qilaman. Tarix kitoblarini titkilang. Olimlar bilan ko'rishing. Savollar bering. Men esa sizlarga faqat bir narsani aytishim mumkin: Yassaviyya tariqatini o'rganarkanman, Yassaviy xalifalarining nomlari meni ko'p sevintirdi va o'yantirdi. Ularning biri Sayyid, biri Mansur, yana biri Hakim ekan. To'larog'i: Mansur Arslonbob o'g'li, Sayyid Xorazmiy, Sulaymon Hakim. Hakim — Sulaymonning laqabi ekan. Mana, bizning sinfimizda ham Mansur, Hakim, Said ismli talabalar bor. Sizlarning otlaringizning o'ziyoq shu yurtning egasi ekanligingizni bildiradi. Shu vatan, shu millat farzandlari bo'lib, biz o'z ota-bobolarimiz nomini saqlab kela-yotirmiz. Yassaviy va uning xalifalari o'z diniy, ma'naviy, axloqiy qarashlarini, eskicha aytganda, yassaviyya tariqatini butun Mavorounnahr, Xuroson, Qoshg'ar, Onato'li, Rum, Qofqoz ellariga yoyganlar. Shuning uchun ham butun turk dunyosi o'zini Yassaviyning merosx'orlari deb biladi. Xoja Ahmad Yassaviy qanchalik bizning bobomiz bo'lsa, shunchalik butun islam olamining ham faxridir. Buxoriy, Termiziyy, Ibn Sino, Farg'oniy, Bahouddin Naqshband va boshqalar kabi... Men sizlar bobolarimiz shoniyu sharasini o'sha-o'sha qadimgiday yuksakda tutishingizga ishonaman. Hakimbek! Olib kelgan kassetangizni qo'ying. Yassaviydan eshitaylik!

(*Hakim magnitofonni yoqadi. Qo'shiq baralla yangrab borarkan, pardsa bekiladi*).

*1150 yil. Turkiston. Madrasalardan birida dars bor-moqda.*

*Ixcham bir hujra. Bir tomonda Ahmad Yassaviy, ikkinchi tomonda Mansur Arslonbob o'g'li, Sayyid Xorazmiy va Sulaymon. Shayx va xalifalar bir-birlariga yuzmay-yuz bo'lib o'tirishibdi. Hammalari mutolaa bilan bandlar. Eshik ochilib, xonaga o sh p a z kiradi.*

**Oshpaz:** — Meni ma'zur tutgaysiz, taqsirlar (kulim-siraydi). O'z taajjubimni sizlarga aytmasam, ichimga sig'mayotir.

**Ahmad Yassaviy:** — Ne gap, so'ylang, bo'tam?

**Oshpaz:** — Bilasiz, tashda yomg'ir quyib yotipti. Terib keltirilgan o'tunlarning batи isloq, ho'l. Yolg'iz Sulaymonning olib kelganlari qup-quruq, gurillab yonyapti.

**Ahmad Yassaviy:** — Rostmi? (Sulaymonga yuzlanib). Bu ne sinoat?

**Sulaymon** (kamtarlik bilan): — Ato! Burnog'i siz ovqat pishurmakni buyurg'on erdingiz, oshpaz og'am «O'tun yet-maydur» deb kelmish erdi. Ashobim o'tun teribdurlar, ammo oshxonaga kelg'uncha yog'in yog'ib, o'tunlar ho'l bo'lmushdur. Men ersam tergan o'tunlarni to'nimga chirmab, quruq keltirg'on erdim.

**Ahmad Yassaviy** (zavq bilan): — Balli, ey farzand, haki-mona ish qilmishsen...

**Sayyid:** — Maqbul bir so'z aytdingiz, Ato! Biz emdi Sulaymonni Hakim deb ulug'laymiz.

**Ahmad Yassaviy:** — Durust, bolam. Sulaymonga «Hakim» laqabi yaxshi libos bo'lur va, inshoolloh, uning hik-mat tili ham go'yo bo'lg'uvsidur. (O'z yozuvlariga sho'ng'ib, bir narsalarni axtara boshlaydi.)

**Mansur** (Sayyidning qulog'iga engashib, jilmaygancha past ovoz bilan so'ylaydi): — Avom bu gapni eshitsa, «tergan o'tunlarini yomg'irda to'niga chirmab, quruq keltirgani nima degan hodisa? Nahot shuning uchungina Sulaymon «Hakim» laqabiga musharraf bo'lsa?» deb taajjubga tushadi. Ammo biz bilamiz: bu — ramz. Hazrat aslida Sulaymon hikmat ilmini yaxshi o'tgangani uchun gapimizni inobatga olib, unga Hakim taxallusini berdi...

**Ahmad Yassaviy** (o'ychan, jiddiy): — Kelinglar, emdi, bolalarim, hikmat ma'nolari bilan mashg'ul bo'laylik. Mana, bir mas'ala:

*Tanning g'usli suvdandir,  
Jonning g'usli nedandir?*

Tag'i-da jo'nrog' qilib aytadurg'on bo'lsam, inson bolasi o'z vujudini suv bilan yuvib tozalasa bo'ladi, ammo Jonni nima bilan yuvsu bo'lur?

*O'rtada sukunat. Nihoyat, Hakim tilga kiradi.*

**Hakim:** — Insonning eng katta dushmani — nafs. Nafs deganda faqat jismoniy ochko'zlik tushunilmaydi, ruhiy talvasalar, mansabga intilish, boylik haqida o'ylash, aysh-ishratga berilish, ishlamay topishga urinish singari o'nlarcha, balki, yuzlarcha yovlar tushuniladi. Ana shular Jonni kir qiladi. Jonni yuvish nafs bilan olishish deganidir. Ya'ni inson o'zini o'zi komil qilish uchun kurashuvi kerak. Jonni yuvadig'on narsa ana shu!

**Ahmad Yassaviy:** — Barakalla, ey farzand! Emdi mulla Mansur, senga bir mas'ala:

*Ushbu ko'zma — tash ko'z ul,  
Ko'ngildagi ich ko'z ul.  
Asror ichra boqar ul  
Aslin bilsa bu kun-o...*

Bunda gap ne xususda boradur, bo'tam?

**Mansur:** — Tash ko'z, ya'ni tashqaridagi ko'z, jismoniy ko'zdur. Har kimda ko'rinish turadi. Ich ko'z — ko'ngil ko'zi... Bu, odamlardan yashirilgan, ammo faoliyat ko'rsatib turgan ko'z. Ichki ko'z ko'ngilni nazorat qiladi, ya'ni ichki sirlardan ogoh ko'zdir ul. Ich ko'z Izimning nazari kabi hammasidan boxabarki, undan hech narsani yashirib bo'lmaydi. Biz ana shu ko'z bilan o'zimizni idora qilishimiz kerak.

**Ahmad Yassaviy:** — Yaxshi deyursan, o'g'lim, xo'b yi. Faqat bu bilim bilimligicha qolmay, amalda ham shunday bo'lsang, Tangrim o'zi seni to abad qo'llag'ay. Emdi, Sayyid bek, sen ham bir oz mas'ala sharhlha. Senga mana bu bayt:

*Suvrat — munda,  
Siyrat — anda, qudratinda.  
Uzun tunda, yorug' kunda  
Ko'nglim anda.*

**Said:** — Ato! Bu yerda gap vahdati vujud borasinda, ya'ni Haq nuri bilan bir tan, bir jon bo'lib ketishimiz xususidadur. Suvrat — bu bizning vujudimiz, siyrat — ichki olamimiz. Bizning ichki dunyomiz har doim Haq nuriga talpinihsi, tunu kun ko'nglimiz unda bo'lishi bizning o'zimizni oliv maqom-larga yuksaltiradi.

**Ahmad Yassaviy:** — Amon bo'linglar, ey farzandlar. Men sizlardan rozman. Emdi sizlarga aytadurg'on ano gapim shulki, biz sizlar bilan necha-necha yillar davomida turkiy tariqatimizning asoslarini va butun tafsilotlarini o'rgandik. Ilgari ham aytg'on erdim — tariqatimizning asosiy sharti uni barcha ellarg'a yoyishdan iboratdur. Sizlar emdi asosiy shartimiz ostonasig'a yetib keldingizlar. Emdi sira sizning sirangizdur. Butun bilg'on, anglag'onlarimizni yurtma-yurt, ulus-ma-ulus yurib, insonlarning yuraklariga jo etmog'imiz kerak. Eshityapsizmi?

**Xalifalar:** — (baravariga): Qulog'miz sizda, Ato!

**Ahmad Yassaviy:** — Taqdir taqazosi bilan bizning qavmimiz — 92 nomli turk urug'lari — anordan sitilgan donallay sochilib ketgan. Tangrining inoyati bilan ko'nglimda ularning hammasini tariqatimiz sanjog'i ostida yashashga unlash g'oyasi jo'sh uradi. Ha, biz bir-birimizdan uzoqda yashashimiz mumkin, ammo g'oyamiz, intilishimiz bir bo'lmog'i farz... Bizni qon birlashtiradi, til birlashtiradi.

*Yurtim turki, elim turkidur,  
Tilim ko'p tillardan ko'rklidur.*

Ammo bizning ruhimizda ham muqaddas va metin birlik bo'lmasa, manglayimiz sho'r bo'lishi muqarrardur.

**Sayyid:** — Men sizni angladim, Ato. Sizning yillarcha bergen ta'llimu o'gitlaringiz bizning imonimizni komil ayladi. Bu so'zlarining yuraklarimizni o'rtab, g'ayratu shijoat otiga xapqirib minishga chorlamoqda. Ko'nglingiz xotirjam bo'lsin: tariqatimizni, ma'naviy boyligimizni butun turkiy va islomiy olamga yoyamiz. Ertagayoq safar jabdug'i yelkamizda bo'ladi.

**Ahmad Yassaviy:** — Balli, bo'tam. Biringiz Sharqiy Turkiston, biringiz Xuroson, Mavorounnahrning ovloq-ovloqlariga, yana biringiz Bulg'or yeri, Qofqoz tog'lari, Ozarbayjon yurtlariga otlaning. Bu sarhadlarda va undan-da olis-olislarda, Onato'li va Rum tomonlarda bizning qon-qarindoshlarimiz yashaydilar: birlari qo'l, birlari ko'z, birlari qosh... bir vujudning turli bo'laklari... Sizlarga oy kimi ayonki, vujudning bir joyida illat bo'lsa, og'rig'i boshqa joyida ham bilinadi.

**Mansur:** — Tamom, Ato! Jigarlarimiz bilan ishlaymiz. Gunohlarimizdan tavba ila poklanib, haromdan taqvo qilib, nodonlikka aql bilan qarshi chiqib, jahlni sabr bilan yengib, Egamning huzuriga ma'rifat bilan yo'l topib borish tariqatimizning bosh yo'li ekanligini barcha qardoshlarimizga anglatamiz.

**Ahmad Yassaviy:** — Amon bo'ling, ey farzand!

**Hakim:** — Ato! Biz sizning ishongan xalifalaringizmiz. Hikmatlaringiz jon-jonimizda, yod bo'lib ketgan. Inshoollch, tilimizdan tillarga, qonimizdan naslu nasabimizga o'tajak.

**Ahmad Yassaviy:** — Sizlardan Egam rozi bo'lsin. Bu qutlug' safarda hikmat hamisha yo'ldoshingiz bo'lsin!

**Hammalari:** — Omin! Omin!

*Fotiha o'qib tarqaladilar.*

*Parda.*

### 3 - K O' R I N I S H

Gurganj. Olis-olislardan allaqaysi hovlidan Xorazm maqomi eshitilib turadi. Huvillagan bir kulba, ammo pokiza va tartibli. Tokchada kitoblar. Devorda tambur osig'liq. Sa y y i d kiradi. Kitoblarni tahlab, xurjunga joyleydi. So'ng devordan tamburni olib, Ahmad Yassaviyning hikmatini ayta boshlaydi. Ovozida bir hazinlik bor:

*Eranlar jamol ko'rар darveshlar suhbatinda,  
Yoronlar majlisinda nur yog'ar suhbatinda.  
Ne tilasa ul bo'lur dasrveshlar suhbatinda,  
Har sirlar zohir bo'lur darveshlar suhbatinda.  
Har kim suhbatka keldi, erandin ulush oldi,  
Bot keldi, bilish bo'ldi darveshlar suhbatinda.  
Har kim suhbatg'a keldi, ko'ngliga ma'no to'ldi,  
Ashoblar murod topdi darveshlar suhbatinda.  
Ja'm kelsa xos bo'lur, yulduz kelsa oy bo'lur,  
Mis kelsa oltin bo'lur darveshlar suhbatinda.  
Kibru hasadlar o'lar, ichida ma'no to'lar,  
Ko'z ochib Haqni ko'rар darveshlar suhbatinda.  
Rasulga vahiy keldi, boshindan tojin oldi,  
Turdi, xodimlik qildi darveshlar suhbatinda.  
Qul Xoja Ahmad suhbatda dam urar munojotda  
Zihи xush saodatda darveshlar suhbatinda.*

*Eshik ochiladi, Saman dar ota kiradi.  
Sayyid tamburni yoniga qo'yadi.*

**Sayyid:** — Ota, galing. Sizni kutib o'tirgan edim.

**Samandar ota:** — Yo'l tadorigimi? Shu aytgan gaping gapmi endi?

**Sayyid:** — Ota, siz Turkistonga — Hazrati Ahmad Yassaviy huzuriga o'zingiz yubordingiz. Mana, sizning oq fotihangiz, hazratning marhamati, Egamning inoyati bilan ilm oldim. Shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bilan yorishdim. Endi bizning vazifamiz bu nurni qardoshlarimizga uzatish, ularni ham jaholat zulmatidan qutqarish...

**Samandar ota:** — Bolam, niyateng oq ekaninga gumon etmasman. Lekin jaholatga botgan qardoshlar Xorazmda, butun Turkiston zaminida ham oz emas. Bu dunyoning o'tkinchi farog'atlaridan quvonib, to'yib ovqat yeganini, xushro'y kiyanganini baxt deb ma'sirab yurishibdi. Sen oldin shularni nodonlik botqog'idan tortishga ko'maklashsang bo'lardi.

**Sayyid:** — Bu yerda ma'rifat bilan yorishgan kishilar ko'p, ota. Ammo hali bir tola nur ham yetmagan joylar bor. Men tariqatimizni olis o'lkalarga yetgazishim kerak.

**Samandar ota:** — Tanish bo'lmagan odamlar, uzundan uzoq, umr bo'yи davom etadigan safar, bolam... Odamni bir oz qisinishma bosar ekan...

**Sayyid:** — Qisinmang, mening yo'llim ham, manzilim ham — belli, belguli. Yo'llim — qondoshlarim qalbigacha... Manzilim — shu qalb.

**Samandar ota:** — Ne der edim? Seni Eganga topshirdim: Ishing o'ngdan kelsin... Qachon yo'lga tushmoqchisan?

**Sayyid:** — Nasib etsa, azonlab...

*Quchoqlashdilar. G'amgin musiqa.*

*Parda*

## IKKINCHI PARDA

### 4 - K O' R I N I S H

1991 yilning sentabr oyi. Izmirda sharqiyot litseyi. Sinf. Devorlarda dunyoning, Izmir shahri va mamlakatning siyosiy xaritalari. Taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi turli diagrammalar, jadvallar. Izmirning tabiatini va tarixiy obidalarini tasvirlovchi rasm va fotosuratlar. O'quvchilar ning kursilarida kompyuterlar. O'qituvchining stoli yonida televizor va magnitofonlar.

Letsey o'qituvchisi Mustafo Qora o'n ikki bologa dars berayotir.

**Mustafo Qora:** — Biz o'tgan darsda Yassaviyya tariqati ga kelib to'xtagan edik. To'g'rimi?

**Bolalar:** — To'g'ri.

**Mustafo Qora:** — Sizlar Yassaviyya tariqati olis Turkistondan bizgacha qanday yetib kelgani to'g'risida ma'lumot topishingiz kerak edi. Qani, kim nima topdi?

**Birinchi o'quvchi:** — Men «Islom ensiklopedisi»dan Fuod Ko'pruluning maqolasini topdim va bir parcha yozib oldim. Xo'p desangiz, o'qib beraman.

**Mustafo Qora:** — O'qil!

**Birinchi o'quvchi (o'qiydi):** — «Bir Turkiston sufisiy tononidan xolis bir islom muhitida yaratilgan Yassaviyya tariqati dastlab Sayhun yerlarida, Toshkent atroflarida va Sharqiy Turkistonda keng tarqalgan, so'ngra Mavorounnahr va Xorazm tononlarda yanada kamol topgan. Keyin Xuroson, Eron, Ozarbayjon mintaqalaridagi turkiylar orasida ham yoyilib, oxiri Onato'liga ham kirib kelgan. Yassaviy darvishlarining kichik guruuhlar holidagi muhojirotlari XIV asrda ham davom etayotgan edi...»

«Islom ensiklopedisi». I jild . 213-bet.

**Mustafo Qora:** — Yaxshi, yaxshi manba' topibsан. Tashakkur. O'tir. Endi yana savol-javob qilamiz. Xo'sh, Yassaviyya tariqatiga ko'ra, murshid, ya'ni shayx, ya'ni tariqat boshlig'i qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak? Murid, ya'ni xalifa, ya'ni shogird qanday bo'lmosh'i lozim? Qani, kim javob beradi?

**Ikkinchi o'quvchi:** — Men javob beraman.

**Mustafo Qora:** — Qani, eshitaylik.

**Ikkinchı o'quvchi:** — Murshid haqiqatga to'liq rioya qiladigan, sof ko'ngilli, ichki yorug'likka ega, o'ziga qanoatli, nafis fikrlovchi bir shaxs bo'lishi lozim.

Murid esa ustoziga sadoqatli, biron kimsani undan ustun qo'ymaydigan, o'zi esa zakki va idroki baland, shayxining xizmatini otilib ado etadigan, ishonch qozongan, murshid va tariqatning ichki sirlarini saqlay oladigan, jasur inson bo'lomog'i zarur. Chindan ham Yassaviyya tariqatining muridlari hatto shayxi uchun jon berishga ham tayyor insonlar edi. Ba'zi rivoyatlarda aytishicha, Xoja Ahmad Yassaviy o'z tariqatlarini yoya boshlaganda, mutaassiblar ul zotning sharafini o'dirmoqchi bo'lganlar. Bundan xabar topgan muridlari Sulaymon Hakim, o'z murshidlari Ahmad Yassaviyni boshqa joyga ko'chirib qo'yib, ul zotning hujralariga kirib yotganlar. Qotillar shayxning yo'qligini ko'rib, qaytib ketishgan.

**Mustafo Qora:** — Yaxshi, ko'p rivoyatlar o'qiganing va Yassaviya bo'lgan muhabbatning ko'rinish turibdi. Rahmat. O'tir. Navbatdagi savol: Yassaviyya zikri qanday bo'ladi?

**Uchinchi o'quvchi:** — Men aytaman.

**Mustafo Qora:** — Ayt.

**Uchinchi o'quvchi:** — Yassaviyya tariqatining zikri «jahriy zikr» dir. Turkchasiga bu «arra zikri» deganidir. Zikr qilayotgan odam arraga o'xshab ovoz chiqargani uchun shunday deyilgan (O'rtaga chiqib, ham gapirib, ham harakati bilan ifodalab ko'rsatadi): Ikki qo'lini ikki soniga qo'ygancha, nafasini arraga o'xshatib xirillatib, ichiga yuta boshlaydi. Taxminan, nafas kindigiga yetganda «Ha!» deb ovoz chiqaradi. So'ngra nafasni teskari tomonga, ya'ni kindigidan bo'g'ziga qarata xirillatib chiqararkan, butun vujud tekis tutilgan holda «Hoy!» deyiladi. Bu «ha» va «hoy» Xudoy ma'nosini bildiradi. Zikr tushayotgan odam shu harakat va ovozlari bilan Xudoga tavajjuhini ifodalayotgan bo'ladi.

*Shu payt sinf eshigi ochilib, hayajonlangan bir  
muallim darak keltiradi.*

**Darakchi:** Ey, qardoshlarim, qanday o'tiribsizlar, ko'cha ga otolib chiqmaysizlarimi?

**Mustafo Qora:** — Nima gap o'zi, tinchlikmi?

**Darakchi:** — Tinchlik ham gap ekanmi! Buyuk xush-xabar!

**Mustafo Qora:** — Izmirlik futbolchilar Amerikani yutdimi?

**Darakchi:** — E, futbol qayoqdayu, ozodlik qayda!

**Mustafo Qora:** — Ozodlik? Qanaqa ozodlik? Kim ozod bo'libdi?

**Darakchi:** — Ertalabdan buyon Turkiya radiosи bir e'loni takrorlamoqda: 31 avgucta Oliy Kengash yig'ilishida O'zbekiston Jumhurboshqoni Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e'lon qilibdi! 1 sentabr Mustaqillik Kuni etib belgilanidbi! 130 yillik qullikdan keyin O'zbekiston OZODLIK YO'LIGA chiqdi!

**Mustafo Qora:** — Yo'g'e! O'z qulog'ing bilan eshitding-mi? Televizorda ham aytildimi?

**Darakchi:** — Aytildi! Eshitdim! Ko'rdim! Ozod O'zbekiston! Tushunasammi? Butun ko'chalar odamlarga to'lib ketdi. Hamma bir-birini tabriklamoqda!

**Birinchi o'quvchi:** — O'zbekiston? Bu qaysi davlat o'zi?

**Ikkinchи o'quvchi:** — E, shuniyam bilmaysanmi? Turkiston-ku bu! Turkiston besh parchaga bo'lib tashlangandi! O'rta Osiyo deyishardi! Eng ilg'or, eng yuksalgan qismi O'zbekiston! Endi boshqa qismlari, boshqa jumhuriyatlar ham mustaqil bo'lajak!

**Mustafo Qora:** — Balli, bilar ekansizlar. Mammunman. Mammunligimning cheki yo'q! Endi xushxabarni yashin tezligida hamma yerga, hamma yoqqa, hamma odamlarga tarqatish kerak. Eshitmagan bir odam qolmasin.

**Darakchi:** — Ha, endi o'tirib bo'lmaydi. Men Jumhurboshqonimiz Turg'ut O'zolga telegramma yuboraman. O'zbekiston mustaqilligini shu bugunoq tanisin (Shoshib chiqib ketadi).

**Mustafo Qora:** — Bu ozodlikni jahonga tarqalib ketgan turkistonlik muhojirlar intizor bo'lib kutishgan. Bobom rahmatlik otamga bekorga Turon deb ot qo'ymanlar.

**Uchinchi o'quvchi:** — Domla! Biz butun litsey bir bo'lib, Butun Jahon Musulmon Davlatlari Ligasiga xat yozaylik. O'zbekiston axir buyuk tariqatlar, muhaddislar, tafsirchilar yurti. Islom taraqqiotiga ularchalik katta hissa qo'shgan bironta mamlakat yo'q. Marhamat qilib barcha islom davlatlari O'zbekistoni tanisindalar.

**Mustafo Qora:** — To'g'ri, o'g'lon! Otangga balli! Shunday qilamiz!

**Ikkinchи o'quvchi:** — O'zbekiston — mustaqil. Demak, endi yo'llar ochiladi, qardoshlar bir-birlarining diydoriga to'yadilar. Erta bo'lmasa indin Istanbul—Toshkent, Toshkeint—Anqara, Toshkent — N'yu-York, Parij — Toshkent, Berlin — Samarqand, London — Buxoro,

Xorazm — Pekin, Tokio — Toshkent havo yo'llari tutashib ketadi... Qadim Turkiston jahon bilan quchoqlashadi! Ajab emas Buyuk Ipak yo'lida po'lat izlar qurilsa... Davlatlarimiz o'rtasida madaniyat, savdo-sotiq, ta'lim-tarbiya sohalarida bitimlar tuzilsa...

**Uchinchi o'quvchi:** — Menimcha, ular hozir qiyin ahvolda bo'lishlari mumkin. Ummuxalq xayriya yig'imi e'lon qilsakmikin? Jigarini qo'llamagan jigar jigarmi! Balki, ularda litseylar ochish kerakdir, qo'shma korxonalar qurish kerakdur. Butun Turkiyani tebratib turgan qo'li uzun boy-boyonlarimiz, u yerlarda zavod-fabrikalar qurish uchun sarmoya ajratishar. Kim biladi yana nimalar qilsak bo'larkin? Har qalay jigarligimizni ko'rsatishimiz kerak.

**Birinshi o'quvchi:** — Domla! Mana, bizlar Yassaviyni o'tayotgan edik. Ular ma'rifatni o'z yurtlarida saqlab yurunganlar. Biz taraflarga ne-ne mukarram olimlarini muhojir qilib yuborganlari tarixdan ma'lum. Endi navbat bizniki emasmi? Biz ham ularga nimalardir eltishiimiz kerakdir, axir... Aytaylik, kitob... Qog'oz, yangi nashr ashyo-uskunalar...

**Mustaf'o Qora:** — Hamma gapingizda jon bor! Yurakbag'rimni o'rtaydi gaplaringiz. To'g'ri, endi navbat bizniki... Biz ham ma'rifat va texnikamiz bilan ko'mak berishimiz zarur: Litseylar ochish, gazet-kitoblar chiqarish ishlarida — xullas, qanday yordam kerak bo'lsa, o'shandoq yordamlarni uyushtirishimiz kerak. Axir qullik — qorong'ilik. Qullik davrida qardoshlarimiz o'z ota-bobolarining yorug' ziyyolardan mahrum bo'lib kelganlari ma'lum! Bunday kunlarda ular bilan yonma-yon bo'lishimiz shart (Qat'iy). Bolalar, men Turkistonga ketaman. Mening ota-bobolarim bu yerlarga qizil istilochilar iskanjasidan qochib, boshpana izlab kelgandilar. Men endi vatanimning istiqlolli yo'lida vatandoshlarim bilan birga ishlamasam, o'zimni kechira olmayman. Men yurdoshlarim yonida bo'lmog'im kerak: ular bilan bir safda ishlayman, ular bilan yelkama-yelka turib kurashaman. Mustaqillik uchun ming jonim bo'lsa ming jonim qurban bo'lsin. Men bular bilan bir tuproqqa yotmog'im kerak.

*O'quvchilar va Mustaf'o Qora hayajonlangancha tarqaladilar.*

*Parda*

*Izmirda o'qituvchilarga xos uylardan biri. Safar  
kiyimidagi M u s t a f o Q o r a jomadonga kitoblar  
joylamoqda. Xonaga uning otasi  
Turon Qora kirib keladi.*

**Mustafо Qora:** — Ota, mening sizlardan ko'nglim to'q. Yana Olloh sizlarni o'z panohida asrasin. Keyinroq kelib, kelingizni, bolalarni olib ketarmen.

**Turon Qora:** — Faqat zamon o'zgarib ketgan... Ular seni qanday qabul qilisharkin?

**Mustafо Qora:** — Qon taniydi, qabul qiladilar, qon qabul qiladi. Biz bir qonning xujayralarimiz. Axir «Qon tortadi» degan ibora bizning iboramiz emasmi? Ko'nglimda — Haq, hech bir tahlika yo'q.

**Turon Qora:** — Ha, endi ko'nglimga kelganini aytdim-qoydim-da. Har qalay otaman... Ishqilib, turkistonliklar o'zliklarini yo'qotmagan bo'lsalar bas. Bu yog'ini so'rasang, o'zimning ko'nglim ham ul taraf larga uchib turibdi. Bekorga Turon emasman men.

**Mustafо Qora:** — Albatta... Ota, men bir qancha turkistonlik muhajirlarning va u yerga borgan sayyoohlarning kitoblari, xotiralarini o'qidim. Yurtdoshlarimiz o'z tilimiz, dini-miz, ma'rifatimizdan bir qadar uzoqlashganlar, xolos. Ammo ularni tiklash uchun kurashayotgan yoshlarning ovozları butun jahonga eshitilib turibdi! Ular o'zbek tilini davlat tili qilishga erishdilar! Biz o'lmaymiz, ota, millatimizning ildizi baquvvat!

**Turon Qora:** — Ilohim, o'zi qo'llasin xalqimizni, bolam. Senga ham vatan tuprog'ini ko'zga surtishda Tangri madadkor bo'lsin! Biz, hammamiz senga oq yo'l tilaymiz. Imkon bo'lsa, yo'lga ham shaymiz.

*Quchoqlashadilar.  
Musiga. «Dunyoga keldik bir karra» qo'shig'i  
yangray boshlaydi.*

*Parda*

## TEMURIYLAR HAQIDA BAHS

(*Sahna uchun dars*)

### QATNASHUVCHILAR:

O'qituvchi — 30 yoshlarda

Hakim —

Said — Litsey o'quvchilari, 15 yoshlarda

Mansur —

*1993 yil o'quv mavsumi. Toshkentdagি Amir Temur xiyoboni. Yo'llovchilar va istirohat qiluvchilar har ikki tarafga o'tib turishibdi. Ba'zi birlari Sohibqiron Temur haykaliga qarab, mahliyo bo'lgancha o'tib ketadi. Sahnaning bir tarafidan o'qituvchi boshchiligidagi Hakim, Said, Mansur va bir to'p o'quvchilar kiradi. Kursilardan biriga o'tirishadi.*

**O'qituvchi:** — Bugun, bolalar avval kelishganimizdek, o'tganlarni takrorlab, temuriylar haqida bahslashamiz.

**Mansur:** — Shu yerdami, shu maydonning o'zidami?

**O'qituvchi:** — Ha, shu yerda ochiq havolarda, tabiat qo'ynida fikrashsak yaxshi emasmi?

**O'quvchilar:** — «Yaxshi, domla!» «Bundan zo'ri bormil!» «Ochiq havoda mazza qilamiz!»

**Mansur:** — Fizika va kimyoni laboratoriya da o'tish kerak. Ammo zoologiyani hayvonot bog'ida, botanikani dalalarda va bog'larda, geometriyani ko'chalarda va turli maydonlarda, astronomiyani osmonga oy chiqib, yulduzlar g'ujg'on o'yagan paytlarda, tarixni muzeylarda, tarixiy obidalar etagida o'tsak bo'lmasmikin, deb o'ylardim. Lekin bu — xomxayol, deb indamasdim.

**O'qituvchi:** — Indigin, hamma vaqt indigin. Fikringni ochiq aytishga odatlan. Hur odam oshkorali kini sevadi. Ochiqlik va jut'at har qanday odamda ham yaxshi taassurot qoldiradi. Odam bir-birini yaxshiroq o'rganadi va yaxshiroq ko'radi. Mana, ikkimiz bir fikrda ekanmiz.

Ulug'bek — Sohibqiron Temurning nevarasi bo'lgani uchun, avval bu haykalni ziyorat qilgani keldik. Keyin Akademiklar shaharchasiga, Mirzo Ulug'bek haykali poyiga boramiz.

**Hakim:** — Domla, biz haykalparastlikka berilib ketmadikmi? Undan ko'ra ulug'larimizning adabiy va tarixiy meroslarini hashr etib, kitoblarini o'qisak bo'lmasmikin?

**O'qituvchi:** — Mansur, sen bu haqda nima deb o'ylaysan?

**Mansur:** — To'g'ri, dinimizda haykal qurish, rasm solish, ruhlarga sig'inish ma'qul ko'rilmaydi. Bu — Ollohga shirk keltirish deb hisoblanadi. Faqat, domla, menimcha, bir narsaga e'tibor berish kerak.

**O'qituvchi:** — Nimaga e'tibor berish kerak, Mansur?

**Mansur:** — Islom dini shakllangan, yoyilgan va «Saodat asri» deb ta'riflanuvchi ul o'tmish zamonalarda haykalparastlik chindan ham salbiy hodisa edi. Makka shahrining aholisi va umuman Arab Yarimorolining barcha fuqarolari hamma yoqni qabr toshlar va haykallarga to'ldirib yuborgan va shu haykallar etagiga kelib, haftalarcha aza tutishar, qo'yilar so'yib qurbanlikka qoldirishar edi. Haq Taologa emas, ommaviy tarzda ruhlarga, shaxslarga sig'inish, o'lganlardan madad so'rash avj olgan edi. Bunday hodisa jamiyat takomiliga xalal berar, taraqqiyot oyoqlariga tushov bo'lib qolgan edi. Biz esa, ulug'larimiz haykalini ziyorat qilarkanmiz, hech qachon haykallarga sig'inmaymiz, bu — xayolimizning bir chetiga ham kelmaydi. Bizning milliy, islomiy olamimizga shunday zotlarni bizga ibrat qilib yaratgani, ato etgani uchun Ollohga shukrona aytamiz. Amir Temur ham, Mirzo Ulug'bek ham oddiy bandalar ekaniligini, insonga xos fazilat va qusurlar ularga ham xos bo'lganligini unutmaymiz. Biz faqat shonli o'tmishimizni eslab, o'z-o'zimizni tanib olish uchun ziyoratga kelamiz. Yuraklarimizda so'nib ketgan milliy g'ururimizni tiklamoqqa, yuz yillar davomida bukilib ketgan qaddimizni rostlamoqqa bunday haykallar kerak, deb o'yayman.

**Said:** — Faqat shugina emas. Biz bu haykallardan san'at asari sifatida zavq olamiz. Kino ko'rganda, roman o'qiganda, she'rlarning ruhiga kirganda qanday mazza qilsak, haykallarni tomosha qilganda ham shunday rohatlanamiz. Misol uchun, Buxoriyning «Al-jomi' as-sahih»ini o'qiganimizda faqat undagi hikmatli fikrlardan emas, ayni chog'da unda tasvir etilgan buyuk insonlarning qiyofalaridan ham zavq olamiz-ku! Bu qiyofalar esa, faqat, bo'yoqda emas, so'zda yaratilgan. Suvrat so'zda yaratildi nimayu, bo'yoqda yaratildi nima, hech qanday

farqi yo'q. «Al-jomi' as-sahih» esa, islam olamida Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi mo'tabar bir kutobdir. Xullas, men bizning dinimiz asos e'tibori ila san'atning hech qaysi turiga qarshi bo'lmasa kerak deb o'ylayman.

**Hakim:** — Bo'lishi mumkin. Gapingda jon bor.

**O'qituvchi:** — Mana shu «Sohibqiron Temur» haykali ning muallifi Ilhom Jabbor o'z asari ostiga «Kuch adolatdadir» jumlasini loyiq ko'ribdi. Shu munosabat bilan men sizlarga ikki savol bergim keladi: Nima uchun Temur bobomizni Sohibqiron deb aytishgan va «Kuch adolatdadir» jumlesi qayerdan olingan?

**Mansur:** — Bobomiz Amir Temurning otalari Barlos urug'i oqsoqoli Amir Turag'oy bo'lgan, onalari esa Takina xotun. Lekin zamondoshlari bobomizni Sohibqiron deyishgan, chunki u kishi hayotining asosiy qismini jangu jadallarda o'tkazgan va ko'p yurtlarga qiron keltirgan, shunga ko'ra «Qiron egasi» ma'nosida «sohibqiron» deyilgan bo'lsa kerak.

**Hakim:** — Yo'q, noto'g'ri aytding, Mansur. Eski munajjimlik kitoblarida Zuhro bilan Mushtariy yulduzlarining bir burjida bir-biriga eng yaqin kelgan payti «Qiron chog'i» deyilgan. Bu chog' baxt keltiruvchi daqqa deb hisoblangan. Amir Temur ana shunday qiron chog'ida tug'ilgani uchun «Yaxshi tole' egasi» degan ma'noda «sohibqiron» deb laqab qo'yilgan.

**Said:** — Ajabo, shunday go'zal va shoirona unvonnig ma'nosini bilmay, har xil hayollarga borib yurarkanmiz-a... Domla, ijozat bersangiz, «Kuch adolatdadir» jumlesi haqida men gapirsam...

**Q'qituvchi:** — Marhamat, gapir.

**Said:** — Bobomiz Amir Temur zamonida olimlar va mafakkirlar orasida bir katta bahs bo'lib o'tgan. Balki, bu bahs o'tgan davrlarda ham bo'lgandir. Har qalay, Amir Temur ko'p yurtlarni zabt etib, bir qancha xalqlar o'rtasida adolat o'rnatganidan keyin, haqiqat, adolat, ozodlik va hokimiyat mavzularida ko'p tortishuvlar bo'lgan. Birovlar «Adolat kuchdadir» desa boshqalar «Kuch adolatdadir» degan. Amir Temur esa, o'ziga bir uzuk tayyorlatgan va undan muhr sifatida foydalangan. Muhrda «Rosti rustiy» so'zлari va bir belgining zarbi bo'lgan. Bu forscha so'zlar bo'lib, «Kuch adolatdadir» degan ma'noni bildiradi. Lekin muhrdag'i arab harflari bilan bitilgan bu so'zlarni turli zamonlarda yashab o'tgan turli olimlar har xil sharhlaganlar. Ulug' rus olimi, akademik Bartold bu so'zlarni «rostiy rastiy», ya'ni «adolat va ozodlik» deb izohlagan. O'zbek olimi, akademik Ubrohim Mo'minov «rostiy durustiy», ya'ni «to'g'rilik yaxhi» deb tushuntirgan. Sharqshunos major

olimi Herman Vamberi «rostiy rustiy», ya'ni «haqiqat, qassoskorlik» deb tushungan. Ozariy olimi Abror Mir Bag'irzoda bu «tog'ri bo'lsang najot topasan» deganidir degan qarorga kelgan. Men ham Tojikistonda bosilib chiqqan «G'iyoşul lug'ot» va Moskvada chop etilgan «Persidsko-russkiy slovar»ni titkilah, «rostiy» va «rustiy» so'zlarining ma'nolarini chaqishga urinib ko'rdim. Qarasam, bu so'zlardan yana «sadoqat baxt keltiradi», «haqiqat yo'li to'g'rilikdur» degan ma'nolar ham chiqishi mumkin ekan. Demak, Amir Temur bu ikki so'zning ma'no qirralari ko'pligini yaxshi bilgan va kim qanday tushunsa tushunaversin deb o'yagan bo'lishi mumkin. Lekin men o'ylab-o'ylab «Kuch adolatdadır» degan ma'no eng to'g'risi, degan qarorga keldim.

**O'qituvchi:** — Nima uchun?

**Said:** — Chunki yaqinda «Amir Temur vasiyati»ni o'qidim. «Vasiyat»da: «Millatning dardilariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zayiflarni qo'ring, yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va yaxshilik qilmoq dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin» deyilgan joyi ham bor ekan... Demak, Amir Temur butun umr bo'yи dunyoda adolat o'rnatish uchun yashagan. Bunday odamning shiori «Kuch adolatdadır» bo'lishi tabiyidir.

**Hakim:** — Men Saidning bu fikriga to'la qo'shilaman. Lekin, domla, bir holat meni ko'p o'ylatadi: Temur haqida ham, Ulugbekning davri haqida ham rang-barang, oq-qora gaplar ko'p: biri maqtasa, ikkinchisi masxara qiladi — kim haqligini bilolmayman. Biz Temurga qanday baho berishimiz kerak?

**O'qituvchi:** — Avvalo sen qaysi kitobda nima deyilgani ni ochiqroq aytsang yaxshi bo'lardi. Hech bo'lmasa bittasi haqida...

**Hakim:** — Bo'pti. Mana, Gleb Golubevning «Ulug'bek» kitobidagi ba'zi bir gaplarni aytay. «Temur hech nimadan jirkamasdi. Gohida u haqiqiy mayda o'g'rillarday harakat qilardi. Misol uchun u Hirotdan shahar darvozasini olib ketdi va o'z shahri Keshga o'rnatdi.» «Ulug'bek saltanat qashshoqlashib, inqiroz sari borayotganini tushunardi. Lekin soliqlarni kamaytirishni hayoliga ham keltirmasdi, aksincha soliqlar kundan kunga ortib borar edi. Bu borada Ulug'bek o'z davrining farzandi edi», — deb yozadi Golubev. Men esa xayolan bu manzaralarni ko'z oldimga keltiraman: ha, Temur Hirotdan Keshga darvoza keltirgan bo'lishi mumkin; san'at asarlari, noyob matohlar har kimni ham qiziqtiradi. Rossiya istilochilar Turkistondan — Yassaviy maqbarasidan Amir Temur davridan

qolgan katta mis qozonni olib ketib Peterburg muzeylariga qo'yishgan-ku! Shunday gap-da bu ham! Ammo biz rus istilochilarini «haqiqiy mayda o'g'rilari» deb baholamaymiz. Ularning muhtaram yozuvchilari esa Temurday jahonga tanilgan bir insonni bermalol «o'g'ti» deyaveradi. Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa tarixchilarning asarlaridan Ulug'bek davrida dehqonlardan olinadigan soliqlar bir necha bora kamaytirilganini oqiganmiz. Ulug'bekni o'z ko'zi bilan ko'rgan, tarix voqealarini o'sha davrlardayoq qayd qilib qoldirgan Abdurazzoq Samarqandiya ishonaylikmi, yo 1926 yilda Rossiyaning Kalinin shahrida tug'ilg'an va Moskvada kinematografiya institutini tamomlagan yaxshigina rus yozuvchisi Gleb Golubevgami?

**O'qituvchi:** — Hakim, sening savolning o'zi javob bo'lib eshitilyapti menga... Faqat shuni unutmaki, har qanday tarixiy asarni ham to'la haqqoniy (ob'ektiv) deb bo'lmaydi. Kitobga, yozgan odamning ichki hissiyotlari aralashadi, ya'ni unda shaxsiy (sub'ektiv)lik hissasi albatta bo'ladi. Biz yozilgan asardan o'zimizga kerakli mag'izni ajratib ola bilishimiz darkor.

**Hakim:** — Men yana Mansurning «Temur ham, Ulug'bek ham oddiy bandalar» degan gapiniyam hazm qilolmayman. Men Temurni va Ulug'bekni «oddiy bandalar» demoqchi bo'lsam, sira tilim aylanmaydi. Chunki ular menga qandaydir juda katta iste'dod egalari, favqulodda insonlar bo'lib ko'rinishadi.

**Mansur:** — «Oddiy banda» degan ibora insonda buyuk iste'dod bo'lishini inkor etmaydi. «Oddiy banda» deganda hamma qatori tug'iladigan va o'ladijan, bu dunyodan yaxshi va yomon ishlar qilib o'tadigan va baribir bir kuni qora tuproqqa kiradigan insonni tushunamiz.

**Hakim:** — Temur dohiyona sarkarda...

**Mansur:** — To'g'ti... Men senga qo'shimcha qilishim ham mumkin: rus harbiy akademiyalarida Napoleon taktikasi 60 soat, Temur taktikasi 300 soat o'tilishini eshitganman.

**Hakim:** — Temur buyuk davlat arbobi...

**Mansur:** — To'g'ti, yangi Samarqand shahrining me'mori deyish ham mumkin. Chunki Samarqandning tiklanishi Temur davrida boshlangan. Temur yangi bir sultanat qurbanidan so'ng, Samarqandni boshkent qildi. Atrofini devor va chuqur handaqlar bilan o'rattydi. Qal'alar va qasrlar qurdirdi. Shahardan tashqarida ham saroylar barpo ettdirdi. Samarqand atroflarida obod qishlog'u qasabalar qad ko'tardi. Temur ularga jahonning taniqli shaharlari nomini berdirdi. Bag'dod, Damashq, Forish

(Parij), Sultoniya, Sheroz... Temurning farmoni bilan katta-katta bozorlar, usti gumbazlar bilan yopilgan rastalar, bozorga eltuvchi keng ko'chalar qurildi. O'sha paytlarda Samarqandni ziyyorat qilgan ispan elchisi Klavixo Samarqandning go'zalligi va muhtashamligi, odamlarining ko'tarinki kayfiyatidan tong qolgan edi. U, bozor naqadar tez sur'at bilan qurilgani to'g'risida o'z xotiralarida shunday deb yozadi: «Kunduzi ish-laganlar kechqurun uyga ketishar, shordan keyin kechasi ish-lagani boshqa ishchilar, hasharchilar kelishardi. Birovlar uy buzar, boshqalar yer tekislar, qolganlar qurilishni boshlab yuborar va ularning bari kunu tun shunday shovqinlashardiki, xuddi shaytonvachchalarga o'xshab ko'rinishardi. Yigirma kun o'tar-o'tmas shunday ko'p ish qilib tashladilarki, odam hayratga tushadi».

**Hakim:** — Ulug'bekning otasi Shoxruh ham g'ayrioddiy davlat arbobi va Islom ma'rifatchisi bo'lgan. Bir kuni u «Hadis»dan: «Har yuz yilning boshida albatta bir din qo'riqchisi chiqadi» degan rivoyatni o'qiydi va bu hadis o'zi haqda aytilganday bo'lib tuyuladi. Umri bo'yи butun Xurosonda necha-necha madrasa, jome', hammom, maqbara va boshqa inshootlar qurdiradi. Hirot shahrini hutunlay yangidan insho qildiradi. Jahonda tengi yo'q eng katta kutubxona qurib bitkazilishiga bosh-qosh bo'ladi. Sug'orish kanallarini ishga solib dehqonchilikning yuksalishini ta'minlaydi. Xitoy va Hindiston bilan aloqalarni yuksak pog'onaga olib chiqadi. Kullas, 40 yil davom etgan hukmronligi davrida Tinchlik Davlatining me'mori bo'ladi. Gleb Golubev esa uni faqat besh vaqt namoz o'qib, uyqu oldidan yuz marta «Qulhu Ollohu Ahad» aytib yotadigan, davlat ishlarini xotini Gavharshodbegimga tashlab qo'yan loqayd va mutaassib bir podshoh qilib tasvirlagan. Turk olimi Muommar Dizar «Shohruhning hukmronligi davrida madaniyat va avvalo san'at, fikr hayotida ko'zga tashlanuvchi muhim sakrashlar bo'ldi» deb miniatyura va hattotlik, me'morlik, musiqa, tarix, ilohiyot va islom huquqida katta o'sishlar bo'lganini qayd etadi. Ulug'bek davrida ham qurilish ishlari keng avj olgandi. Faqat saroylar, madrasalar, masjid va hammomlar, bog'lar, mehmonxonalar, karvonsaroylargina emas, jahonga tanilgan rasadxona ham qurilgandi. Ulug'bek bobosi va otasidan olgan butun bilimini xalq farovonligini yuksaltirishga, san'at va madaniyatni rivojlantirishga sarfladi. Samarqandni Islom madaniy olamining markaziga aylantirdi. «Temur tushida ko'rganlarini Ulug'bek o'tniga amalga oshirdi», deb yozadi turk olimi Muommar Dizar. Hozirgi zamon olimlarining

fikricha, rasadxona minora kabi doira shaklida bo'lgan; balandligi 30 metrdan oshiqroq, ya'ni bugungi 10 qavatli binoday bo'lgan.

**Said:** — Men Samargandga borganman, rasadxonaning balandligi unday emas-ku!

**Hakim:** — Samarqanddag'i rasadxona asl binoning bizgacha yetib kelgan va saqlanib qolgan qismi xolos. Qadimshunoslar topgani — rasadxonaning to'la holi emas. Undan tashqari, binoning yarmi yer ostiga qurilgan. Chunki quyosh, oy va yulduzlarni kuzatish quroli bo'lgan bahaybat sekstant — Sudsi Faxriyning uzunligi 80 gaz, qalinligi 4 gaz, yuqori qismida balandligi 40 gaz, past qismida 1 gaz bo'lishi lozim edi.

**Said:** — Bir gaz qancha bo'larkin?

**Hakim:** — Bir gaz 24 barmoq, 6 suli qalinligiga ega bo'lgan. Bir suli doni 7 tola ot dumiga teng deb hisoblangan. Bizning hozirgi hisobimizcha, 1 gaz 63 santimetrga barobar.

**Said:** — Toza alomat ekan-ku ilgarigi o'chovlar. (Kuladilar.)

**Hakim:** — Xullas, Sohibqiron Temur va Mirzo Ulug'bek Ilohning nazari tushgan, Xudo qo'llagan va urgan... bashariyatga ibrat bo'lsin uchun yaratilgan boshqacha bir, lavqulodda insonlardir. Ularning maqsadi o'zga yurtlarni bosib olib, boyliklarni talab ketish bo'lмаган. Ular yer yuzida o'zları bilgancha adolat o'rnatish, hayotni qaytadan go'zalroq qilib qurishni maqsad qilganlar.

**O'qituvchi:** — Juda ideallashtirib osmonga chiqarib qo'yadingmi ularni?

**Hakim:** — Yo'q, domla... Ularning katta kamchiligi taxt talashish edi... Agar Temur Oltin O'rdani qulatmaganida O'rta Osiyo hech qachon rus istibdodiga tushmagan bo'lardi. Temurning Sulton Boyazid bilan jangini ham oqlab bo'lmaydi. Shuningdek, Ulug'bek bilan Abdullatif o'rtasidagi ota-bola jangi ham tarix sahnasida uyat hodisalardir. Agar shunga o'xshash hodisalar bo'lmasaydi, tarix boshqacha yo'ldan ketarmidi... Har qalay Temur ham, temuriylar ham boshqa bosqinchilar kabi o'ta razil yo'ldan borganlar deb bo'lmaydi. Mana, boshqa hodisalar bilan qiyos qilaylik.

1492-yili uchinchi avgustda Xristofor Kolumbning uchta yelkanli kemasi safarga chiqdi. Unga Ispaniya qiroli va qirolichasi homiylik qilgandi. Ular Kolumbga «Yangi yerlar izlat», «Oltin top!» deb tayinladilar. Oldindan admiral va kashf qilingan yerlarining vitse-qiroli unvonlarini berdilar. Kolumb esa kemasiga chiqib: «E Xudo, oltinga yetkaz» deb yolvorar-

di. U, Kubani, Gaiti, Yamayka, Meksika, Braziliyani, qo'yingki, butun Janubiy Amerikani bosib oldi va oltinga yetishdi, ammo qit'adagi butun tub aholini qirib bitirdi. Qandaydir birikki foizi qoldi xolos. Temur esa, borgan yerlarida Islom tartibini o'rnatish va tub aholining ichidan o'z vakilini hokimiyat tepasiga qo'yib qaytib ketar edi.

**O'qituvchi:** — Hakim, agar biz madaniy xalq bo'lmoqchi bo'lsak, o'zimizga o'zgalar nazari bilan qarashni ham o'rganishimiz kerak. Ni'ma, Temur va temuriylarda o'zgalar yurtini o'z farzandlariga in'om qilib yuborish bo'lmasaganmi?

**Hakim:** — Bo'lgan... Mo'g'uliston va Xitoyning bir qismi Ulug'bek nomiga bitilgandi... Lekin u yerlarda Ulug'bekning xotinining haqlari bor edi.

**O'qituvchi:** — Bobur va uning o'g'llari ham temuriy, shundaymi?

**Hakim:** — Shunday.

**O'qituvchi:** — Boburning buyuk iste'dodini inkor yetmagan holda, ayt-chi, Boburning Hindistonda qanday haqlari bor edi?

**Hakim:** — Haqlari yo'q edi... Ammo Bobur, birinchidan, hindlarni qirib tashlamadi, ikkinchidan, Hindistonning boyliklarini o'z yurtiga tashih ketgani yo'q. Tarqoq hind brahmanlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi.

**O'qituvchi:** — Odamlarning bosh suyaklaridan tepe qilganlari-chi?

**Hakim:** — «Lashkar degan axir bexatar bo'lmas» deganlaridek, har qanday urishda ham qurbanlar bo'lishi tarixiy haqiqat, axir.

**O'qituvchi:** — Sening hadiqating hamma uchun ham haqiqat bo'lavermaydi.

**Hakim:** — Hamma xalqlar uchun bab-baravar oliy haqiqat yo'qmi olamda?

**O'qituvchi:** — Bor... Har bir xalq o'zi xohlaganiday yashash huquqiga ega. Hech bir xalq boshqa xalqqa o'z tartibini tiqishtirmasligi kerak. Sizning tartibingizni, boshqa xalq xohlasa, o'zi sizga qo'shilishni istasa — boshqa gap. Bahsda ham shunday mayli, sen fikrimga qo'shil yo rad et. Turli ijodkorlarni sev yo sevma, dunyoqarashlarini qabul qil yo qabul qilma. Faqat madaniyatli kishi o'z fikrini birovga zo'rlik bilan o'tkazmaydi. Mana, o'sha Golubevda yoqimli gap uchramadimi?

**Hakim:** — Men unday demadim, shekilli. Men faqat Temur va Ulug'bek haqidagi tarixan nohaq va noto'g'ri fikrlaridan noroziligimni bildirdim xolos. Xalq SSSR degan davlat

jahonni zir titratib turgan 1960-yilda «Ajoyib kishilar hayoti» ruknida — «Ulug'bek» degan kitohni yozgan Gleb Golubevga tashakkur aytishimiz kerak. Chunki kitobning deyarli uchdan ikki qismi Ulug'bekka juda katta ehtirot bilan yozilgan. Men boyaga aytgan gaplar esa o'sha davr masfurassing talabi bilan ijro etilgan bo'lishi mumkin. U davrlarda Temurni qoralamay turib, Temur va temuriylar haqida kitob chiqarish mumkin emas edi. Hatto 1968-yilda ham akademik Ibrohim Mo'minov «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli» degan risolasi uchun tazyiqqa uchragan, oliv lavozimidan bo'shatib yuborilgan va kasalxonaga yotqizilgan edi. «Buyuk olim o'sha kasalxonadan sog' qaytib chiqmagan», deyishgan bizga.

**O'qituvchi:** — Temur haqda yana qanday fikring bor?

**Hakim:** — Temur 69 yoshida vafot etdi. 35 yil hukmronlik qildi. U 36 o'g'il va 18 qizning otasi edi. Bolalarning aksariyati yoshlikda o'lib ketdi yo qatl etildi. Ota, qolgan o'q'il-lariga butun sultanatni bo'lib bergen, o'z o'rnini bir o'g'liga vasiyat qilib qoldirgan edi. Farzandlar ixlossiz chiqdilar. Ota vasiyatini bajarmadilar. Hiyonat qildilar. Kattani hurmat, kichikni izzat qilmadilar. Guruhbozlik qilib, taxt talashdilar va sultanatning boshiga yetdilar.

**O'qituvchi:** — Har qanday sultanatning o'ziga yarasha jozibasi bo'ladi. Yuksalish va tushish davri bo'ladi. Qulash vaqtini ham bo'ladi. Temur sultanatining ham, Ispaniya va Britaniya sultanati, Rus sultanatining ham jozibalari, yuksalish va qulash vaqtleri bo'lgan. Biz qay sultanat yaxshirog'u qay biri yovuzroq — buni qiyoslab tahlil qilib o'tirmaymiz. Biz temuriylar davrini bir oz tahlil qilib olish uchun bu hiyobonga kelgan edik. Chunki har qanday ulug' siyemoni to'la anglab etmoqchi bo'lgan odam u yashagan davrni yaxshi bilishi kerak. Busiz shaxsiyatning ichiga kirib bo'lmaydi. Men sizlarning savol javoblariningiz va bahslaringizdan mammun bo'ldim. Qolgan gaplarni maktabda davom ettiramiz.

*Parda*

## TEMUR VA UNING YAQINLARI HAQIDA HIKOYATLAR

### TEMUR VA MULLO ALIBEK

Mullo Alibekning og'zida tishi yo'q desa juda oshirib yuborilgan bo'ladi, har qalay unda-bunda turtib-do'rtayib turadigan besh-oltita so'ylog'i bor edi. Ovozi tovushlarni aniq-tiniq ifodalamas edi. Yosh Temurga arab alifbosidan endigina dars bera boshlagan dastlabki kunlarda «te» harfi bilan «to» harfini talaffuz qilganda, Temur ularning fargini hech ilg'ay olmadi.

— Taqsir! — dedi birdan. — Og'zingizdag'i nosingizni tuflang. Bo'lmasa fargini bilmayotibman!

Mullo Alibek ho-holab kuldii. Avvalambor, mushtdek bolanning jiddiylik bilan «taqsir» deb yuzlanishi, undan keyin, tishi yo'qligidan bexabar, «domlaning og'zida nosi bor» deb o'ylagani kulgisini qistatgan edi.

— Temurbek! — dedi. — Qanaqa nos? Nos chekadigan vaqtim o'tgan! Og'izda tish yo'q, o'g'lim! Mana, qara! — deb — og'zini katta ochib ko'rsatdi.

Temur angrayib qoldi. Rostdan ham muallimining kat-takon og'zi huvillagan, unda-bunda sarg'aygan va milki gochib, ildizi ochilib qolgan besh-oltita tish bor edi, xolos. Temurning kichkina yurakchasi uvishib ketdi. Odam qariganda shunday bo'lsam-a! Yo'q, men unday bo'lmayman! Men unday bo'lmayman! Mening tishlarim pishiq bo'ladi. Toshlarni chaynab bo'lsa-da tishlarimni mahkam qilaman, deb o'yladi. Ayni chog'da, domlasi garchi ho-holab kulgan bo'lsa ham, qariligi uchun hafa bo'lgandir, degan xayol bilan uni o'zicha chalg'it-moqchi bo'ldi.

— Taqsir! — dedi. — Otam, men tug'ilganda nechuk tush ko'rganini bilasizmi?

— Yo'q, yo'q... Qanday tush ko'rgan ekan?

— Men tug'ilishimdan ilgari otam bir tush ko'rmish. Tushida otamga bir farishta ko'riniib, qo'lidagi qilichni otamga uzatibdi. Otam qilichni olib, to'rt tamonga siltab turganlarida uyg'onib ketibdilar. So'ng bir shayxga borib, bu tushning ma'nosini so'rasalar, u shunday ta'bir beribdi: «Senga Tangri Taolo bir o'g'il ato qilgay. U podsho bo'lib, dunyoga haq dini tarqatgay. O'g'lingni yaxshilab tarbiyala, kichikligidan Qur'on o'qisin, xat yozishni o'rganib, qurol ishlatalishni bilsin!» — debdi. Shundan keyin men tug'ilibman. O'sha shayxning aytg'onini qilib, menga Temur deb ot qo'yibdilar. Otam aytadilarki, menga ot qo'yilayotgan paytda shayx Qur'onning «Al-Mulk» surasini o'qib turgan ekan.

— Zap g'aroyib voqeа ekan bu! Balki chindan ham podsho bo'larsan. Yaxshilab o'qi, bo'lmasa...

— Onam ho'lsa meni, chapaqaysan, deydi. Men chapaqay emasman, domla, to'g'rimi? Men ham chapaqay, ham o'naqayman — ikkala qo'lim bilan ham yoza olaman. Menga o'ng qo'l bilan so'l qo'lning farqi yo'q, — dedi Temur.

— Iya, shundaymi, men payqamagan ekanman... Qani, qani, yozib ko'rsat-chil!

Temur bir qog'ozni oldi. O'rgangan harflarini ham o'ng qo'l bilan, ham chap qo'l bilan yozib ko'rsatdi.

Mullo Alibek qog'ozni olib, qayta-qayta uzunasiga-ko'ndalangiga qarab-qarab chiqdi... Sevinchini ham, hayratini ham yashirolmadi.

— Ajabo, ikki qo'llab yozishing qiziq sening! Qaerdadir bir kitobda bir rivoyat o'qigandim: ikki qo'llab xat yozgan odam hukmfarmo bo'ladi, kunchiqardan to kunbotargacha yurt so'raydi... Otangning tushi bilan ikki qo'llab xat yozishing o'rtasida qandaydir bir-biriga tutash bitta ma'no bor. O'qi, o'g'lim. O'rgan, o'g'lim. Xudo xohlasa, yurt so'raydigan ulug' inson bo'lsan, — dedi Mullo Alibek.

## IKKI TEMUR

*Hikoya*

O'sha kuni kuz shamollari daraxtlarni shovullatib, xazonlarni pir-pir uchirayotgan edi. Temur qurigan barglar shitiriga qulq solgancha, bilmadik, nima xayollarda 3 «g» sinif deb yozilgan eshikdan ichkari kirdi-yu, lablarida «salom» bo'lsa ham, aslida hech kimni ko'rmayotgandek, joyiga borib o'tirdi. O'qituvchisi Suyurg'at aka dars boshlaganda ham hamon xayoli ko'chada edi. Yaqinginada bahor emasmidi? O'shanda

Temur ikkinchi sinfda o'qir, daraxtlarda barg degan narsa yo'q edi. Keyin shox-butoqlarda kurtaklar paydo bo'ldi. Keyin mitti bargechalar unib chiqdi. Keyin ular kattalashdi... Mana endi shu barglar shamollarda o'z shox-hutoqlaridan uzilib, yerga to'shalmoqda... Bir yil yashar ekan-da barg degani...

— Temur! — dedi bir mahal Suyurg'at aka. — Nimalarni o'ylayapsan?

— Yo'q... Hech nima... O'zim... — dedi Temur.

— Ko'rib turibman: gaplarim qulog'ingga kirmayapti... Mana, biz bobomiz Amir Temurdan gaplashdik. Eshitdingmi?

Temur indamadi. Nima ham desin? O'qituvchi to'g'ri urishyapti.

— Hech kim eshitmasa ham, sen eshitishing kerak. Chunki oting Temur. Nega Temur, bilasanmi?

— Temirday qattiq bo'lsin deganlar-da, dadam.

— Bu ham to'g'ri. Lekin dadang, menimcha, «O'g'lim Temurga o'xhasin» degan ham bo'lsa kerak. Temur ulug' bobomiz bo'ladi. Xayolingni jamlab o'tir. Gapga qulq sol, — dedi Suyurg'at aka va butun sinfga yuzlandi: — Bolalar, har bir odam o'zi kimligini, otining ma'nosini, yetti ota-buvasinining ismini, ular kim bo'lganliklarini biliishi shart. Temur bobomiz sizdayligida, balki, sizdan bir-ikki yosh ulg'aygan paytidadir, otasi Tarag'ayni hech o'z holiga qo'ymay, hobilariyu ajdodlari kimligini so'rayverarkan.

— Siz buni qayoqdan bilasiz, Suyurg'at aka? — deb so'radi Temur.

— Tarix kitoblarida yozilgan.

— Bizning tarix kitobimizdam?

— Yo'q, eski tarixlarda. Temur bobomiz bilan bir davrda yashagan, u bilan hatto necha martalab shaxmat o'ynagan va ko'p safarlarda birga bo'lgan Hofizi Abruning «Tarix qaymoqlari» degan bir kitobida...

— «Tarix qaymoqlari» dedingizmi? Tarixning ham qaymog'i bo'larkanmi? — deb so'radi o'quvchilardan biri.

— Ha. Tarixning eng muhim voqealari degan ma'noda ishlatgan bu jumlanli tarixchi. Tushundingmi?

O'quvchi «tushundim» degandan keyin o'qituvchi so'zini davom ettirdi:

— O'sha «Tarix qaymoqlari» degan kitobida Temur bobomizning shajalarari yozib qoldirilgan. Shajara nimaligini bilmaganlar bilib qo'ysin. Bu — avlodning kelib chiqish tarixi, demakdir.

Bir kuni Temur o'z dadasi Tarag'ay otani hadeb savolga tutaverGANidan, unga to'la javob bermasa hech qutilmasligini

ko'rib, dadasi u bilan bamaylixotir suhbattashish niyatida xontaxta uzra yuzma-yuz o'tirdi.

— Dada, — dedi Temur. — Bir oshnam bilan g'ijillashib qolgan edim, uni yog'i yday urishib tashlaganim uchun, meni «mo'g'ul» deb so'kdi. «O'zing mo'g'ul», dedim unga. «Yo'q, sen mo'g'ull!» dedi u. Yo biz chindan-da mo'g'ulmizmi?

— Yo'q, — dedi Tarag'ay ota. — Biz turkmiz. Barlos urug'idan tarqagan eng eski turklardanmiz.

— Barloslar mog'ul qabilalaridan, deydi-ku?!

— Sal-pal rostlik borday ko'rinati bu gapda. Lekin to'g'ri emas. Chunki, otamning aytishicha, barlos urug'ining nomi Qachiloy zamonidan boshlanadi. Qachiloy sen uchun sakkinchi ota bo'ladi.

— Qachiloyning Chingizzonga qarindoshligi bormi?

— Qobulxon degan podshoh Chingizzonning uchinchi otasi edi. Qachiloy esa Qobulxonning inisidir.

— Demak, mo'g'ulligimiz rost ekan-da!

— Yo'q, Chingizzonning o'zi ham mo'g'ul emas. Asli turkiy qabiladan. Faqat mo'g'ullarning xoni bo'lgan, xolos. Tatarlar, boshqirdlar va Sibirdagi boshqa turklar uni Temuchin deyishadi.

— Nega bo'lmasa turklar yurtiga bostirib kirdi?! Elimizni vayron qildi! O'z qondoshlariga achinmasmadi turk bo'lsa?!

— Bunisini Olloh biladi, bunisi Ollohga havola. Temuchinda turklik qolmagandir, balki, deb o'ylayman. Bizning barloslar esa turkligini saqlab qolgan nomusli urug'lardandir.

— Onam ham turkmi?

— Ha, onang Teginabegim Buxoro turklaridan. Ubaydulloh buvangning qizi bo'ladi. Ubaydulloh buvangni Buxoroda tanimaydigan odam yo'q.

— Demak, biz Turon mulkinning egasi, Turkiston amiri ekanmiz-da! Biz millatning eng qadimiy va ulug'i, turkning bosh bo'g'ini bo'lsagu, odamlar bizni mo'g'ul deb yurishsa-yal! Xudo xohlasa, men faqat oshnamga emas, butun olamga turkligimni isbotlab beraman, — dedi Temur va ko'chaga otildi.

O'qituvchi «mana, ko'rdingizmi?» degandek mamnunlik bilan sinfga nazar tashladi va:

— Kelasi darsda biz hammamiz o'z nomlarimiz ma'nosи va tarixini hikoya qilamiz. Ota-onalaringizdan buni surishtiring. Temur! Sening noming «Temur» bo'lgani uchun birinchi sendan so'rayman. Kerak bo'lsa, men ham o'z nomimni tushuntirib beraman, kelishdikmi? — dedi.

— Bo'pti! Bo'pti! — deyishdi bolalar chuvillashib.

## TEMURNING BOLALIGIDAGI TO'RT QILIG'I

Amir Temurning yoshlikdagi to'rt qilig'ini kitobga yozganlar:

- 1) Yuk to'la aravani bir qo'li bilan ostidan ko'targan.
- 2) O'zini chaqay deb turgan ilonning boshini tishi bilan tishlab, shart uzib tashlagan.
- 3) Quduqdan qirq kishi birgalikda tortadigan qovg'anı (suv olishda ishlatalidigan charm idishni) suvi bilan birga bir o'zi tortib olgan.
- 4) O'yma qo'tir bo'lib qolganda, to tuzalgunga qadar o'zini yetti yil qashimagan.

## TEMUR VA CHUMOLI

### *Hikoya*

Temur 24 yoshdan oshgan chog'larida uning harbiy qobiliyati va sarkardalik mahorati butun Mavorounnahrda ovoza bo'lib ketgandi.

Bir kun, dushmanlari qarshisida qiyin ahvolga tushib qolgan Seiston hokimi Malik Fahriddin undan yordam so'radi.

— Meni kuchli bir dushman o'z holimga qo'ymayapti. Bo'lar-bo'lmasga mulkimni talab, talonchilik qilib, tinchimni buzadi. Agar sizning yordamingiz va qahramonlaringiz soyasida bu dushman bizdan uzoqlashtirilsa, sizga juda ko'p boylik va qimmatbaho durru javohirlar berardim, umr bo'yi bu yordamingiz uchun minnatdor qolardim, — degan so'zlar bilan yalinib-yolvordi.

Temur, do'sti va qaynog'asi Husayn bilan maslahatlashdi. So'ng ikkovlari 1000 kishilik yigitlari bilan yordamga kelib, Seiston hokimining dushmanini tumtaraqay qilib yuborishdi. Ammo Malik Fahriddin ularga yordamga ham kelmadni, vadasingning ustidan ham chiqmadi. Temur va Husayn uning huzuriga otlandilar. Lekin yo'lda o'zları qo'qqishdan hujumga uchradiilar. Bu to'qnashuvda Temurning o'ng qo'liga o'q tegib jarohatlandi. Oyog'i ham shu jangda zarar ko'rgan edi. Temur bilan chumoli haqidagi mashhur hikoya uning shu mushkul kunlariga oiddir. Hikoya bunday:

Temur yarador holda bir kun devorlarga suyangan, chekayotgan azoblariga bazo'r dosh berib o'tirardi. Bir qo'li va oyog'i ishlamas, dunyoning barcha ishlalariga etak silkib, endi bir chekkada jimgina yuraman, deya umidsiz hayollardan ezi lar edi. Shu payt bir zaifgina chumolga ko'zi tushdi. Unga

qarab o'tirsa, chumoli devorga tirmasha boshladi. Lekin bir oz yuqoriga chiqishi bilan pastga dumaladi. Chumoli yana devorga tirmashdi va yana yiqilib tushdi. Yana devorga tirmashdi, yana yiqildi. U yana devorga o'rmaladi va nihoyat tepaga chiqishga muvaffaq bo'ldi. Temur chumolining holini o'ziga o'xshatib, yana ishga kirishishga ahd qildi, buyuk davlat qu-rish umidi bilan faoliyat ko'rsata boshladi.

## **TEMUR BEKLARINING MATONATI VA SADOQATI TO'G'RISIDA HIKOYAT**

Tarix kitoblarida Temur atrofidagi bir qator beklarning matonati va o'z hukmdorlariga sadoqati to'g'risida talaygina hikoyalar uchraydi. Mana shulardan biri:

Temur 1393 yili avgust oyida Bag'dodga kirganida Javoyir hukmdori Sulton Ahmad Bag'doddan qochib, Dijla daryosidagi kemalarni cho'ktirib, ko'prikniz buzib tashlab, Damashqqa yo'l olgandi. Temur o'z sadoqatli beklaridan Amir Jalol, Iboj O'g'lon va Usmon Bahodirga qochoq Sulton Ahmadni ta'qib qilishni topshirdi. Ular Sultonni Karbalo dashtigacha quvib bordilat, ammo uni ko'zdan yo'qtgach, orqaga qaytdilar. Bepoyon cho'lda suvsiz qoldilar. Havo o'lguday issiq edi. Bir necha jangchilarini suv izlashga yuborgandilar, ular bor yo'g'i bir necha yutumgina suv topib kela oldilar, xolos. Iboj O'g'lon suvning bir qismini ichdi, lekin chanqog'i zarracha ham qon-madi. Amir Jalolga: «Tashnalikdan o'lay deyapman, chanqog'im shu qadar avjidaki, sening haqingni ham ichmasam o'ladiganga o'xshayman, agar suvning senga qolgan qismini menga in'om etsang, katta odamgarchilik qilib, meni omon saqlab qolgan bo'larding», dedi. Amir Jalol: «Men Amir Temurdan bir hikoya eshitgandim: Bir arab bilan bir ajam (fors) yo'lga chiqqanda do'stlashib qolgan ekanlar. Shunday issiq bir kunda suvsizlikdan o'lar holga kelishibdi. Arabning yonida ozgina suvi bor ekan, ajam arabga yuzlanib: Arablarning yaxshiligi va qo'li ochiqligi olamga mashhur. Shu bir yutum suving bilan meni o'limdan qutqar», debdi. Arab bir oz o'ylagandan keyin: «Agar shu suvni senga bersam, o'zim tashnalikdan o'lishimni bilaman, lekin arablarning yaxshilikni yaxshi ko'rishi va qo'li ochiqligi shuhratini saqlab qolish mening hayotimdan muhimroq» deb, suvini ajamga beribdi va ajam hayotini qutqaribdi. Shu voqeadan naql qilgandan keyin Amir Jalol: «Sohibqiron Amir Temur yigitlarining yaxshilikni yaxshi ko'rishi va qo'li ochiqligi yer yuzida ovoza bo'lishi uchun o'z ulushimdan voz kechaman, agar menga biron kori-

hol bo'lsa, hukmdorimiz rozi bo'lsinlar», dedi. Iboj O'g'lon suvni ichdi va hayotini saqlab qoldi. Amir Jalol ham o'lmadi. Keyin ular eson-omon Temur huzuriga kirib bordilar. Iboj O'g'lon, yo'lida bo'lgan voqeani Temurga aytib berdi. Temur, Jalolning bu ishidan ko'p mammun bo'ldi va uning otasi Amir Hamid ham bir vaqtlar shunday fidokorliklar qilganini aytib berib, bu voqeai abadiyan tarix kitoblarida qolajagini so'yladı.

## TEMURNING NABIRASI XALIL SULTONNING BAHODIRLIGI HAQIDA

*(G'iyo'siddin Alidan)*

Omon bo'lgur shahzoda Xalil Sultan, Ollohnинг inoyati va oliv hukmdorning homiyligi tusayli ayniqsa ajralib turardi. Uning baxtli qiyofasida dunyolarning ko'zi va butun olamning nazari porlar, olivjanob manglayida esa, uning hokim bo'la-jagini ko'rsatadigan alomatlar muhrlangan va yaqqol aks etardi... Olishuvlarning birida, zabardast, ulkan va dahshatli fillar bir safga tizilib, jang maydoniga dengizday bosib kelgan chog'ida Xalil Sultan olovga va quyunga o'xshab raqiblar bilan yuzma-yuz bo'ldi; tog'larday quturgan, g'irt iblissifat, siyoqi jinlarga o'xhash bir fil, hartumi bilan odamlarning boshlarini soqqalarni tutgan chavgonday tutib olib ketayotgan pallada unga qilich bilan tashlandi... Qaysi bir davrda, qay bir shahzoda shu qadar yoshlidka, yoshligi endigina gullagan chog'ida — 15 yasharligida zamonalr kitobida bunday shon-sharaf va nom goldirgani tarixga ma'lum emas. Ha, ha, Olloh rahmat qilgur Abu an-Nazr Utbiy «Yaminiy kitobi»da Olloh qabrini yorug' qilgur Sultan Mahmud G'oziy to'g'risida hikoya qiladi: «Mahmud 15 yasharligida, otasi Amir Nosiriddin Sabuktegin — Ollohnинг salomi bo'lsin — qo'mondonlik va saf tuzishni unga topshirgan ekan. Utbiy shu munosabat bilan shunday bir to'rtlik keltiradi:

*U, chopqir otlarni boshqarardi o'n besh yoshida,  
U tengi bolalar ko'chalarda o'ynab yurardi hali,  
Aqltari ishlamasdi, bunda esa shohlar zakovati,  
Hujumkor qahramonlar jasorati ko'riniib turardi.*

Bu she'tning mazmunidan Sultan Mahmud o'n besh yoshiba, hali o'rtoqlari o'yinlar bilan mashg'ul paytlarida qo'shin boshqarganini; o'rtoqlarining g'o'r aqli hali zaif va o'sib yetilmagan bir paytda, unda shohona aql-zakovat, shohona jasorat,

epchillik eng oliv darajaga yetganini anglash mumkin. Ammo qo'shinga boshchilik qilish boshqa, dushmanni tor-mor qilish va fillar bilan urushga kirib borish boshqa. Qo'shinga qo'mondonlik qilish bilan o'z hayotini xavf-hatarga qo'yish o'rtasida kattagina masofa bor.

## QAHRAMONLAR HAM QO'RQQAN

(*G'iyosiddin Alining «Amir Temurning Hindiston safari» kitobida berilgan ma'lumotlar asosida hikoyat*)

Har qanday odamning hayoliga birda bo'lmasa, birda: «Temur qo'shirlari orasida urushlarning dahshatlaridan qo'rqqan, jangga kirishdan bosh tortgan kishilar ham bo'lganmi?» degan savol kelishi mumkin. Bu savolga tarixiy voqealardan biri javob bo'ladi.

Bir safar Temur qo'shirlari Sulton Mahmudxon qo'shirlari bilan yuzma-yuz keldi. Temurning lashkari son jihatdan ham, qurol-aslaha va ulov vositalari jihatdan ham qarshi tomonga bas kelolmaydiganga o'xshardi. Sulton Mahmud tomonida o'n ming otliq askar, yigirma ming sara jangchilardan tuzilgan qo'shilmalar, Mallaxon singari taniqli lashkarboshi va boshqa atoqli qo'mondonlar bor edi. Qo'shirlar oldida Sulton Mahmudning o'zi arg'umoq otini o'ynatib osmonga sakratib turar edi.

Temur ham tulporiga mindi va o'ng qanotga o'g'li Pir Muhammad bilan nabirasi Sulaymonshohni hamda tajribali amirlarini qo'ydi. So'l qanotga shahzodalaridan Sulton Husayn bilan nabirasi Xalil Sultonni hamda Jahonshoh boshliq amirlarni, old tomonga, shahzoda Rustam bahodirni hamda amirlaridan Shayx Nuriddin, Shohmalik, Ollohdod kabilarni qo'ydi. O'zi lashkarning oldiga turdi.

Qarshi tomonning tuzilmalari oldiga 120 ta harbiy fil qo'yildi. Fillarning hartumlari bir-biriga ulangan edi. Askarlar va fillar shamol paytidagi dahshatlari dengizga o'xshardi. Harbiy qoidalar asosida tartib bilan, sovut va aslahalar bilan qurollanib kelishmoqda edi. Fillar naq siljib kelayotgan tepaliklarga o'xshar, ularning sirtiga doira shaklidagi dumaloq ko'shklar o'rnataligan, ko'shklarda kamondon o'q uzadigan mernan o'qchilar o'tirardi. Fillar bilan yonma-yon og'zidan qora tutun va qaldiroqlar otib chiqarayotgan zambaraklar ham siljib kelardi.

Temurning qo'shirlari, qanchalik mohir bo'lmasin, bunaqasini hali ko'rmagan edi. Ne-ne urushlar-u, ne-ne ajal

girdoblarida mardlik namunalarini ko'rsatgan, biron jangda oyog'i qaltiramagan usta jangchi qo'mondonlar orasida bu gal turli mulohazalar, qo'rquv alomatlari yuz ko'rsatdi. Ilgarilar qancha qahramonliklar qilgan, hech kim qo'rroq deb aytolmaydigan kishilardan mavlonoyi a'zam Hoja Fazl, olimlar va shayxlar sultonining o'g'li ulug' Jalol ul-Haq va din Koshiy, Ulug' janob Abduljabbor, dunyo qozilarining shahanshohi zuriyotidan No'moniddin Xorazmiylar Amir Temurdan jangga kirmaslik uchun ruxsat so'radilar.

Buyuk sarkarda Amir Temur ulardan so'radi:

— U holda sizlar qaerda bo'lasizlar?

— Bizning joyimiz xotinlar orasida bo'ladi, — deyishdi ular.

Ulug' hoqon janobi oliylari, baxtli hukmdor ularga qarab kulib qo'yildilar.

## TEMURNING NABIRASI ULUG'BEKNI QANDAY YAXSHI KO'RGANI TO'G'RISIDA

(*G'iyosiddin Alidan*)

Bir safarga o'z davrining va o'z zamonasining balqigan oyi, butun jahon xonimlarining panohi va suyanchig'i, ulug'verligi va bokiraligi kundan-kunga oshib borgur Bibi xonim bilan inson zotining muzaaffar shahzodasi, Ollohnning zarrin nuri, cheksiz baxt konining gavhari va durri a'losi —

*Shohona dengiz qa'ridan chiqqan bebaho durri gavhar,  
Ilohiy nurlardan uchqun olib yongan yorug' sham,  
Baxt yulduzi ostida tug'ilgan, go'zal taxtga loyiq,  
Taqdир yozuviga ko'ra toji taxtning bo'lajak egasi —*

shahzoda Ulug'bek bahodir — iloyo uzun hukm suradigan saltanat ato qilsin» — qatnashayotgan edilar. O'sha kuni ularni tinchlik-xotirjamlik bilan, baxt yulduzi hamrohligida boshkent — Samarcand shahriga jo'natib yuborish to'g'risida ruxsatnoma chiqarildi. Bu — janobi oliylarining o'ktam, keliшган, xushxulqli, maqtovg'a loyiq shahzodaga mehrlari tufayli edi. Darhaqiqat, shahzodaning baxtiyor manglayida yetuklik va hukmdorlik sho'lalari aks etar, harakat qilayotganida ham, jim turganida ham ilohiy jilva alomatlari quyosh nuriday aniq-tiniq ko'rinib turar edi. Bularning bari shu darajada ediki, uning xushchaqchaq qiyofasi ko'z oldida bo'lmasa, janobi oliylari u bilan uchrashmasalar, ko'ngillari hotirjam

bo'lmas, uning jonday aziz hushbichim yuzlarini ko'rmaguncha ochilishlari qiyin edi.

*Hayot arqonlarining pishiqligi — sog'liq-omonlikdir,  
Ular birga bog'liq bo'lsinlar to qiyomatgacha.*

Janob oliylari, ko'zlarining nuri, qalblarining mahsulidan hech ajralgilar kelmasa ham va ular — Bibixonim va Ulug'bek — oldilaridan nari ketmasligini qattiq istasalar ham, Hindistonning jaziramasi Ulug'bekning bebahos sog'lig'iga yomon ta'sir qilishini xudo ko'rsatmasin, deb o'yardilar. Yurakka aziz, ko'ngillarining durdonasi bo'lmish aziz shahzdani sog'inish janobi oliylarini qiyin ahvolga qo'ysa ham, ul oliy zotning yuksak diniy mayllari bu suyuk go'dak bilan ajrashishni afzal ko'rishga sabab bo'ldi. Ulug'bek bu paytda to'rt yoshda edi. To'g'ri, inson tabiatining ehtiyoji bo'lgan mehr-muhabbat, shahzoda bilan bir soatga-da ayrlilqqa yo'l bermas edi, ammo janobi oliylari, hushbaxt hukmdorimiz, ko'p qarorlar ichra bir qarorga kelish va qonunga to'g'ri keladigan bir tarzda hayot kechirish masalasi o'z ixtiyorlarida bo'lgandan keyin, diniy mulohazalari Ulug'bekka bo'lgan mehr-muhabbatlaridan ustun keldi.

## ULUG'BEK HAQIDA PYESALAR

### OTA VA O'G'IL KOSHIYLAR

#### QATNASHUVCHILAR:

G'iyosiddin Jamshid — falakiyot va riyoziyot olimi, Samarqanddagi rasadxona qurilishi boshchilaridan biri, temuriylarga qarashli Koshon shahrida tug'ilgan, 40 yoshda. Ma'ruf at-Tabib al-Koshiy — G'iyosiddinning otasi, 60 yoshda.

*1430 yilning yoz oyi. Orqa planda Koshon shahri manzaralari aks ettirilgan. Olisda shahar darvozasi, beriroqda tosh yetqizilgan ko'chalar, yo'l yoqasida olti qirrali ustunlar bilan ko'tarilgan, to'q binausha, och qizil va sariq rangli bo'rtma koshinlar bilan naqshlangan imoratlar.*

*Sahnaning o'zida — oddiy sharq xonadoni, oldi ayvon. Ayvonga zina bilan chiqiladi. Xona ichida xontaxta uzra Ma'ruf at-Tabib al-Koshiy kitob varaqlab o'tiribdi. Hovli eshigi taqillaydi.*

**Ma'ruf at-Tabib al-Koshiy:** — Labbay, hozir (Uydan ayvongga, ayvondan hovliga tushib zanjirni tushirib, eshikni ochadi. G'iyosiddin kiradi). Iya-iya, o'g'lim. Senmisan? O'zingmisan?

**G'iyosiddin Jamshid:** — Assalomu alaykum, ota! Omonmisiz?! (Quchoqlashadilar.)

**Ota:** — Yaxshi keldingmi, o'g'lim? Ziyoratlar qabull!

**O'g'il:** — Murod hosil! Qo'lingizni o'pish nasib qilganiga shukur.

**Ota:** — Barakallo, o'g'lim, barakallo. Kechadan beri ko'zim uchib turgan edi. Yaxshilikka bo'ldi, alhamdulilloh (Uyga kiradilar). Qani o'tir, o'g'lim. Illoho ovmin. Qadam yetdi, balo yetmasin, doim omon bo'laylik.

**O'g'il:** — Mana, ketganimga to'rt yildan ham oshibdi. Suhbatingizni sog'indim.

**Ota:** — Xo'sh, o'g'lim, gapir: qalay endi Samarqand yoqlar?

**O'g'il:** — Dastlab Hirotga, ulug' sulton, islam podshosi Shohruh saroylariga tushdim. Anda dinparvar Shohruh sultoni «Hazrat hoqoni said» deb ta'birlaydurlar. Ul zotning hayot tarzları oddiy musulmonlar hayotidan u qadar farq qilmaydur. Juma kunlari hatto yonlariga soqchi ham olmay ketaverar erkanlar. Hafta sayin qorilarni saroyga da'vat qilib, Qur'oni Karim o'qitadurlar, shariatda taqiqlangan ishlarni butun o'lkkalariga joriy etganlar. Chunonchi, mayxo'rlik va zinokorlik qat'ian yasoq etilgan. Bu yasoqlar qanday ijro etilishini kuzatadigan ikki arboblari bor. Bu arboblар mayxo'rlik bo'layotgani aniq bo'lgan uylarga kirib, sharob topganlari taqdirda, to'kib tashlash huquqiga egadirlar.

**Ota:** — Yopiray! Mayxo'rlar saroy ayyonlari bo'lsa-chi?!

**O'g'il:** — Hechkimga shafqat yo'q. Bir kuni, hatto, Shohruhnинг о'з о'г'ли Jo'kiyning uyida sharob ombori borligi to'g'risida habar kelganda, Shohning o'zлари o'sha arboblari bilan borib sharoblarni to'ktirganlar. Ammo «hazrat hoqoni said» — Tangri Taolo aning davlatini abadiy qilish — mutaassib dindorlar toifasidan emaslar. Hirotda madaniyat va avvalo san'at, fikr hayotida katta yuksalishlar bor. Musavvirlik, hattotlik, me'morlik, musiqa, tarix, ilohiyot va fiqh namoyandalari hukmdorning himoya qanoti ostindadurlar. Men ham ul zotning soyai marhamatida «Ziyji hoqoniy dar takmili «Ziyji Elxoni» otlig' risolamni bitkazib, ul zotning nomlariga bag'ishladim. So'ngra meni Samarqandga taklif etishdi. Bu, Ulug'bek Mirzo deganimiz, otasidan ham o'tib tushadigan ajoyib inson, benihoya buyuk olim erkan.

**Ota:** — Podshohlar, odatda, hukmfarmo, johiltroq bo'lguchi edi...

**O'g'il:** — Ulug' Egam Mavorounnahr fuqarosiga Ulug'bek siyimosida oqil podsho ato etmis. Ul zot on qadar tarbiyalı, o'tkir zehnli, so'zлари ta'sirchan, chinakam ziyosohib inson ekanlarkim, hamsuhbat bo'lg'on kishining aqli hayronlikda qolur. Men bu so'zлarni hurmat-ehtirom yuzasidan aytayotganim yo'q. Chunonchi, Qur'oni Karimning ko'p qismini yod biladilar. Tafsirchilarning har oyat haqidagi izohoti tillarining uchida turadi. Hadisi shariflarni shunday o'rniga qo'yib aytganlarida muxolifat ahlining taslim bo'lmay iloji qolmaydi. Suralarni yod o'qiganlarida biron qusr yo nuqsonga yo'l qo'yunganlarini ko'rib, yillarcha tahsil ko'rgan qoriyu qurrolar

lol va gung bo'lib qoladilar. Arabcha sarflu nahvlar i juda go'zal va mukammal. Fiqh, mantiq, usul, ya'ni aruz asoslarini ham behato biladilar.

**Ota:** — Vo ajab...

**O'g'il:** — Bugina emas, riyoziyot ilmining barcha sohalarida ham ul zotning oldilariga tushadig'on kimsa yo'q. Misol bilan aytay sizga: bir kuni otda o'ltinganlari holda, hijriy 818 yil Rajab oyining o'n bilan o'n beshi orasidagi dushanba kuni quyosh yilining qay kuniga to'g'ri kelishini bilgilari keldi. Atroflaridagi biron kishi, hatto, men o'zim ham buni hisoblab, aytib berolmadik. Shunda ul zot hamon otdan tushmagan holda quyoshning o'shal kunga nisbatan uzoqligini ikki daqiqa ichida hisoblab, bilgilari kelgan masalani yechdilar.

**Ota:** — Yo Rabb! Nahotki...

**O'g'il:** — Ota! Bunday hisobning yechimini topish uchun, hisob-kitob chog'ida raqamlarni hotirdan chiqarmay turish kerak. Atroflaridagi kishilar ham bu masalani o'tirib, qog'ozga yozib olsalar, yechimini chiqarishardi. Og'zaki hisobda esa raqamlarni qatorlashtirib yodda tutib turish qiyin. Ul zotning hotiralari esa benazirdir.

**Ota:** — Tegradagi olimlar kimlar edi?

**O'g'il:** — Qozizoda Rumiy, usta Ismoil va usta Ibrohim, Abduali Birjandiy, Muhammad Havofiy, Sayyid Imomiddin, Burhoniddin Nafis, kamina va boshqalar.

**Ota:** — Shuncha olimdan biri ham yechib berolmadidi, degin.

**O'g'il:** — Ha, ota, yechib berolmadik. Bo'lmasa, Samargand olimlari chakana olimlar emas. Bizning Koshonda har bir fanning bir-ikki namoyandasini bo'ladi. Samarqanda undog' emas. ULar ilmlarni ko'plashib o'rghanishadi. Avvalambor, Ulug'bek Mirzoning o'zları Nosiriddin Tusiyning «Tazkira»si va Qutbiddin Mahmud Sheroziyning «at-tuhfa ash-shohiy» asarlari bo'yicha dars beradilar. Soniyan, u yerning olimlari tamomi ilmlardan dars beruvchi mudarrislardir. Ayni chog'da alarning aksariyati riyoziyot bilan band. To'rt mudarris «Tajhis al-hisob»ga sharh yozgan. Eng bilmidon olimlari Qozizoda Rumiy esa, Chag'miniyning asarlariga sharh risolalari yozgan.

**Ota:** — Chag'miniy dedingmi? Kim ul? Eshitmagan ekanman.

**O'g'il:** — Mavorounnahrning Xorazm mintaqasidan chiqqan olim.

**Ota:** — Nega Xorazmiy emas, Chag'miniy bo'lmasa?

**O'g'il:** — Chag'min — Xorazm bo'lgasining bir qasabasi. Nisbasi to'la holda Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-

Xorazmiy-Chag'miniy. Ul muborak zotning «Muxallas fi'l-hay», «Ashkol al-ta'sis» va «Qirol kavokib va zaafuhoh» nomli asarları Samarqandda benihoya qadr topgan. Qozizoda Rumiy janobları bul kitoblarni sharhlab, ikki risola bitganlar. Madrasa talabalariiga bularni yoddan bilish qat'iy nizom qilib qo'yilgan.

**Ota:** — Oolloh Qozizoda Rumiining umrini ziyoda qilsin. Ammo lekin gaplaringga qaraganda, A'löhazrat Ulug'bek Mirzo ko'p tabarruk zotga o'xshaydirlar.

**O'g'il:** — Bunga zarracha ham shubha qilmang, ota.

**Ota:** — Xo'sh, shunda, nega sen to'g'ringda sayyoohlar har xil noxush so'zlarni aytib kelishadi? O'zingni katta tutarmishsan, qo'polliq qilarmishsan. Uncha-muncha odamni mensimas emishsan!?

**O'g'il:** — Ota, bu boshqa masala. Siz aralashmasangiz ham bo'ladi... Men o'z holu ravishim haqinda, Samarqand ulamosi ichindagi vaziyat borasinda sizga batatsil bir maktub yozmishdim. Olmagansiz shekilli.

**Ota:** — Ahamiyati yo'q. Xo'sh, xo'sh?

**O'g'il:** — Siz menga yozgan maktubingizda faqat rasadxona qurilishi bilan o'ralashib qolayotganim uchun, falakiyat, riyoziyotdan boshqa ilmlarni, chunonchi, aruz, tarix, jo'g'rofisiyani unutib qo'yayotganim uchun meni koyigansiz. Nasihatingiz tamoman o'rinci.

**Ota:** — Sen menga boshqalarga munosabatingdan gapir.

**O'g'il:** — Ulug'bek madrasasida munajjimlar va riyoziyot mutaxassisleri 60—70 kishiga yetadi. Biz, koshonliklar, to'rt kishimiz... Ular 10—13 yildan beri falakiyat va riyoziyot bilan mashg'uldirlar...

**Ota:** — Xosh, nima bo'pti?

**O'g'il:** — Samarqandga borganimda meni mudarrislikka olishdi va darslarimni obdan tahlil qilishdi.

**Ota:** — Juda yaxshi. Shunday bo'lishi kerak.

**O'g'il:** — Avra-astar qilib saviyamni bilmogchi bo'lishdi. Ulug' Sultanning o'zları ham darslarimda hozir bo'ldilar; ammo javoblarimni va saboqlarimni A'löhazratdan boshqa hech kim tushunmadi (kuladi). Bir qator muhokama va munqashalarga Ollohnning inoyati va Siz, padari buzrukvorimdan yuqqan fayz tufayli, sinoqlarning hamma turlarida muvaffaqiyat qozondim. Samarqand olimlari hayratlar ichinda qolishdi.

**Ota:** — Shukur qilish kerak.

**O'g'il:** — E, ichlari kuyib ketdi ularning...

**Ota:** — Be...

**O'g'il:** — Bir kuni Ulug'bek Sultan yo'g'onligi bir gaz bo'lgan va 1022 yulduzni ko'rsata ola turg'on usturlob yasash-

ni buyurdilar. Bu yulduzlarning paydo bo'lish va o'tish yo'llari ni o'rghanish, aniqlash zarur edi. Barcha hisobchilarga birgalikda ishslash topshirilgandi. Ular masalani «Ziyji Ilhoni» uslubida yechmoqchi bo'lildilar. Ammo 150 ga yaqin sobit yulduzning yerlari hech to'g'ri chiqmay ularni qiyinab qo'ygandi. Men ularga masalani «Ziyji Ilhoni» yo'lida emas, boshqa usulda tushuntirib, yechib berdim va bu usturlobda mingdan ortiq yulduzning paydo bo'lish va o'tish yo'lini aniqlash mumkin ekanligini aytib, ularga boshqacha tarzlarini o'rgatdim.

**Ota:** — Yaxshi qilibsan. Baraka top.

**O'gil:** — Yana bir kuni Ulug'bek sulton, saroy devoriga, tegishli vaqtி ko'rsatib tursin uchun soat xizmatini o'tovchi chiziglar naqsh etishni buyurdilar. Ammo devorning satxi tik yo'naliш bilan ko'ndalang yo'naliш kesishadigan tomonga qaratib qurilmaganligi uchun, u devorga bunday chizig naqshlash mumkin emas edi. Samarqand olimlari esa, bunday naqshni bit-yil ichida qurish mumkin deb ovora bo'lib yotgan edilar. Men, birinchidan, katta usturlob yasalishi kerakligini, shunda masala to'g'ri va xatosiz yechilishini aytdim. Ikkinchidan, quyosh nuri ast namozi paytida tushib tursin uchun devorda teshik ochib qo'yilishi darkorligini, boshqa paytlarda quyosh nuri bu teshikdan tushmasligi kerakligini aytib, masalani hal qilib berdim, Sultonning istaklari bir kunda ado etildi.

**Ota:** — Xudo bilimingni bundan ham ziyoda qilsin.

**O'gli:** — Yana bir kuni Ulug'bek Sultan bilan Marog'a rasadxonasi haqida gaplashib qoldik. «Bola chog'imda u yerlarda bo'lganman. Rasadxona, odamlar yashab turgan tepalik ostida qolib ketgan ekan» dedilar. Men Marog'a rasadxonasida o'rnatilgan 80 gazlik yulduz kuzatish minhari bo'lganligi va u «Sudsi Faxriy» deb atalganligi to'g'risida hikoya qilib berdim. O'shal kundan e'tiboran shohimizda o'shandoq «Sudsi Faxriy» qurish ishtiyogi kuchaydi va mashg'ulot paytida Beruniyning «Qonuni Mas'udiy» kitobidan bir-ikki murakkab masalani o'rta ga tashlab, kelguvsi darsgacha yechib kelishni topshirdilar. Barcha olimlar, shu jumladan, Qozizoda Rumiy janoblari ham shu masala bilan band bo'lildilar. Ikki kundan so'ng butun ulamo imtihon qilindi. Biron kishi ham masalani hal qilolmagan edi. Rumiy janoblari «Kitobning aynan shu yerida tushib qolgan jumlesi bor, kitobning boshqa nusxasi bilan qiyoslab ko'rish kerak» dedilar. Men «kitobning hech qanday tushib qolgan yeri yo'q. Masala aniq!» dedim va masalani tafsirlab berdim. Ota! Sultonimiz go'zal inson, ammo bu Samarqand ulamosi, hatto Qozizoda Rumiy ham olim sifatida o'rgamechik jarayondagi kishilardir. Ularning darajalari juda past.

**Ota:** — Hozirgina ularni ko'kka ko'tarib turganding-ku?!

**O'g'il:** — E, ota, bu Qozizoda degan kishingiz ko'paytirish va bo'lish masalalarini ham daftarga yozmaguncha yo'q kitobga qaramaguncha yecha olmaydi. Rasadxona quriladigan joyni tekishlashda bir qancha xatolarga yo'l qo'yganini ko'rdim va yanglishlarini tuzatdim. Ul kishi Marog'ada 80 gazli «Sudsi Fahriy» bo'lganligidan ham butunlay xabarsiz ekan. Endi, kelib-kelib, ana shu Qozizoda Rumiy Ulug'bek madrasasining bosh mudarrisini va rasadxona qurilishida 80 kishining bosh mudiril Namuncha axit? A'lohzarat ko'rib turibdilar-ku ul kishining saviyalarini... Umuman, rasadxona qurilishida ko'p odam ishlashining xojati ham yo'q. Podshoh va yana 3—4 kishi ishlasa kifoya qiladi. Batlimus podshoh edi va faqat o'g'li bilan birga ishlagan edi. Shuncha odamni ishlatisning nima keragi bor?

**Ota:** — Ha-a... Endi men seni tushundim, yaxshi olim ekansan-u, lekin niyattingda yaxshilik yo'q ekan...

**O'g'il:** — Nega unday deb o'ylaysiz, ota. Biz podshohni yonimizga olib o'zimiz rasadxona quramiz. Xohlasa, Qozizoda Rumiy ham podshoh bilan birga 80 kishilik to'dasi bilan qurilishni qilaversin. O'rtada musobaqa bo'ladi...

**Ota:** — O'ying — kalta o'y... Bunday ulug' ishda uhuvvat kerak, o'g'lim, birlik, birodarlik, qardoshlik... Aks holda ishdan baraka ketadi... Sen menga to'ppa to'g'risini ayt: Qozizodani nimasi yoqmaydi?

**O'g'il:** — Saviysi, qariligi... Aytdim-ku: u yerda mendan o'tadigani yo'q. Men boshchi bo'lismim kerak rasadxona qurilishiga!

**Ota:** — Sayyoohlarning gaplari to'g'ri ekan. Sal o'zingdan ketib qolibsan, bolam. Xalqda bir gap bor: «Men ham edim seningdek, sen ham bo'lursan meningdek». Erta-indin sen ham qariysan. Ilm dunyosi esa mo'jizalar bilan to'la: Bugun sen mendan baland bo'lsang, ertaga men sendan baland bo'lismim mumkin. Qozizodani kamsitishing maqbul emas menga.

**O'g'il:** — Ota, meniyam eshititing.

**Ota:** — Eshitmayman. Gapirib bo'lding. Musichaday bezozor Qozizoda bechora sen aytganchalik past saviyali emas. Men o'zim, o'qiganman u haqdagi risolalarini... Undan tashqari umrini sharaf bilan yashab kelayotir. Sendan 14—15 ko'yakni ortiq yirtgan. Marmar dengizi janubidagi Bursaday shahri azimda tug'ilib, o'sha yerda Mulla Shamsiddin Fanoriyday ulug' olimdan riyoziyot va ilmi nujum ta'limini olgan. 20 yoshida ilm mashaqqatlari libosini kiyib, safar jabdug'ini orqalagan. Xuroson va Mavorounnahr olimlaridan ta'lim ol-

gani ketgan. Jafokash singlisi, salar oldida ba'zi qimmatli javohirlarini kitoblari orasiga qo'yanini eshitganmiz. Samarqandda Sayyid Sharif Jurjoniyan dars olgan. Jurjoniy «Qozizoda tabiatan riyoziyotga moyil» deganini yaxshi bilamiz. Xo'sh, nima bo'pti? Birovga u yoqhan, birovga bu yoqdan. Balki birovga ko'proq, birovga ozroq bo'lishi ham mumkin. Olloh kimga qancha yuqtirishni o'zi biladi. Ammo Qozizodaga oz yuqtirganiga ham gumanim bor.

**O'g'il:** — Nega?

**Ota:** — Boya o'zing aytding: Qozizoda bosh mudarris, deb... Dars beradimi, axir?

**O'g'il:** — Ha, «al-Majastiy»dan dars beradi.

**Ota:** — Batlimusning «al-Majastiy»idan uncha-muncha odam dars berolmaydi. Dars u yoqda tursin, ul asarni fahmlash va idrok etishning o'zi ham oson emas. Soniyan, yana o'zing aytding: Chag'miniy kitoblariga sharh yozgan, deb... To'g'rimi?

**O'g'il:** — Bor-yo'q asarlari shu. Boshqa hech nima yozmaganlar.

**Ota:** — «Riyoziyot» darsligi-chi?

**O'g'il:** — Ha, endi u umumiy gap. Biron yangilik yoq ichida.

**Ota:** — Balki endi yozar. Kim biladi buni...

**O'g'il:** — Go'rdami?

**Ota:** — Hay-hay, og'zingga qarab gapir, o'g'lim. Kim oldin, kim ketin go'rqa kiradi — Olloh biladi... Xudodan qo'rqi! O'zi yaxshi odamligini inkor etmasang kerak? U seni hech kamsitganmi?

**O'g'il:** — Yoq.

**Ota:** — So'zingni yerda qoldirganmi?

**O'g'il:** — Yoq.

**Ota:** — Ulug'bek Mirzoning ustozimi?

**O'g'il:** — Ha.

**Ota:** — Ulug'bek Mirzo bosh egib, qo'lini o'padimi?

**O'g'il:** — Ha.

**Ota:** — Xo'sh, nima deysan endi? Sen kimsan o'zi? Kechagina ilmingni qanday qilib yuzaga chiqarishni bilmay yurgan bechoragini olim emasmiding? Kimning oyog'iga bosh urishni bilmay, Qora Qo'yunli sultoni Iskandarga kitob bag'ishlab, shunda ham bee'tibor qolgan mullavachcha emasmiding? Ilmingning egasi yo'q emasmidi? Nega kechagi kunningni, eski chorig'ingni unutyapsan? Men seni kamsitmeyman, o'g'lim... Balki, sen chindan ham barcha olimu mudarislardan ustunroqdursan. Lekin bir narsani unutma: Bu dunyoda bir odam bilgan narsani boshqa odam bilmasligi

mumkin. Sen bilgan narsani ular bilmasligi mumkin. Ammo sen ham ular bilgan narsaning ko'pini bilmasligingga ishonoman. O'zingga baho berishda Ollohnii unutma! Biz hammamiz bilimdon, donishmand odamlarmiz. Ammo Olloh bilimdonroq. Qalbingda sarkashlik tuyg'ulari uyg'onganda, yodingga ol shuni: Olloh bilimdonroq. Nega men seni G'iyo'siddin deb ataganman? «G'iyo's» — «madadkor» degani. G'iyo'siddin — dinning madadkori degani. Sen dinga, ilmiga, do'stlaringga, Sulton Ulug'bekka, Qozizoda Rumiyya madadkor bo'll! Sen barcha muhtojlarga madad berishing uchun yashashing kerak! Samarqandda rasadxonani tiklanglar! Ilm yo'lida riyoza tashish! Nafsingga, «men»ligingga hay ber! Xolisanilloh ishla... Patoratchilik, guruhbozlik qilma!

Bilasanmi, senga yozgan xatimda, sen tavhid va hadis ilmini o'rgan, degandim. Sen boyta mening gaplarimni tilga olding, ammo bu gapimni chayqab og'izga olmading. Sen agar hadislarini ko'proq o'qiganingda, mana bu rivoyat ko'nglingga muhrlangan bo'lar edi. Qulog'ingni och: Payg'ambarimiz shunday deganlar:

*«Odamlar halok bo'ldilar ilm olmaganlari uchun,  
Olimlar halok bo'ldilar amal qilmaganlari uchun,  
Omillar halok bo'ldilar ixlos qilmaganlari uchun,  
Ixlosda ham katta xatar bor.»*

Bizning millatda imon bor, e'tiqod bor, bilim bor, amal bor, iste'dod bor... Faqat ixlos yoq, ixlos! Ziyoli bian ziyoli, olim bilan olim, yozuvchi bilan yozuvchi, tarixchi bilan tarixchi bir-birini inkor etib tursa, millat millat bo'lolmaydi. Seningdek olimlarning ixlossizligi ustozlar bilan shogirdlar orasini, otalar bilan bolalar orasini buzadi, guruhbozlikni kuchaytiradi. Bu esa millatni parchalaydi. Millatning parchalanishi uning tanaz-zuli demakdir. Sening so'zlarining, bo'lувчилликни keltirib chiqaruvchi manmanliging meni kuydiradi, qon qiladi, bilsang. Yo tangrim, nima bo'lar ekan bu Ulug'bekning saltanati?!

**O'g'il:** — Ota, ko'p siqilavermang. Hammasi yaxshi bo'la-di. Hali oramizda hech gap yoq. Xudo xohlasa, tiklaymiz rasadxonani...

**Ota:** — Shunday bo'lsin, o'g'lim. Neki qilsang o'zing yo birov uchun emas, Olloh uchun, Haq uchun qil. Shunda men sendan rozi bo'laman.

**O'g'il:** — Xo'p, ota.

*(Quchoqlashadilar)*

*Parda.*

## ULUG'BEK VA SAFDOSHLARI

### QATNASHUVCHILAR:

Ulug'bek,  
Qozizoda Rumiy,  
G'iyo siddin Jamshid,  
Ali Qushchi.

*Voqeа 1430 yilda Samarqandda bo'lib o'tadi.*

Shahar madrasasining xonaqosida «Zamon Aflatuni» deb nom olgan va Ulug'bek rasadxonasing qurilishiga bosh-qosh bo'lgan to'rt buyuk olimdan biri — 58 yoshli Qozizoda Rumiy, shayx Nizomiy Ganjaviy kulliyotini varaqlarkan, qarilik haqidagi qasida ta'sirida mahzun o'ylatga cho'mib o'tiribdi.

**Qozizoda (Qasidani o'qiydi): —**

*Umr o'tloq'ida yurdim uzoq, helim bukik bo'ldi.  
Abadiyat bo'stonida menga endi nima qoldi?*

*Na meva, na soya beradurman odamlarga, tamom bo'ldim,  
Mevamni do'l urib ketdi, barglarimni yomg'ir qirdi.*

*Qomatim ketmon misol menga mozor qazar faqat,  
Soch-soqol kofur misol oqlik mavsumiga kirdi.*

*Kiyiklar oq' jun ostida qora mushk asragaydurlar,  
Vo ajabki, qora sochim mushklaridan oq sitildi.*

*Bir zamonlar ikki shoda yarqiroq dur shohibi erdim,  
Falak ammo xiyonatkor: ish qutim endi bo'shab qoldi.*

*Soqqalarim yulduzlarday chaqnoq erdi — xira tortdi,  
Porladi yulduzim, ammo muhtojlikda qaro bo'ldi.*

*Quyoshim botar payt ham yaqin qoldi. Boyqush kabi o'zim  
Mas'ud abad mulkiga uchgum — shundoq kunlar keldi.*

*(Xujra eshigi g'ijirlaydi. Ochilmagach, allakim taqillatadi.)*

Kim u?

**Ulug'bek:** — Men ustod, oching, men. Shogirdingiz Mirzo Ulug'bekman.

**Qozizada:** (Ovozda esankirash bilan): — Hozir, hozir...

*(Eshik zanjirini shiqirlatib, g'ijirlagan eshikni ochadi).*

**Ulug'bek:** — Assalomu alaykum, ustod. Omonmisiz, sog'misiz? (Qozizodaning qo'lini o'padi).

**Qozizada:** — Alhamdulilloh... Kunlar o'tib turibdi, shohim...

**Ulug'bek:** — Ne o'qiyotgan edingiz, ustod?

**Qozizada:** — Nizomiy qasidalarini.

**Ulug'bek:** — Qay qasidani masalan?

**Qozizada:** (hazin ovoz bilan o'qiydi):

*Quyoshim botar payt ham yaqin qoldi. Boyqush kabi o'zim  
Ma'sud abad mulkiga uchgum — shundoq kunlar keldi.*

*Hech kimsa meni yod etmas, chunki kuchdan qolgandurman,  
Do'st koriga borolmayman: Tangrim oyog'imni bemador qildi.*

**Ulug'bek:** — Nega mucha mahzunlik?.. Xastalik tu-faylimi? Xastalik har kimga ham keladi. Arzimagan narsaga bu qadar sinqlik sizday Aflatuni Zamonga muvofiqmu? Kasal degan narsa kelib-ketib turuvchi muvaqqat bir hodisa. Men, aksincha, hech hastalanmaydigan odamning qismatidan qo'rqib yuradurman. Aksar hollarda shundaylar bir zarbda dorulbaqoga ravona bo'ladurlar. Odatiy bemorlik — yashash uchun kuch yig'ishdir, shunday emasmi, ustod?

**Qozizada:** — Eh, shohim... Kasallikning har turi bor. Yolg'izlik kasali xususan... Bunday kasalga duchor bo'lgan odam yashagisi kelmaydi...

**Ulug'bek:** — Uch-to'rt kun bo'ldi siz ishga chiqmayot-ganlingizni payqaganimga. Dastlab, bir kor-hol bo'lgandir, dedim; qarasam, uchinchi kuni ham, to'rtinchi kuni ham yo'qsiz. Talabalardan so'radim, «kasaldurlar» deyishdi. So'ng sizni ko'rgani otlandim. Dilingizda biror ranj borligini bilsam, o'sha ondayoq kelardim. Ayting, nechuk bu yolg'izlik? Mana, Ollohga shukur, biz bormiz-ku olamda! Ne o'zi?

**Qozizada:** — Nimasini aytamiz, shohim. Siz jahonshumul ishlar bilan bandsiz. Bir yoqda davlat ishlari: Goh Chin elchilarini kutasiz, goh Mavorounnahr tinchini ko'zlab, yurt-ma-yurt kezasiz... Bir yoqda ayolot-u bola-chaqalar tashvishi:

Temuriylar xonadonining birligini tiklashga va saqlashga intilasiz. Bunday paytlarda ulamoning hayoti, ilmu fanning taqdiri nazaridan xorijda qoladi, shekilli?

**Ulug'bek:** — Nega undoq deysiz? Madrasaga ham, rasadxonaga ham kelib turibman. O'sha-o'sha haftasiga ikki marta «Al-Majastiyy», «Tazkira» va «Tuhfa»dan dars bermoqni kanda qilganim yo'q. Rasadxonadagi kuzatuv ishlari asta-asta jilib turibdi.

**Qozizoda:** — Mana, necha oydirki, Ali Qushchidan darak yo'q. Hech nima demadi. Bir so'z ham aytmadidi. G'oyib bo'ldi-ketdi.

**Ulug'bek:** — Ul farzand oldida bizning gunohimiz ne?

**Qozizoda:** — Kim biladi?..

**Ulug'bek:** — Siz bilishingiz kerak!

**Qozizoda:** — Men bilmayman. Bu yodqa G'iyosiddin Jamshid ham jimjit. Besh-o'n kunda Kosonga borib kelaman, otamni ko'rib qaytaman, degan edi. Mana, muhlat o'tdi. Na xat, na xabar...

**Ulug'bek:** — Bugun-erta kelib qolar. Uydag'i gap ko'cha-ga to'g'ri kelmaydi. Yo'l azobi — go'r azobi, deydi; kelib qolar, axir.

**Qozizoda:** — Yana bir mudarrisni ishdan haydabsiz, shohim...

**Ulug'bek:** — Afzaluddin Keshiyni aytasizmi?

**Qozizoda:** — Ha, shohim.

**Ulug'bek:** — Tog'oy O'kuz bir xat yozib berdi.

**Qozizoda:** — Xo'kuz emasmi?

**Ulug'bek:** — Yo'q, yo'q, o'g'uz, menimcha. Kesh taraflarida O'g'uzni O'kuz deb talaffuz qilishadi. Tog'oy O'kuz saltanatimiz xavfsizligi uchun qayg'urib yuradigan sadoqatli yigitlarimizdan. Uning yozishicha, Afzaluddin Keshiy, Temuriylarning qon dushmani sarbadorlar haqida risolalar o'qur erkan. Biz yo'g'imizda talabalarga ham so'ylar balki... Bizning tala-balaramizni mulkimizning sodiq fuqarolari qilib tarbiyalash bosh dasturiyalimizdur. Alarning qalbiga parokandalik urug'ini ekish saltanat uchun xatar demakdir.

**Qozizoda:** — Yo'q, shohim... Afzaluddin Keshiy imoni baquvvat mudarris. Bir-ikki risola o'qish birlan o'zgarib qoladurg'on toifadan ermas. Tariximizni butun ikir-chikirlari-gacha chuqur bilmox biz uchun farz. Sarbadorlar harakati nega tug'ulgonini ham bilmasak bo'lmas. Va balki bu harakat ichida bir mag'iz ham bo'lishi mumkin. Ul mag'izni olib, korimizga tatbiq etsak nima yutqazamiz, shohim? Nima uchun hamma narsadan isyon alomatini qidirmog'imiz kerak? Bir

fikr — bir fikr. Ikki fikr — ikki fikr. Yaxshisi olinadur, yomoni qoladur.

**Ulug'bek:** — Suvni suv buzadi, odamni odam. Toza suvnini loyqatmaslik ayni farzdur.

**Qozizoda:** — Mana, mening fikri ojizimni eshitib turib-siz, shohim. So'zlarim oqimni buzadigan so'zlarimi? Nima deb oylaysiz?

**Ulug'bek:** — Yoq. Siz boshqa, boshqacha odamsiz. Sizning gaplaringiz menga ham ma'qul. Ammo bir gapning o'zini ikki odam ikki xil ifodalashi mumkin. Biri daraxtga jon bersa, ikkinchisi endi gullagan niholni quritadi.

**Qozizoda:** — Siz Afzaluddinning ma'ruzasini eshitib ko'rganmisiz?

**Ulug'bek:** — Yoq. Ammo suhbatlashib, unda bir oz sarkashlik, qo'pollik ishoratlarini ko'rdim.

**Qozizoda:** — Unday desangiz, G'iyosiddin Jamshid ham shunday. Kamina ham goho o'zlarini tutolmaydilar.

**Ulug'bek:** — Har qalay mutavozelikda gap ko'p.

**Qozizoda:** — Yaxshi, shohim, biz endi qaridik. Bizni endi ma'zur tutasiz. Yoshlar ishlashsin ilm dargohlarida. Umaro ishlasin. Bizlar amakdor bo'lib, qolgan umrimizni nafaqa bilan o'tkazsak ham shukr qilurmiz.

**Ulug'bek:** — Yoq! Avvalo shogirdlik iltimosim. Soniyan (kulib, hazil aralash). Amir Temur himmatidan Ulug'bek so'zim: yorin madrasaga chiqing! Darsni davom ettiring! Afzaluddin Keshiy haqidagi farmonimni bekor qilamen! U ham ishga chiqsin! Men Afzaluddinni bemaslahat ishdan chetlaganim uchun sizdan uzr so'rayman, ustod. Boshqa bunday qilmayman.

*(Ulug'bek va Qozizoda quchoqlashadilar. Shu payt eshik  
g'ijirlab ochilib, G'iyosiddin Jamshid kirib keladi.)*

**Ulug'bek:** — Ana, Hizrn yo'qlasak ham bo'lar ekan. Ustod G'iyosiddin Jamshid keldilar! Qadamingizga hasanot, ustod!

(Salomlashish ovozlari: «Assalomu alaykum», «Vaalay-kum assalom», «Bormisiz», «Shukur», «Ziyoratlar qabul», «Murod hosil»...) Hozirgina Zamon Aflatuni — Qozizodai Rumiy sizdan xavotir olib turgan edilar.

**G'iyosiddin:** — Ey, shirin suhbatning beliga tepdim chog'i.

**Qozizoda:** — Yoq, yoq, G'iyosiddin. Tangrim o'zi guvoh: kelganingiz bag'oyat xushvaqt qildi bizni. Zap yaxshi bo'ldi. Xo'sh, xayot qanday Koshon tomonlarda?

**G'iyosiddin:** — Hammasi hamon eskicha. Qattiq sog'in-gan ekanman ona shahrimni. Harsang parchalari silliqlab yotqizilgan tosh ko'chalarda, shirin-shakar qovunlar, qizil va sariq oltinday anjirlar pishib yotgan bog'larda, sirma va kumush naqshli ipak ko'yaklar, ko'z qamashtiruvchi duxobalar sotilayotgan bozorlarda, koshiy chinnilar qoplangan silliq devorli imoratlar yoqalab obdan kezdim. Yurtim havosidan to'yib-to'yib nafas oldim.

**Qozizoda:** — Otangiz qandaylar? Ma'ruf al-Tabib al-Koshiy janoblari? Sog'salomat yuribdurlarmi?

**G'iyosiddin:** — Alhamdulilloh. Shahanshohim Ulug'bek Mirzo hazratlariga va siz muhtaram ustozga ko'pdan-ko'p salomlari bor... Agarchi, Samarcand anjirlari ham chakana bo'lmasa-da, «yurt isi» ma'nosida ozgina Koshon anjiridan ham berib yubordilar. (Tugunini yechib, o'rtaga anjit chiqarib qo'yadi). Marhamat qilsinlar...

**Ulug'bek:** — Bismillahir Rahmonir Rahim (yeb ko'radi) ajab, shuncha yo'lda urinmabdi ham, po'sti qalin bo'larkan-da u tomonda anjirlarning... Asal, asal...

**Qozizoda:** — At-Tabib deganicha bor ul zoti mukarramning otlarini... Bizga ma'qul bo'lishini bilib...

**G'iyosiddin:** — Ajab bir savdo... Samarcandga kelib-ket-gan koshonlik sayyoqlar padari buzrukvorimizga ajabtovur qiziq bir gaplarni yetkazibdurlar.

**Ulug'bek:** — Qanday gaplar ekan, ajabo?

**Qozizoda:** — Nima debdurlar?

**G'iyosiddin:** — Men go'yo bu yerda bosar-tusarimni bilmay qolgan ermushman. Shahanshohimizga qo'pol-quruq so'zlar aytarmushman... (Qozizodaga) Sizday ustodni mensimas ermushman.

**Ulug'bek:** — Yo alhazar, shu ham aytildurgon gap erkanmi?

**G'iyosiddin:** — Otam meni qattiq koyidilar. «Ota, undog' emas, gapimga quloq soling», desam, qani endi eshit-salar. Men padari buzrukvorimni tinchlantirmoqchi bo'lib, oramizda bo'lib turadurg'on kundalik bash-munozaralarimiz, bir-birimizga beradurg'on tanbihlarimiz, bir-birimizni tuzatish-larimiz borasida so'ylab bergen erdim, qoldim baloga. «Ana, aytganlari to'g'ri erkan!» «Hoy, sen kimsan o'zing?» «Shunday go'zal huylı Ulug' Sultonga qanday qilib bunday qo'pol so'ylaysan?!» deydilar.

**Ulug'bek:** (Hazillashib): — To'g'ri-da, nega menga qo'pol gapirasiz? Arpangizni xom o'rdimmi men sizning? (Haholashib kulishadilar).

**G'iyo'siddin:** — «Ota, bizning ustoz Qozizoda bilan bahslarimiz o'rtada sovuqlik bor, yovlik bor degani emas. Ustod bilan do'stligimiz mustahkam. Bir-birimizni yaxshi tushunamiz. Qozizodai Rumiy mening undan ustunligimni yaxshi biladi va aytganimni qiladi» desam (Ulug'bek bilan Qozizoda bir-birlari bilan ko'z urushtiradilar), qani endi gapimni oxirigacha eshit-salar! Yoq, men xudbin ekanman, men guruhboz ekanman, men o'ttani buzuvchi ekanman...

**Ulug'bek va Qozizoda** (shu ohangda): Biz bilmas ekanmiz.

(*Haholab kulishadilar. Shu payt eshik g'ijirlab ochiladi va Ali Qushchi kirib keladi.*)

**Uch olim** (baravariga qichqirib yuborishadi): — Ur qochqoqni! Ur yovni! Ur-ho, ur! Ura-ur-ura!

**Ulug'bek:** — Heyy, bu Ali Qushchimi, yo boshqasimi-a?

**Qozizoda:** — O'zingmisan, o'g'lim, Alijon... Alouddin, jonom bolam, bormisan? (Hiqillab yig'lab, quchoqlaydi.)

**G'iyo'siddin:** — Bormisiz, uka! Shunaqayam bo'ladi?

**Ali Qushchi:** — Azizu muhtaram va mukarram ustodlar... Agar imkon bo'lsa, kechiringlar meni... Kechiringlar men darbadar, bevosh, tuzlug'ining qadriga yetmagan shogirdingizni...

**Ulug'bek:** — Nima bo'ldi o'zi, tushunmadik, o'g'lim. Seni birov xafa qildimi, deymiz... Bir-birimizdan so'raymiz: «Ali Qushchiga hech nima demabmiding?» «Ali Qushchiga hech narsa demabmiding?» Nega ketding, o'g'lim?! Ayt! Nega ketding?! Seni jazolash uchun so'rayotganim yo'q. Ayt!

**Ali Qushchi:** — Bir qoshiq qonimdan keching, shohim.

**Ulug'bek:** — Shohing emas, otangman men...

**Ali Qushchi:** — Meni kechiring, ota... Bir kun shunday xayol keldi ko'nglimga! Men ulug' olimman deb o'yladim.

**Ulug'bek:** Ulug' olimsan, o'g'lim!

**Qozizoda:** — Ulug' olimsan, bolam!

**G'iyo'siddin:** — Ulug' olimsan, inim!

**Ali Qushchi:** — Ammo Mavorounnahrda shahan-shohimiz Ulug'bek Sultonday olim yo'q! Ulug'bek — shohlarning olimi, olimlarning shohi! Ulug'bek Ko'ragoniy dohiy olim! Biz esa bu dohiy soyasida yoq bo'lib, ko'rinxay ketishimiz mumkin, deb o'yladim. So'ng... o'zim — Tangrim

O'zi kechirsin menil Ulug'bek Mirzodan kam bo'limgan olim ekanligimni ko'rsatish uchun Samarcanddan chiqib ketdim. Karmanaga borib bilimimni oshirdim va Nosiriddin Tusiyning «Tajrid al-Kalom»iga «Shahri jadidi tajrid» yozdim. Risolam tabalar orasida «yangi izoh» sifatida katta shuhrat qozondi. Ja'loddin Darvoniy degan bir olim bu asarimga go'zal bir hoshiya ham yozdi. Bir qator o'lkalarda nomim tilga tushdi. Eronlik olimlar meni «sharhchi-tahrirchi» deb ta'riflay boshladilar. Ammo Amir Sadreddin va Sheroziy degan olimlar, asarlarimni qattiq tanqid ostiga oldilar. Asta-sekin ruhim tusha boshladi. Yozgim kelmay qoldi. Bir kuni do'stlarim bilan dardlashdim. Bedarak yo'qolib ketishdan, benomu nishon mahv bo'lishdan xavotir olayotganimni aytdim. Aqliy ilmlarim bir yodqa qolib, naqliy ilmlar bilan bog'lanib qolayotganimdan shikoyat qildim. Mening butun iste'dodim aqli ilmlarda ekanini bilishardi ular. Ammo tuzukroq bir kengash eshitmadim. Birov «Ishlayver, axir bir kun bir joydan yorib chiqasan», dedi. Birov «Naqliy ilmlarda ham hikmat ko'p, yoz, yozganing qoladil!» dedi. Biron odam Samarcandga qayt, demadi. Ko'nglim esa Samarcand osmonida uchar edi. Kunlardan bir kun kutilmaganda saroydan qanday ketib qolgan bo'lsam, huddi o'shandoq kutilmaganda yo'lga chiqdim... Mana, oldingizdaman. Gunohim bo'ynimda... Nima desangiz — shu!

**Qo'zizoda:** — O'tgan ishga salovot.

**G'iyo'siddin:** — Yoshlikda hamma ham bir adashadi.

**Ulug'bek (Kulib):** — Menga Karmanadan qanday hadiya olib kelding?

**Ali Qushchi:** — «Risolat hall al-ashkol al-Qamar» degan risola yozib keldim. «Ziji Ko'ragoni»ni tamomlashingiz asnosida qay bir jihatdandir, balki, madadkor bo'lar. Bu risolada men Oyning harakat davrlarini hal etganman. Boshqa hech vaqoim yoq.

**Ulug'bek:** — Yoningdami?

**Ali Qushchi:** — Yonimda.

**Ulug'bek:** — Ol! O'qi! Hoziroq eshitamiz.

*(Ali Qushchi kitobini ocha boshlaydi.  
Quvonchli musiqa ovozi yangraydi, so'ng  
musiqa ovozi pasayadi.)*

**Ali Qushchi** (risolani o'qiy boshlaydi): — «Oy Yer bilan Quyosh orasiga kirsa Quyosh yuzini to'sadi. Yorug'lik o'tmaydi. Qorong'i bo'ladi — bu holni «Quyosh tutildi», deydilar. Quyosh yuzidagi qorong'ulik Oyning soyasidur. Quyosh to'liq

tutilishi yoki qisman tutilishi mumkin. Bu hol Oyning Yer bilan Quyosh orasidagi holatiga bog'liq.»

«Yer oy bilan Quyosh orasiga tushib qolsa, Quyosh yorug'ligiga to'siq bo'ladi. Natijada oy o'z rangida ko'rilmaydi, mana shu holni «Oy tutilishi» deyurlar. Oy tutilishi ham goho to'la, goho qisman bo'lishi mumkin, har ikki holat ham oyning sharq tomonidan boshlanadi.»

**Ulug'bek:** — Bir lahza, janoblar.

**Qozizoda:** — Nima deysiz, shohim.

**Ulug'bek:** — Bu kun qaysi kun?

**Ali Qushchi:** — Hijriy 769 yilning Saraton oyi 15 kundir. Milodiy yil hisobi bilan qaysi yil bo'ladi, G'iyosiddin?

**G'iyosiddin:** — Buning javobini Beruniyning «Osor ulboqiya» kitobidan topish mumkin.

**Ulug'bek:** — Shart emas. Hijriy yilimizga 661 ni qo'shsak milodiy yil hisobi chiqadi. Demak bu qutlug' kun hijriy 769 yil, milodiy 1430 yil, yoz faslining qoq o'rta sidur, aziz do'star!

*Musiqa baralla yangray boshlaydi.*

*Parda.*

## **ULUG'BEK VA O'G'LI ABDURAHMON**

### **QATNASHUVCHILAR:**

Ulug'bek — 38 yoshda,  
Abdurahmon — Ulug'bekning o'g'li, 12 yoshda.

*Voeqa 1932 yil Samarqandda yuz beradi.*

*Samarqand saroyida Ulug'bekning oilaviy xos xonasi.  
Ulug'bek Beruniyning «Qonuni Mas'udiy» kitobini  
varaqlab o'tiribdi. Xonaga Abdurahmon yugurib  
kiradi. Ota quchoqiga otiladi.*

**Abdurahmon:** — Ota! Otajon!

**Ulug'bek:** — Kel, o'g'lim, Abdurahmonim. Ko'zimning qorasi, belimning madori, umidimning quyoshi.

**Abdurahmon:** — Nechun uyda kam bo'lasiz, ota? Yo saroyda, yo madrasada, yo rasadxonada yurasiz? Biz bilan hech gaplashmaysiz...

**Ulug'bek:** — So'yplashging keladimi, o'g'lim? Kel, gurunglashamiz. Mana, hozir qor yog'ib turibdi. Qish chillasi. Rasadxonada ish yo'q.

**Abdurahmon:** — Nega ish yo'q?

**Ulug'bek:** — Bunday qorbo'ronda osmonda nima ham ko'rinaridi?

**Abdurahmon:** — Ota, bilaman, yulduzlarni yaxshi ko'rasiz. Men ham yulduzlarni sevaman. Havo ochiq, osmon mosmoviy bo'lib turganda oqshomlari soatlarcha yulduzlarga qarab yetaman. Siz ham menday paytingizda yaxshi ko'rganmisiz yulduzlarni?

**Ulug'bek:** — Menmi? Men, balki, ilgariroq yaxshi ko'rgan bo'ssam kerak (xotiralarga berilib, jum bo'lib qoladi).

**Abdurahmon:** — Ota, aytib bering, qachon edi bu?

**Ulug'bek:** — Aniq yodimda yo'q, ammo juda ham kichkinligimda boborniz rahmatlik Sohibqiron Temur, Hamza ibn Ali degan bir yigitchani menga qissaxon qilib qo'ygandi. Men

sakkiz yoshimda bo'lsam kerak, Hamza og'o mendan o'n ikki yosh katta edi. Bobomizning o'z qissaxoni Ali ibn Tusiyning jiyani edi. Ali bobo derdim ul kishini. Ali bobo ham, Hamza og'o ham adolatli vaadolatsiz shohlar, qahramon shahzodalar, buyuk olimlar hayotidan g'aroyib qissalar aytib berishardi. Beruniy haqidagi hikoyalari hech esimdan chiqmaydi, u ham yulduzlarni sevarkan. Ali bobo: «Har bir yulduzning nomini, turar joyi, harakat chiziqlari, bir-biriga yaqin kelish va uzoqlashish vaqtolarini daftariga qayd qilib borardi», deganida mening xayolimda yulduzlar xuddi jonli mavjudotlarga o'xshab ko'rindi. Ular bilan gaplashish va sirlashish mumkin deb o'yardim. «Bir kuni Beruniylar uyiga Rum elidan mehmonlar kelibdi. Yosh Muhammad Beruniy yulduzlarning nomlari rumliklar tilida nima deb atalishini so'rab daftarchasiga yozib olibdi», deganda, «Men Beruniy bo'laman!» deb hayol qilardim. Axir o'zing o'yla, o'g'lim. U sendaylik paytidayoq daftarchasiga yuzlab yulduzlar qaysi tilda nima deb atalishini yozib olgan ekan.

**Abdurahmon:** — O'sha qissalardan keyin yaxshi ko'rib qolganmisiz yulduzni?

**Ulug'bek:** — Faqat bu emas... Hamza og'o ham arab va Rum munajjimlari haqida ko'p qissalar aytgan.

**Abdurahmon:** — Nima der edi?

**Ulug'bek:** — «Osmondag'i yulduzlar ko'p qirrali bo'lib ko'rindi-a?» derdi. «Ha» desam, «Aslida yulduzlarning qirralari yo'q, undan nur taralayotgani uchun qirrali ko'rindi. Mana, quyosh ham kungabogarday tojli ko'rindi. Ammo uning ham aslida toji yo'q. Taralayotgan nurlar tojli qilib ko'rsatadi. Aslida yulduzlar ham, oy ham, quyosh ham dumaloq, koptokka o'xshagan bo'ladi!» der edi. «Qayoqdan bilasiz, og'o?» desam, «Arab qissalarida yozilgan», der edi. «Yer ham aslida dum-dumaloq, quyosh yerning atrofida aylanadi» der edi. «Qo'ysangiz-chi, nima qilasiz meni aldab» desam, «Yo'q! Rost! O'zing o'qiganingda bilasan!» der edi. Keyin Beruniyni o'qidim. «Yer quyosh atrofida aylanadimi, quyosh yer atrofida aylanadimi — farqi yo'q. Ikkovi ham ayni harakat», deyilgan ekan Beruniyda. Mana, qo'limdag'i kitob. Bu ham Beruniyning asari — «Qonuni Mas'udiy» deb ataladi. Quyosh, oy, yulduzlar, taqvim, koinot qonunlari to'g'risidagi jahonda eng ko'p tanilgan kitob.

**Abdurahmon:** — Nega «Qonuni Mas'udiy»? Kim u Mas'ud?

**Ulug'bek:** — Bu kitob sulton Mas'udga taqdim qilingani uchun uning nomi bilan yuritilgan. Sulton Mas'ud, Beruniyga

bu ishi uchun mukofotga bir fil kumush tanga yuborgan. Beruniy o'zini pulga o'rnatmaslik, sulton oldida tili qisq bo'lmaslik va ilming obro'yini saqlab qolish uchun pulni olmasdan, saroyga qaytarib yuborgan. Men hozir ham shu kitobni yostig'im tagiga qo'yib o'qiymen.

**Abdurahmon:** — Yana nimalarni eslaysiz, ota?

**Ulug'bek:** — Bir kuni, sakkiz yoshdaligimda ulug' momiz Saroymulkxonim, Ali boboni ug'ruqqa chaqirtildilar. «Marog'a obdan ko'hna shahar ermish. Hamza ila Ulug'jonni olib horib, alarni tomosha qildirib kelsangiz», dedi momomiz qissaxonga. Ali bobo, Hamza ikkimizni Marog'a tomoshasiga olib ketdi. Chag'otu daryosini, Urmiya ko'lini, Marog'a shahri va uni o'tab turgan tog'larni ko'rdik. Qattiq shamol esayotgan edi o'shanda. Muhammad ibn Bois qasrini, Xoy, Morand, So'limas degan qishloqlarni kezdik. Keyin Marog'aning shimal tarafidagi baland bir tepalikka chiqdik. Doira shaklida qurilgan ulkan binoning xarobalarini ko'zdan kechirdik. Ali boboning aytishlaricha, o'shal tepalikda 200 yil burun rasadxona bo'lg'on erkan. Unda yuzdan ortiq munajjim yulduzlaru quyosh, oy va sayyoralarining holati va harakatini kuzatgan erkan. Alar Xitoy, Eron va Turon olimlari erkan.

**Abdurahmon:** — Rasadxona nechun vayron bo'lg'on erkan?

**Ulug'bek:** — Ul yurtlarda ham bizdagidek toju taxt uchun ur-yiqitlar bo'lib, birlari ikkinchilariga o't qo'yib obidayu osori atiqalarini yiqib, ikkinchilari tiklab ovorai sarson bo'lg'on chog'larida, buning ustiga zilzila ham bo'lib, oqibatda shunday bo'lg'on erkan.

**Abdurahmon** (ovozida xavotir bilan): — Ota, bizning mulkda ham tinchlik yo'q, qon-qarindoshlar orasidagi janjal-suronlardan rasadxona yiqilib ketmasmikin? Rasadxona haqida turli yaxshi va yomon gaplar eshitaman.

**Ulug'bek** (uning ovoziga ham xavotir ohangi qo'shiladi): — Olloh asrasin, o'g'lim... Qanday gaplar eshitasan?

**Abdurahmon:** — Ko'pchilik madhu sano aytadi. Ammo ora-sira «Bu osmon ilmi Ollohga daxldor ilm. Musulmon odam Ollohning ishlariiga qotishmag'ani ma'qul» degan gaplar ham sallallohu alayhi vasallam: «Chinga borib bo'lsa ham ilm o'rganinqlar» deb buyurganlar.

**Ulug'bek:** — Mutaassisiblarning gaplariga parvo qilma, o'g'lim! Hadisi shariflarda «Har bir musulmon erkak va ayoliga ilm o'rganish farz» deyilgan. Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam: «Chinga borib bo'lsa ham ilm o'rganinqlar» deb buyurganlar.

**Abdurahmon:** — Ota, gaplaringizdan bu dunyoda hech

bir narsa abadiy emasdek ko'rinadi. Arab osori atiqalari, Rum rasadxonalar ham, Marog'a rasadxonasi ham qolmabdi-ku yer yuzida! Bizning rasadxona ham bir kun yo'q bo'lib ketsachi?

**Ulug'bek:** — O'g'lim! Unday dema, yaxshi niyat qil. Yaxshi tilaklar tila! Har bir yurtning farog'ati va obodonchili-gi, u yurtda yaxshi va imonli odamlarning ko'pligiga bog'liq. Yaxshilar qancha ko'p va muqim bo'lsa, vafoli va sobit bo'lsa, yurt shuncha baxtli va obod bo'lq'ay.

**Abdurahmon:** — Ota, ba'zi bir kechalarda men uzoq yashamasam kerak, deb o'yayman. O'zim o'zimga xuddi katta yoshli odamlarga o'xshab ko'rinaman va xuddi meni kimdur o'ldiradiganday ko'rinadi. Yo'q, qo'rqlmayman, hech narsadan hayiqmayman. Faqat og'ir xayollar keladi.

**Ulug'bek:** — Olloh asrasin, unday dema, o'g'lim, har yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishtalar «Omin» deb yuborishi mumkin. Astag'firulloh.

**Abdurahmon:** — Ota! (Xo'rsinib) Rasadxonamiz qachon qurilgan va qanday qurilgan? Zilzila bo'lsa, dosh beradimi? Buzilmaydimi?

**Ulug'bek:** — Inshoollo. Rasadxona sen tug'ulgan yili bitgan, o'g'lim. Faqat osmon ilmlari emas, riyoziyot, handasa, al-jabr, tahiyot ilmlari asosida, jahon olimlari — ustoz Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi rahbarligi-da yer yuzining manaman degan ustalari qo'li bilan qurilgan. Bizning hisobga ko'ra, eng og'ir zilzilaga ham bardosh berishi kerak. Yana Olloh bilimdonroq.

**Abdurahmon:** — Ota, bu osmon yoritqichlarining yerdagi hayotga qanday aloqalari, qanday naflari bor?

**Ulug'bek:** — Falakiyot ilmi yerdagi hayotda, chunonchi, muhitni, ob-havoni bilish, kunlarning ish tartibotini belgilashda — dehqonchilikda, safarga chiqishda, bo'm-bo'sh sahrolarda yoki poyonsiz bahri muhitlarda yo'l tanlashda, bayramlarni belgilashda va boshqa ko'pdan-ko'p amaliy ishlarda insonga juda asqotadi.

**Abdurahmon:** — Ota, men ham munajjimlik kitoblarini o'qisam, anglarmikanman?

**Ulug'bek:** — Ha, Abdurahmon, anglaysan. Inson yozganini inson anglaydi. To'g'ri, oldin qiyinroq bo'ladi, ammo sekin-sekin, birin-ketin mag'zini chaqa boshlaysan, men ham sening yoshingda munajjimlik kitoblarini o'qiy boshlagandim. Bobomiz Sohibqironning Badriddin otlig' bir munajjimi bo'lar edi. Yulduzlarga marog'imni ko'rib, meni Ko'ksaroy kutubxonasiga olib borgandi va menga Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Nosiriddin Tusiy, Xorazmiy, Buzjandiy, Umar

Hayyom kitoblarini o'qi, degandi. Avval tushunishga qiyaldim, ammo keyin shunday kitoblarni o'qimasam jonim joyiga tushmaydigan bo'lib qoldi.

**Abdurahmon:** — Bu kitoblar bizda hormi, ota?

**Ulug'bek:** — Rasadxonamiz kutubxonasida 150 ming kitobimiz bor, o'g'lim. Qilichbozlik, nayzabozlik, tirandozlik darslaridan bo'sh vaqtlariningda mutolaa qil. Ko'ngling charog'on bo'lg'ay, o'zingni kuchli his qilg'aysan. Rasadxona kutubxonasi har vaqt sen uchun ochiq.

**Abdurahmon:** — Tashakkur, ota, o'qigayman.

**Ulug'bek:** — Endi senga ruxsat. Olloh baxtli umr va shonli hayot bersin. (Ezgin musiqa ovozi taraladi.)

*Parda.*

## **ULUG'BEKNING KULGUSI**

### **QATNASHUVCHILAR:**

**U lug'bek** — Buyuk olim, Mavorounnahr hukmdori.

**S a y y i d I m o m i d d i n** — Moliya ishlari vaziri.

**H o j a I s o m i d d i n** — shayxulislom.

**A b d u l m o m i n** — buyuk amir, Ulug'bekning do'sti, xotin tomondan qarindoshi.

**O lo v b e k** — mulozim.

**S h a m s i d d i n M u h a m m a d M i s k i n** — Samarqand shahar qozisi.

**S a i d k a r i m O l l o h d o d** — Ofarinkent tumani qozisi.

**M a l i k b e k** — Ko'xak tumani qozisi.

**A v a z** — kitobfurush.

**Y o 'l o v c h i** — o'g'ri.

**B i r i n c h i s a r b o z**.

**I k k i n c h i s a r b o z**.

**A r s l o n b e k B u q o** — tikuvchi.

**B i r i n c h i a r z g o 'y** — tujjar.

**I k k i n c h i a r z g o 'y** — oddiy fuqaro.

**U c h i n c h i a r z g o 'y** — yilqichi.

### **BIRINCHI SAHNA**

*Shahar darvozasidan kiraverishdagi yo'l ushti. Darvoza tomondan xurjun orqalagan A v a z shaharga kirib kelarkan, darvoza tomonga qarab shahardan chiqib ketayotgan xurjunki y o 'l o v c h i g a ko'zi tushadi va oshiqib uning yoniga keladi.*

**Avaz:** — Assalolamu alaykum.

**Yo'lovchi:** — Vaalaykum assalom.

**Avaz:** — Taqsit! So'raganning aybi yo'q. Xurjuningizdagini ma?

**Yo'lovchi:** — Nimaydi?

**Avaz:** — Bilgim kelyapti.

**Yo'lovchi:** — Yo'lingdan qolma!

**Avaz:** — Aybga buyurmang. Aystsangiz — bo'ldi.

**Yo'lovchi:** — Kitob. Bo'ldimi?

**Avaz:** — Kitob?! O'zim ham aytdim-a, kitobdir, deb... Nima kitob?

**Yo'lovchi:** — Aytsang — bo'ldi, deding. Aytdim. Yana nima ishing bor?! Men sendan so'rayotganim yo'q-ku, xurjuningda nima bor deb!

**Avaz:** — Taqsir! Oching xurjuningizni! Men nimaligini ko'rshim kerak!

**Yo'lovchi:** — Oldin o'zing ko'rsat!

**Avaz:** — Men shaharga kelyapman. Ko'rsatishim shart emas. Siz shahardan ketyapsiz. Siz ko'rsatishingiz shart.

**Yo'lovchi:** — Nega endi?

**Avaz:** — Shaharga boylik kirishi mumkin, chiqishi mumkin emas.

**Yo'lovchi:** — Hey, sen qanada xira pashshasan o'zi?

**Avaz:** — Og'zingizga qarab gapiring. Baribir ko'rsatmasangiz — ketkizmayman.

**Yo'lovchi:** — Qulog'ingning tagi qichib turibdimi, deyman.

**Avaz:** — Nima?!

**Yo'lovchi:** — Mana, nima!

*Yo'louchi Avazni bir urib yiqitadi. Avaz o'rnidan tura solib, jon-jahdi bilan yana yo'lovchiga yopishadi.*

**Avaz:** — Ko'rsatasan! Baribir ko'rsatasan! Ko'rsatmaganingga qo'ymayman.

**Yo'lovchi:** — Mana senga! Mana senga!

**Avaz:** — To'xta! Qayoqqa qochyapsan! To'xta, deyapman! Ovora bo'lasan!

*Bu ur-sur, shovqin-suronni eshitib, i k k i s a r b o z  
yugurib keladi va Avazni ham, yo'louchini  
ham ushlaydi.*

**Birinchi sarboz:** — Nima to'polon, nima shovqin?

**Yo'lovchi:** — He yo'q, be yo'q, mana bu esipast, menga xurjuningni ko'rsat deb tixirlik qiladi. Hey san kimsan o'zi?! Nega senga xurjunimni ko'rsataman?! Bojxona nozirimisan?! Sarbozmisan? O'z aravangni tortib, oyog'ingni sudrab yo'lingdan qolmay ketavermaysanmi? Nima qilasan katta odamlarning ishiga aralashib?

**Avaz:** — Buning xurjunini ko'ringlar... Noyob xazinamizni tashib ketyapti bu...

**Birinchi sarboz:** — Nima bor ekan xurjunida?

**Avaz:** — Dorussaltananing eng noyob kitoblari...

**Yo'lovchi:** — Kallasi aynagan, ko'rso'xta... Menda kitob nima qiladi?

**Avaz:** — Ishonmanglar gaplariga... Kitob bu, kitob! O'zi aytdi! Ochinglar xurjunini...

**Yo'lovchi:** — Taqsirlar! Bu ko'ppakning og'zini yopib, nariroq olib turinglar. Biz o'zimiz kelishib oladigan gap bor...

*Yo'lovchining bu sirli gapidan xavfsiragan ikkinchi sarboz uning ustiga bostirib boradi.*

**Ikkinci sarboz:** — Nima bor xurjuningda?

**Avaz:** — Nima bo'lsayam ko'tish kerak.

*Dovdiragan yo'lovchi Avazga tuhmat qila boshlaydi,  
ayni vaqtida sarbozlarni sotib olish umididan  
ham qaytmaydi.*

**Yo'lovchi:** — Xurjundagining yarmini menga ber, deydi bu iflos. Kim bu o'zi! Sizlar bu boshqa masala, sizlar bilan kelishish mumkin.

**Ikkinci sarboz:** — Taqsir! Siz kim bo'lasiz o'zi?

**Yo'lovchi:** — Qochgan ham «Xudo!» deydi, quvgan ham. Xudo deb yurgan bir bandaman.

**Ikkinci sarboz:** — Xurjuningdagi nima?!

**Yo'lovchi:** — Nima qilasiz boshni og'ritib endi... Kelishamiz, dedim-ku!

**Ikkinci sarboz:** — Bu yoqqa ol xurjanni! Ber, deyapman sengal! Qo'yvor!

**Yo'lovchi:** — Bu qanday zamon bo'ldi o'zi? Tinch keta-yotgan odamni o'z holiga qo'yasizlarmi, yo'qmi?! Dod! Voydod! Yordam beringlar! Zo'rlik qilishyapti!

**Ikkinci sarboz:** — O'chir ovozingni!

**Birinchi sarboz:** — Biz sizga hali hech nima qilmadik-ku!

*Janjal ustiga Mirzo Ulug'bek, Xoja  
Isomiddin va Abdulkomin kirib keladilar.  
Ularning ketidan yugurib Olovbek ham keladi va  
sarbozlarga yuzlanadi.*

**Olovbek:** — Chi gap, taqsirlarim?

**Birinchi sarboz:** — Kecha xazinadan oltin o'g'irlangan edi.

**Ikkinci sarboz:** — Bular xazinaga tushgan o'g'rilarga o'xshaydi.

**Birinchi sarboz:** — O'lja talashib turishganda qo'lga tushirdik.

**Ikkinci sarboz:** — O'lja talashib urushayotganlarida qo'lga tushirdik.

*Ulug'bek tutqunlarga razm solib qaraydi. Yo'louchining ko'zlariga tikiladi.*

**Ulug'bek** (sarbozlarga): — Bu — chindan ham o'g'ri. Hibsga oling. Sheriklarini aniqlang. Shayxulislom Hoja Isomiddin zudlik bilan fatvo chiqarib beradilar. Shundaymi, hojam?

**Isomiddin:** — Shunday, shohim!

**Ulug'bek:** — Paysalga solinmasin!

**Isomiddin:** — Ho'p bo'ladi, shohim.

**Ulug'bek:** — Siz esa, Said Imomiddin, hazinamizda yuz bergen bu hodisotdan nechun meni boxabar qilmadingiz?

**Imomiddin:** — Men eshitmagandim, o'limdan xabarim bor, bu gapdan xabarim yo'q.

**Ulug'bek:** — Ana xolos! Davlat moliyasini toza odamiga ishongan ekanman-u! Xazinadan oltin o'mariladiyu, moliya vazirining xabari yo'q.

**Imomiddin:** — Bu — bir falokat, shohim. Biz g'aflatda qolibmiz.

**Ulug'bek:** — G'aflat bilan falokat opa-singil: birga yashashadi, birga yurishadi. Sal silkinib oling, Sayyid Imomiddin. Bundan keyin yodingizda bo'lsin...

**Imomiddin:** — Quloq'im sizda, shohim...

**Ulug'bek:** — Har kuni xazina ahvolini bildiruvchi bir xabarnoma mening ish masoimda bo'lsin!

**Imomiddin:** — Tuzuk, shohim.

**Ulug'bek:** — Hozir esa bu o'g'rining hurjunidagi oltin bilan xazinadan o'g'irlangan oltinlarni qiyoslating.

**Imomiddin:** — Tuzuk, shohim.

**Ulug'bek:** — Sizga musoada, boravering, ishga kirishing.

*Ulug'bek: Avaz kitobfurushga yaqinlashadi.*

*Kutilmaganda u bilan quchoqlashib ko'rishadi. Davradan chiqib ketayotgan Imomiddin ularni bu ahvolda ko'rib ajablanib to'xtaydi.*

**Ulug'bek:** — (Imomiddinga): — Darvoqe, Sayyid Imomiddin, bul otaxonga kimxob to'n, bolalariga suyunchi va in'omlar berilsin!

**Imomiddin** (Bo'yinini qisib): — Tuzuk, shohim.

*Sayyid Imomiddin, Hoja Isomiddin, Avaz, yo'louchi va sarbozlar ketishadi.*

**Abdulmo'min:** — Sultonim! Bir o'g'riga — qattiq jazo, ikkinchisiga in'omlar... ehtiromlar. Sababini anglamadik.

**Ulug'bek:** — Birinchisi o'g'ri, ikkinchisi g'oyibona ustozimiz.

**Abdulmo'min:** — Shul eski chopon, isqirt odam qanday qilib sizday bakaram sultonga ustoz bo'ladi?

**Ulug'bek:** — Astagfirulloh! Aslo undoq demang. Libosga qarab baholash Nasriddin Afandining «le, choponim»ini eslatmaydimi sizga? Bilib qo'ying: Bul muhtaram zot Avaz kitobfurush bo'ladi. Bizning rasadxonamiz kutubxonasini shu kishi arjumand etgan. Aynan shu kishi shaxsan menga jahonning eng noyob kitoblarini keltirib beradi. Ustozligi shul ma'noda, Mudarrissu tolibi ilmlarga kitobdan ulug'roq ustoz bormi olamda! Avaz kitobfurush mehnatkash chumoliday olis-olis yurtlardan Samarcandga kitob tashib keladi. Kitoblarimiz Samarcanddan xorija chiqib ketishiga esa, qo'lidan kelgancha mone'lik qiladi. Diqqat qilgan bo'lsangiz, anavi o'g'ri oltinlarni sinchkovlik bilan taxlab, xurjunga kitobga o'xshatib solgan. Soddagina Avaz bechora, uning o'g'riliqidan bexabar, kitob olib ketyapti, degan andisha bilan xavotirlanib uni to'xtatgan, o'g'ri xurjunini ko'rsatmaganidan keyin, gumoni kuchayib, u bilan janjallahsgan.

Bundan ikki oy muqaddam Avaz mening qoshimga kelgandi. «Iroqda «Talvihot ut-tavzih», «Mavoqiy ul-kalom» degan nodir kitoblar bir xonadonda saqlanadi, deb eshitdim. Shu kitoblarni olib kelsam», deb Iroqqa borib kelish uchun bizdan yo'l sarfiyotlariga immod so'ragandi. Biz uning belini baquvvat qilib, yo'nga solgan edik. Boya ko'zimiz ko'zimizga tushishi bilan aytilgan o'sha kitoblar Samarcandga yetib kelganini angladim. Masalaning izohoti onday, amirim. «Bir o'g'riga — jazo, bir o'g'riga — in'om!» deng-a.

(Kuladi)

## IKKINCHI SAHNA

*Borgoh. U l u g' b e k y o l g' i z o ' t i r i b d i.*

**Ulug'bek** (o'zicha): — Kunimning aziz bir pallasi yana ilm dunyosidan xorijda o'tmoqda. Qanday alamlı hodisa bu. Nega inson vaqtini o'zi xohlaganiday idora qilolmas ekan? Voqealar girdobi bizni chirpirak qilib oqizib ketadi.

*Xonaga S a y y i d I m o m i d d i n k i r a d i v a Ulug'bekning masosiga hisobot daftarini qo'yadi. Ulug'bek uni varaqlaydi. So'ng Sayyid Imomiddinga yuzlanadi.*

**Ulug'bek:** — Kechagi gaplar to'g'ri ekanmi?

**Imomiddin:** — To'g'ri.

**Ulug'bek:** — Qancha oltin o'marilgan?

**Imomiddin:** — Besh yuz ming dinor atrofida...

**Ulug'bek:** — O'g'rida ham shuncha ekanmi?

**Imomiddin:** — Deyarli... Aftidan, darbozaga borguncha ozroq sarflagan ko'rindi.

**Ulug'bek:** — Kim ekan o'zi? Shaxsini bildingizmi?

**Imomiddin:** — Samarcandning gadoy topmas bir jinko'chasidan, bozorning orqa tomonidan Aziz o'g'ri degan taniqli bosqinchchi ekan. Uch sherigi bilan tun yarmidan oshganda, subh namozidan taxminan bir-ikki soat burun oyoqyalang g'azna tomonga kirib borishgan. Mirshablar uyquda. Mudrab o'tirgan xazinabonni bir urib, og'ziga latta tigishgan. Qulfini osongina buzib, ichkariga kirganlar. Vaqt tig'iz emasmi, tilladan imkon qadar olib, juftakni rostlashgan. To xazinaboning holini ko'rmaguncha hech kim hech nima bilmagan.

**Ulug'bek:** — Nima qildingiz? Sheriklarini tutdingizmi?

**Imomiddin:** — Oldin «Bir o'zim qilganman» deb turaverdi. Ko'zlariga mil tortmoqchi bo'ldik. Baribir aytmadni. Keyin nasha berib, dori ichirib, valdiratdik. Hozir to'rttovi ham zindonda. Shayxulislom qanday fatvo hersalar, o'shandoq ijro etamiz. Har qalay bundaylarni osib yuborish kerak.

**Ulug'bek:** — Jarchilar bu mash'um hodisot borasinda butun Samarcandga jar solsinlar. G'ozilarining fatvolariga rioyer qat'iy bo'lsin. Shariat hukmlaridan chetga chiqilmasin.

**Imomiddin:** — Tuzuk.

**Ulug'bek:** — Sarbozlarga armug'on bo'ldimi?

**Imomiddin:** — Sizning nomingizdan har qaysisiga bir zarbof to'n va bittadan dudama qilich layyorlatdik. Avaz kitob-

furushti ham juma namozi kuni butun jamoat huzurinda katta in'omlar bilan muborakbos etamiz. Uylariga ham sovg'a-salomlar yuborib, naq bayram qilib yuboramiz.

**Ulug'bek:** — Yashang. Ish bundoq bo'libdi! Endi, mavlono, ikkinchi bir masala: muhtaram qozimiz Shamsiddin Muhammad Miskin domlani chaqirtirdingizmi?

**Imomiddin:** — Ha. 15 daqiqalar ichinda kelib qoladilar.

**Ulug'bek:** — Unday bo'lsa, hozir amirimiz Abdulmo'mini chaqirtiring, kirsin!

**Imomiddin:** — Tuzuk. (Mulozimni chaqiradi). Olovbek! Hov Olovbek!

**Olovbek:** — Labbay, ulug' vazirim!

**Imomiddin:** — Abdulmo'minga ayting: shahanshoh huzuriga kirsinlar!

**Olovbek:** — Xo'p bo'ladi (Chiqadi).

*Borgohga A b d u l m a' m i n kiradi.*

**Abdulmo'min:** — Yo'qlagan ekansiz, shohim.

**Ulug'bek:** — Keling, o'tiring. Sizlarga bir gapim bor. Nima qilsam ekan... Maslahat beringlar... Bundan bir yil burun ulug' tujjorimiz Hidoyatboyga o'zimning 5 ming xoni yanga turadigan bir la'limgi va xazinamizning 10 ming xoni tangasini sheriklik savdo uchun bergandim. Shartimizga ko'ra, Ipak Yo'li sayohatidan so'ng, Hidoyatboy savdoda ko'rgan foydalaridan o'ndan bir ulushini qo'shib, pullarni qaytarishi kerak edi. Ammo yo'lda Ollohning irodasi bilan Hidoyatboy kasalga chalinibdi. Ulush u yoqda tursin, olgan pulini ham qaytarib berolmay olamdan o'tdi, rahmatlik.

**Abdulmo'min:** — Hidoyatboy bilan o'rtada ikki guvoh ishtrokida shartlashuv xati tuzganmidinglar?

**Ulug'bek:** — Tuzganmiz. Men muhtaram Qozimiz Shamsiddin Muhammad Miskin ga da'vogarlik arzi yozgan edim, shartnomani ilova qilib...

**Abdulmo'min:** — Xo'sh, xo'sh?

**Imomiddin:** — Miskin domla nima dedilar?

**Ulug'bek:** — Arzimizga qarshi hukm chiqaribdilar.

**Abdulmo'min:** — Nega endi?

**Imomiddin:** — Nima uchun? Pul olgani to'g'risida ikki guvohingiz...

**Ulug'bek:** — Mavlono Miskinning fikricha, mening saroy xazinasidan pul berib turishga haqqim yo'q ekan. Tushunmadim: nima, men podshoh emasmanmi? Agar podshoh bo'lsam, o'zim uchun emas, davlatim uchun, uni boyitish

maqsadida, xazinadan pul berib turolmaymanmi? Pul bekor turguncha, ishlab turgani yaxshi emasmi?

**Abdulmo'min:** — Davlat xazinasidan davlat manfaati uchun qarz berib turishga haqqingiz bor. Chunki siz davlat boshlig'isiz, podshohsiz. Boshqalarning bunday qilishga haqlari yo'q.

**Imomiddin:** — Pul bekor turguncha ishlab turgani ming bora afzal.

*Shu payt xonaga Samarqand shahrining qoziul quzzosi  
Sha msiddidin Muhammada Miskin kirib keladi.*

**Imomiddin:** — Assalomu alaykum, keling, domla! Yuqoriga o'ting.

**Abdulmo'min:** — Sog'ligingiz yaxshimi, uylar tinchmi, xizmatlar bilan charchamay yuribsizmi?

**Ulug'bek:** — Assalomu alaykum, ulug' ustoz! Sizni bezovta qilganimiz uchun aybga buyurmaysiz. Mening arizam borasinda masalaga oydinlik kiritib olsak degandim.

**Miskin:** — Bosh ustiga, shohim.

*Xonaga Olovbek kiradi.*

**Olovbek:** — Uzr, shohim.

**Ulug'bek:** — So'yла.

**Olovbek:** — Ikki-uch arzgo'ylar kelmishlar.

**Ulug'bek** (suhbatdoshlariga): — Bizning sunbatimizni keyin davom ettiramiz... (Olovbekka) Arzgo'ylarni navbati bilan huzurimizga kiritaver!

**Olovbek:** — Xo'p bo'ladi, shohim!

*Mulozim chiqadi. Birinchi arzgo'y — tujjor qariya kiradi.*

**Birinchi arzgo'y:** — Assalomu alaykum, saodatli shohim! Sizday olimu fozil mulki sultonni bevaqt bezovta qilayotganim uchum ma'zur tutgaysiz.

**Ulug'bek:** — So'ylang, taqsirim! Qulog'im sizda!

**Birinchi arzgo'y:** — Bir g'aroyibdan-g'aroyib hol, sultonim... Men Samarqand fuqarosi emasman. Bundan bir oy muqaddam Iroqdan kelayotgandim. Xuroson karvoni bilan shu tarafga yo'l soldim. Karvon Ko'hak daryosi bo'yida to'xtagan-da, men xolitoq joyga horib, kiyimlarimni yechdim. Bir bo'lak qimmatbaho la'llim bor edi, bir parcha charmga o'rab, bilagim-

ga bog'lab yurardim. Shuni ham yechib, kiyimlarim ustiga qo'ydim-da, suvgaga tushdim. Jismim poklanib, ruhim orom olib, kayfiyatim chog', qirg'eqqa chiqdim. Qarasam, kiyimlarim ustidagi la'l'm yo'q: yerga kirdimi, osmonga chiqdimi, bilmayman. Sohilga biron zot kelmag'an edi. Karvon ahlidan surishtirdim. Hamma hayron. Men ham hayronman. Hech bir tarafdan hech bir tomonga hech bir odam o'tgani yo'q. G'oyat ajablanarli hol. Bo'lgan gap shu... Bir oy davomida arz qilishdan orlandim. Sizning elga hech qanday da'voyim yo'q. Samarqand fuqarosi imonli xalq — buni yaxshi bilaman. Ammo bu sinoatda qanday illat va yo hikmat bor — bilgim keladi. Siz ulug' olim va munajjimsiz, balki siz yecharsiz buni. Yana bir bor meni ma'zur tutgaysiz, bokaram sultonim...

**Ulug'bek:** — Siz biron kun sabr qilishingizga to'g'ri kela-di, tujjor xojam. Ertaga shu paytlarda huzurimizga yana bir keling. La'lingiz topilsa, nur ustiga a'lo nur, topilmasa bir narsa deyolmayman. Ahvolni bir o'rganib ko'raylik.

*Birinchi arzgo'y chiqadi. Ulug'bek Sayyid Imomiddin bilan hayronlikda javonlar yoniga yaqinlashadilar.*

**Ulug'bek** (Imomiddinga): — Qalamrovimdag'i barcha soliqlar hisob-kitob daftalarini oling-chi. (Imomiddin soliq daf-talaridan birini olib Ulug'bekka uzatadi. Ulug'bek daftarni varaqlaydi.) Mana bunga qarang, mavlono. Men kecha ham shu narsadan ajablangan edim: Qorako'l mahallasidan Arslonbek Buqo o'tgan yili ham, undan avvalgi yili ham mol daromadi solig'iga 50 tangadan bergen ekan. Bu yil esa bundan bir haftagini burun 500 tanga topshirgan. Shu odam bilan so'ylashib ko'raylik.

**Imomiddin:** — Tuzuk.

**Abdulmo'min:** — Ha, bu yerda bir gap bor.

**Miskin:** — Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur?

*Honaga mulozim kiradi.*

**Olovbek:** — Shohim! Navbatdag'i arzgo'y kiraversinmi?

**Ulug'bek:** — Kiraversin.

*Xonaga i k k i n ch i a r z g o' y kiradi.*

**Ikkinch'i arzgo'y:** — Shohim! Yaqinda men Rumga safar qilgan edim. Yonimda ortiqcha besh ming ashrafiy mablag'im bor edi. O'stabaga solib, og'zini mumlab qozimizga omonatga qoldirgan edim. Safardan qaytgach, omonatni so'rasam, qozi

domla menga «Devonamisan, men seni hech qachon hech qayerda ko'rmaganman. Qayta bu aifsonani tilga olmagilki, buyur-sam, tishlaringni sindirib, tilingni sug'urib olishadi!» deydi.

**Ulug'bek:** — Qayerda turasiz?

**Ikkinchি arzgo'y:** — Ofarinkent tumani, Kandakorlar mahallasida.

**Ulug'bek:** — Unday bo'lsa, gap bunday, taqsirim: Ertaga shu mahalda qabulimga yana bir kelasiz. Men o'shal qozini bu yerga chaqirtiraman. U mening huzurimga kirishi bilan orqasi-dan siz ham kirim kelasiz va arzingizni takrorlaysiz. Hozir qaytib ketavering.

**Ikkinchি arzgo'y:** — Umringizdan baraka toping.

*Ikkinchি arzgo'y chiqadi. U ch i n ch i a r z g o' y kiradi.*

**Uchinchi arzgo'y:** — Shohim, men Ko'hak daryosiga oqib keladigan Iskandarbuloqqa yaqin joyda Maschoh tog'lari etagida turaman. Yilqiboqarman. Ikki yuz yilgim bor. Bizning tuman qozisi Malikbek hech gapdan hech gap yo'q yigirma yilqimni tortib oldi. Buloq haqi emish. Bu qandoq zulm, shohim?! Ollohnning bulog'i bo'lsa bu! Buloq haqi ham bo'ladi-mi hech zamonda?!

**Ulug'bek:** — Ahvolni tushundim, yigit. Ertaga men shu mahalga qozingiz Malikbekni chaqirtiraman. Siz ham keling. Birgalikda bu masalani ko'rib chiqamiz. Hozir sizga — javob.

*Uchinchi arzgo'y chiqib ketadi.*

**Ulug'bek:** — Said Imomiddin! Ertaga huddi shu paytda Qorako'i mahallasidan Arslonbek Buqoni huzurimizga taklif eting! Siz esa, mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin! Ofarinkent va Ko'hakdag'i qozilaringiz Saidkarim Ollohdodni va Malikbekni chaqirtiring — ertalab huzurimizda bo'lishsin! Amir Abdulmo'min! Ko'zlarining qayoqda? Nima bo'lyapti o'zi?!

**Abdulmo'min:** — Miskin domlaki shohning arziga qarshi hukm chiqarib turgandan keyin hoshqalardan nima kutish mumkin?

**Ulug'bek:** — Said Imomiddin! Olovbekka ayting: shayx-ulislon ham kirsinlar!

**Imomiddin:** — Olovbek! Hov Olovbek!

**Olovbek** (tashqaridan): — Labbay, taqsir.

**Imomiddin:** — Hoja Isomiddinni chaqiring.

**Olovbek:** — Ho'p bo'ladi.

*Borgohga Hoja Isomiddin kiradi.*

**Ulug'bek:** — Keling, o'tiring. Gapning qisqasi shulki, men Hidoyatboyga besh ming tanga turadigan o'z la'lismi va hazinamizdan o'n ming tangani bergandim. Savdoga sheriklik uchun. Hidoyatboy olamdan ko'z yumdilar. Men u kishining farzandlaridan olingen mablag'ni undirib berishni so'rab, Miskin domlaga ariza bergandim. Sharhnomha va guvohlik xatlari bilan birga. Ammo Miskin domla qarzdan voz kechishimni talab qilib hukm chiqaribdilar.

**Isomiddin:** — Nega endi? Hidoyatboyning oxirati kuyadi-ku! «Sahihi Buxoriy»da shunday hadis bor: «Abu Hurayra raziyallohu anho rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: «Zimmasidagi qarzni to'lashga qodir odamning qarzini ataylab to'lamay yurishi qarz bergan odamga nisbatan zulmdir! Garchi qarz bergan odam qarziga muhtoj bo'lmasada, uni uzmoglik zarur».

**Imomiddin:** — Qarzni bermaslik bu zulm. Zulm qiyomat kuni zolimning boshiga balo bo'ladi!

**Abdulmo'min:** — Bu qanaqasi bo'ldi, mavlono? Axir har bandai mo'minning janozasi o'qilganda aytildi-ku: agar marhumning qarzi bo'lsa, hujjat bilan va kamida ikki guvoh bilan kelinsa, marhumning vorislari qarzlarini qaytarib beradi. Agar vorislar bu mas'uliyatni zimmasiga olmasa, marhumning janozasi o'qilmaydi-ku! Nega endi, sizningcha, ulu'g shohimiz bu haqlaridan iste'foda etmasinlar! Adolat hammaga bir xil bo'lishi kerak: shohga ham, gadoga ham. Menimcha, siz, Miskin domla, shohimizni kamshituvchi hukm chiqazgansiz.

**Isomiddin:** — Mavlono, shohimizning gunohi nima?

**Imomiddin:** — Domla! Qaysarlik qilganingizning sababi ni bilsak bo'ladiimi?

**Miskin:** — Qaysarlik emas, shariat bu! Birinchidan, bir shaxsning savdosi uchun davlat xazinasidan on ming tanga tugul, bir tanga ham olish mumkin emas! Shohga ham, gadoga ham. Ikkinchidan, hatto davlat manfaati yo'lida ham qarz ustidan ulush olish islom dinimizda taqiqlangan. Chunki bu ulush emas, foyizdur. Bu savdo shirkati, deyilgan taqdirda, savdo ishida sheriklar haravariga mehnat qilgan bo'lishi kerak. Qarzdan kechish masalasiga kelsak, Qur'oni Karimda «Bergan qarzingizni sadaqa qilib yuborish o'zingiz uchun yaxshiroqdir» deyilgan. Men shohimga «yaxshiroq» bo'lishini istagandim.

**Abdulmo'min:** — Shunday yaxshilikdan uch-to'rttasi bo'lsa dushmanning ham keragi yo'q. Axir ulush bilan foizni farq qilish kerak!

**Imomiddin:** — Shohimiz o'z shaxsiy la'lini ham qarz bergan-ku?!

**Isomiddin:** — Davlat hoshlig'ining davlat xazinasidan davlat ma'nfaati uchun foydalanmasligi mumkinmi?

**Miskin:** — Men fikrlarimni hukmda yozganman. Boshqa gap ortiqcha. Yo'q, sizlar agar ko'plashib shohimizning foydasiga hukm chigarishimga majburlayotgan bo'lsanglar, oyoq-qo'limga bog'lab, shu sovuq havoda anavi hovuzga botirib-botirib, sho'ngitib-shong'itib olinglarki, men sal es-hushimni yig'ib olay... Keyin hukmmimni o'zgartirib berishim mumkin...

*Ulug'bek haholab kuladi.*

**Ulug'bek:** — Hah-ha-ha! Zang'arning qapini qarang. Nomardning gapini qarang: «suvga sho'ng'itib-sho'ng'itib oling» deydi-ya! Hay mayli... Bilganingiz... Kechdim haqimdan... Lekin oramizda shunday jasur qozi borligidan xursandman.

#### UCHINCHI SAHNA

*Oradan bir kun o'tgan. O'sha borgoh. O'sha qabulxona.*

*U lug'bek, Sa id I mom i d d i n, Ho ja*

*I s o m i d d i n, A b d u l m o ' m i n, S h a m s i d d i n*

*M u h a m m a d M i s k i n arzlarni muhokama qilish  
oldidan bahslashib o'tirishibdi.*

**Ulug'bek:** — Taqsirlarim! Bu, deyman, adolat va haqiqat degan tushunchalar ham zap alomat ekan-dal Bir qarasangiz, osmon qadar ilohiy va yuksak bo'lib ko'rindi. Ammo bir qarasangiz, adolat bilan haqsizlikning va haqiqat bilan yo'l-g'onnинг orasi bir enlik ham kelmaydigandek tuyuladi menga. Chin va Hind ellarida, Farang va Ispon yurtlarida qarz ustidan ulush olishning hech bir aybi yo'q deb eshitaman. Turli elchilardan surishtirib ham bildim. Ammo bizning shariatda foiz olish yasoq qilingan. Ulush bilan foizning farqi yo'qmikin? Ulush bilan foiz birmi? Qur'onni Karimda «Agar oralarinigizda yurg'izib turgan naqd savdo bo'lsa, uni qayd etmasangiz-da gunoh yo'qdir» deyilgan. Balki, savdo ishida ulush olish — bu foiz olish emasdir? Agar ulush ham foiz bo'ladigan bo'lsa, bizza foiz ta'qiqlangan, boshqalarda yo'q. Olloh meni kechirsin, men aniq bilmayman qay biri to'g'ri... Men doim, bizning shariat to'g'ri yo'lda, deb o'ylayman. Lekin o'zga ellarning davlatlari foiz va ulush tufayli boyib borayotganlari ko'rini turibdi. Balki, aslida biz haqdirmiz. Foiz bilan topilgan davlat davlatlik qilmas, balki. Biroq bizning qonun-qoidalar insoniy-roq ekanligi shubhadan xoli, albatta.

**Miskin:** — Mening hukmim ko'ngligizni og'ritgan ko'ri-nadi, shohim. Modomiki, bu narsa hamon xayolingizdan chiq-mayotgan ekan, sizdan yashirilgan bir sirni ochay. Biz ulug' amir Abdulmo'min bilan kelishib, taqsirimning iltimoslari bilan gapning bu tomonini aftar-daftар qilmagan edim. Masala shundaki, Hidoyatboy karvon yo'lida qaroqchilarga uchragan. Mol-mulki talangan, savdoda orttirgan boyliklari tortib olin-gan, o'zi kaltaklangan. Karvon it kunini ko'rib, Samarqandga arang yetib kelgan. Hidoyatboyning o'g'il qizlarida qarz-laringizni qaytargulik hol yo'q.

**Ulug'bek:** — Abdulmo'min, do'stim! Nega mendan bunday hodisalarni yashirasizlar? Bobom Amir Temur zamonida karvon yo'llari tinch edi. Davlat g'aznasi u yodqa tursin, biron kishining do'konini o'g'ri bosolmas edi. Hamma uylar tinch-hotirjam edi. Sababi shahar dorug'alari va hokimlaridan mas'ullik talab qilinardi. O'g'rilik hodisasi yoki qaroqchilik sodir bo'lsa dorug'a-hokimlar javob berar, o'g'ri topilmasa, qaroqchi tutilmasa, dorug'aning qo'li kesilib, o'g'rining o'tniga o'zi jazolanardi. Mening aybim nima? Jazoni shariat yo'lida, qonun-qoidalar asosida berdirayotganimmi? Hega o'g'rilik saroygacha yetib keldi? Hega karvon yo'llarida qaroqchiliklar boshlandi? Abdulmo'min! Qaroqchilik yuz bergen joyga eng kuchli, mohir navkarlar qo'shilmashini yo'llang! Biz ham endi jazolarni kuchaytirmasak bo'lmaydi shekilli!

*Xonaga mulozim kiradi.*

**Olovbek:** — Shohim! Qorako'l mahallasidan Arslonbek Buqo farmoningiz bilan yetib keldilar!

**Ulugbek:** — Kirsin!

*Arslonbek Buqo kiradi*

**Arslonbek:** — Assalomu alaykum, shohim. Yo'qlagan ekansiz.

**Ulug'bek:** — Keling, Arslonbek! Sog'liklar... Bola-chaqa omonmi? Men kecha Sayyid Imomiddin bilan soliqlar daftarinib ko'rib o'tirib, bir hodisotdan ajablandim. Qo'rwmang, hech gap yo'q. Amмо bizga tushuntirib bering. Siz o'tgan yili mol daromadi solig'i uchun 50 tanga to'lagansiz, to'g'rimi?

**Arslonbek:** — Shunday, shohim.

**Ulug'bek:** — Bu yil esa, yaqginginada 500 tanga to'labsiz. Sababi nima? Biror kishining uyini urdingizmi, biron narsa topib oldingizmi yoki manglayga kutilmagan meros bitdimi?

**Arslonbek:** — Shohim! Men tikuvchiman Samarcandning Qorako'l mahallasida turaman. Lekin Ko'haksoy bo'yidagi bir qasabada tuzukkina bir saroyim bor, o'rtasida bir daraxt o'sadi. Bir kuni qarasam, shu daraxtning shoxida tumshug'ida go'shtga o'xhash narsa, bir zag'izg'on o'tiribdi. Bir mahal og'zidagi matohi tushib ketdi. Sapchib borib qarasam — bir parcha charm! Ichidan la'l chiqdi. «Bu — Oollohning inoyati» deb o'yladim. Samargand bozoriga olib borib, bir javhariyga ko'rsatdim. Ko'zi chiqib ketdi. «Buning bahosi ming tanga» dedi u. Men u bilan savdolashdim. Xullas, bir yarim ming xoniy tanga berdi. Suyunib ketib bir gilam, ro'zg'or buyumlari, egar-jabdug'i bilan bir ot xarid qildim. Bu sirning tagiga yetmoqchi bo'lganlarga: «Falon joyda bir qarindoshim bor edi, mendan boshqa vorisi yo'qligidan boyligini qoldiribdi» — dedim. Hamma ishondi, ammo o'zimning ko'nglim xira edi. Shunda davlatimiz xazinasiga xayriya qilib soliq qatori berdim.

**Ulug'bek:** — Yurtimiz kamolini o'ylaganingiz uchun ming bora tashakkur. Sizday kishilarni ko'rGANIMDA Jonim yayraydi. Baraka toping. O'sha javhariyni taniysizmi?

**Arslonbek:** — Albatta.

**Ulug'bek:** — Tujjor kelgan bo'lsa aytinglar, kirsin!

*Kechagi Birinchisi arzgo'y tujjor kiradi.*

**Ulug'bek:** — Sahovatli tujjor hojam! La'lingiz topildi. Uni o'g'irlagan zag'izg'on' ekan. «O'g'ri zag'izg'on'» deganlaricha bor. Endi gap bunday, Said Imomiddin Arslonbek qo'li toza, ko'ngli sof insonligini ko'rib turibsiz. Shunday emasmi, Miskin domla?

**Miskin:** — Arslonbekka «barakalla» deyishdan boshqa so'zimiz yo'q!

**Ulug'bek:** — La'l topgandan so'ng o'ziga qilgan xarajatlari o'ziga qolsin. Nima dedinglar?

**Ovozlar:** — To'g'ril! To'g'ril!

**Ulug'bek:** — Qolgan tangalatini qaytarib beradi.

**Arslonbek:** — Gap yo'q, shohim!

**Ulug'bek:** — Siz esa, Said Imomiddin, soliqqa to'langan 500 tangadan 450-ini g'aznadan oling-da, Arslonbek qaytargan pulga qo'shib, javhariyga yubortiriting, u tujjorning la'lisini qaytarib bersin!

**Imomiddin:** — Tuzuk, tuzuk.

**Tujjor:** — Davlatingiz va umringiz bundan ham ziyoda bo'lsin, ulug' shahanshoh! Ijozat bersangiz, Arslonbekning

o'ziga qilgan xarajatlarini men ko'tarsam... So'ng davlat xazinasiga suyunchi tarzida 50 tanga iona qilsam...

**Ulug'bek:** — Shart emas. Bizning xizmatimiz xolis. Haq Taolo uchun.

**Tujjor:** — Shubham yo'q. Ammo, ulug' Sulton, o'z odamizga ko'ra, boyligimni topib bergan xolis insonlarga xohlaganimcha suyunchi berolmasam, nima degan odam bo'laman. Ra'yimni qaytarmang. Ulug' Sulton! Men ham bu dunyoda savobtalab bir insonman...

**Ulug'bek:** — Undoq desangiz — mayli. Xayr. Yurtimizga kelib turing.

*Tujjor bilan Arslonbek chiqadilar.*

**Ulug'bek:** — Bilasizmi, taqsirlar... Men hozir bir yulduzning o'tni topilganday sevindim... Sayyid Imomiddin! Abdulmo'min! Istiqbolda Arslonbekni saroyga olishni o'ylab qo'yinglar!

*Mulozim kiradi.*

**Olovbek:** — Shohim. Ko'hak turman qozisi Malikbek shu yerda! Kirsinmi?

**Ulug'bek:** — Kursin. Anavi yilqiboqar ham kirsin!

*Oldin Malikbek, ketidan uchinchi arzgo'y kiradi.*

**Malikbek:** — Assalomu alaykum, ulu'g shohim! Yo'qlagan ekansiz.

**Ulug'bek:** — O'tir! (Uchinchi arzgo'yga murojaat qiladi) Qani, yigit, kechagi arzingni takrorla-chil!

**Uchinchi arzgo'y:** — Men Maschoh tog'lari etagida yilqi bogaman. 200 yilqim bor. Qozi janoblari 20 yilqimni torlib oldilar. Iskandarbuloqdan suv ichgani uchum olinadigan soliq emish.

**Ulug'bek:** — Malikbek! Shu gap to'g'rimi? Bizda soliqning bunday turi yo'q, shekilli?! Sayyid Imomiddin! Yo siz shunday soliqni ta'sis qilganmisiz?

**Imomiddin:** — Yo'q, shohim!

**Ulug'bek:** — Malikbek! Bu qanday gap?

**Malikbek:** — Men... men... davlatimiz xazinasini o'ylab...

**Ulug'bek:** — Kim buyurdi senga?! Nega o'zboshimchalik qilasan? Taqsirlar! Eshitinglar! Amir Temur himmatidan

Ulug'bek so'zim: yozing! Farmoni oliv: Bu kun Ko'hak tuman qozisi Malibekning soqolini qirib yuziga qora surtib, qo'liga band solib, navkarlar yetagida Samarqand bozorlari, sergavjum maydonlar va mahallalar bo'yab kezdirilsin! Ijroni hozirlang!

**Imomiddin:** — Tuzuk, tuzuk, shohim!

**Malikbek:** — Shohim! Sharmisor etmang! Tavba qildim. Boshqa bunday qilmayman. Bir marta afu eting! Tiz cho'kib yolvoram.

**Ulug'bek:** — Tur o'rningdan, oriyatsiz, betavfiq! Badnafs! Yurtbexabar! El bezdiruvchi nomard!

**Malikbek:** Haqini beraman, afu eting, tavba qildim.

**Ulug'bek:** — Haqini shundog'am berasan! Qozilik qilmaysan! Bilib qo'y! Olib chiqing buni!

**Abdulmo'min:** — Farmoningiz farmon, shohim... Faqat andak bir istihola bor. Bir qoshiq qonimdan kechsangiz...

**Ulug'bek:** — Yonini olmoqchimisiz?

**Abdulmo'min:** — Yo-q... Andisha uldirki, bozor to'la turli odam... Muhojirlar, horijlik tujjorlar, fisqu fasodga o'ch munofiqlar... Davlatimizni badnom qilib, dunyoga gap tarqatishlari mumkin...

**Ulug'bek:** — Mavorounnahrda tartib qattiq ekan, deyilsa, buning nimasi yomonu niması uyat?!

**Abdulmo'min:** — Shohim, tinchlik-xotirjamlikka nima yetsin? Bilaman, bu betavfiq o'sha yigirma yilqini shundoq yonboshimizda yuradigan Ortig Jallobga keltirib bergen. Hoziroq borib, yilqilarini qaytarib olsin. Agar sotib yuborgan bo'lsa, pulini olib kelsin. Jazo berish qochmas...

**Malikbek:** — Ijozat bering, shohim! Hoziroq yo haqini, yo yilqilarini keltirib beraman.

**Ulug'bek:** — Mayli, yigitni rozi qil! Bo'lmasa gapim gap.

**Malikbek:** — Bo'pti, shohim... Ho.. hozir keltiraman.

*(Malikbek otolib chiqib ketadi, Abdulmo'min yilqichi  
yigitning oldiga boradi.)*

**Abdulmo'min:** — Endi, yigit siz uyingizga qaytavering. Yilqilar yo ularning haqini mendan olasiz. Bu yog'ini o'zim kelishitraman.

*(Uchinchi arzgo'y chiqib ketadi. Mulozim kiradi.)*

**Olovbek:** — Shohim! Ofarinkent tuman qozisi Saidkarim Ollohdod!

**Ulug'bek:** — Kirsin.

*(Saidkarim Ollohdod kiradi.)*

**Oollohdod:** — Bizni yo'qlabsiz, shohim. Boshimiz ko'kka yetdi.

**Ulug'bek:** — Saidkarimbek! Sizga bir ishimiz tushadi-ganga o'xshaydur.

**Oollohdod:** — Jon ustiga, shohim.

**Ulug'bek:** — Mening bir talay javohiru la'llarim bor. Shularni sizga omonatga qoldirsam, degandim. O'lganimdan so'ng bolalarimning holi mushkullashsa, bir kuniga yarat... Sizday diyonatli odamni topish qiyin, deb sizni chaqirtirdim. Bu gapni shu yerdag'i 5 kishi — sizu bizu Oollohdan bo'lak hech kim bilmasa.. Nima deysiz?

**Oollohdod:** — Jonim bilan. Bosh ustiga.

*Shu payt xonaga i kkinchi arzgo'y kiradi.*

**Ikkinch'i arzgo'y:** Shohim! Bir qoshiq qonimdan ke-ching. Ma'zur tuting.

**Ulug'bek:** — Nima gap o'zi, taqsir?

**Ikkinch'i arzgo'y:** — Huzuringizga qozi domlamiz Saidkarim Oollohdod kelganlarini ko'rib qolib, yugurib keldim va mulozimning qarshiligiga qaramay beiжozat kirdim.

**Ulug'bek:** — Biron gapingiz bormi?

**Ikkinch'i arzgo'y:** — Mazkur qozi domlaning uyiga bir omonat — besh ming ashrafiy mablag'ni oftobaga solib, og'zi ni mumlab...

*Oollohdod rangi o'chib, ikkinchi arzgo'yning gapini bo'ladi.*

**Oollohdod:** — Devona bo'ldingmi? Tiz cho'kishing nimas? Menda bo'lgach, omonatingni mendan so'ramaysanmi? Turibdi unda...

**Ulug'bek:** — Mayli Saidkarimbek... Berib yuboring omonatini...

*Oollohdod va ikkinchi arzgo'y chiqadilar.*

**Ulug'bek:** — Rangi o'chganini qarang! Oyog'i qaltirashi-ni qarang! Dovdirashini qarang! Mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin! Siz dunyo ko'rigan odamsiz. Ilmli-bilimli dono qozilarimizdansiz. Bilaman, qalbingiz toza, haq yo'lidagi xolis bir siymosiz.

**Miskin:** — Juda ham unchalik emas.

**Ulug'bek:** — Yo'q, siz taqvoli, pok ruhli kishisiz. Ammo,

ayting qo'l ostingizda shunday nopoq qozilar ishlashiga qanday chidaysiz?

**Miskin:** — Endi nima desam ekan... Bu kishilarni qozilikka do'stingiz Abdulmo'min tavsiya qilganlar. Men ular bilan kelishib ishlashga majburman. Chiqishmasam bo'lmaydi. Ho'kizning shoxiga ursang tuyog'i zirqiraydi.

**Ulug'bek:** — Abdulmo'min! Siz mening qarindoshimsiz: muhtarama malikamizga tog'avachcha bo'lasiz. Yaqin do'stim siz hamda jo'ramsiz. Sizgaki ishona olmasam, kimga ishonishim kerak? Nega siz tavsiya qilgan insonlar to'g'ri insonlar emas? «Va tavasov bil haqqi» oyatini unutdingizmi? Ulug' Kitobda «to'g'rilikni tavsiya qiling» deyilgan. Og'ir mansablarga end to'g'ri kishilarni ko'tarish kerak. Boyagi Arslonbekka o'xshagan. Xoja Isomiddin! Nega siz hech indamay o'tirasiz? Shayxulislomsiz, axir!

**Isomiddin:** — Men nima deyishim mumkin? Hamma aytgan gaplaringiz, qilayotgan ishlaringiz to'g'ri.

**Ulug'bek:** — Ho'p, kechagi o'g'rilarga qanday hukm chiqardingiz?

**Isomiddin:** — Shariat buyurganiday, maydonda xaloyiqning ko'z o'ngida bir qo'lini kesish to'g'risida fatvo berdim.

**Ulug'bek:** — Balki, umrbod zindonband qilish va eng og'ir ishlarga — chunonchi, temir eritish, po'lat quyish, aslahha yasash, tosh yo'nish kabi ishlarga qo'yib ishlatalish afzalroq bo'larmidi?

**Isomiddin:** — Unday qilsak ham bo'ladi!

**Ulug'bek:** — Men sizga mulohaza uchun aytyapman. (Abdulmo'minga yuzlanib) Abdulmo'min, qani, siz tashqariga chiqib qarang-chi sevikli shogirdingiz Malikbek qozi otlarni keltirdimikin?

*(Abdulmo'min chiqadi.)*

Mening hech qaysingizda xusumativ yo'q. Ollohga ayon, to'g'ri ishlasanglat bo'lgani. Ochig'ini aytsam, shu ikki kun ichida uch kishining ishidan g'oyat mamnun bo'ldim: Avaz kitobfurush, tikuvchi Arslon Buqo va saltanatimizning faxri bo'lgan Shamsiddin Muhammad Miskin. Atroida shunday kishilarning borligi kishiga ilhom baxsh etadi. Boshqalarining ishlaridan, ochig'i, ko'nglim to'lmadi.

*(Abdulmo'min kiradi.)*

**Abdulmo'min:** — Malikbek qaytmabdi, shohim. Bir kishi yuboribdi.

**Ulug'bek:** — Yilqilar nima bo'libdi?

**Abdulmo'min:** — Buncha ot berishga holi yo'q emish. «Soqolimni kesa qolsinlar, men roziman» debdi.

(*Ulug'bek birdan ha-holab kuladi*)

**Ulug'bek:** — Ko'rdingizmi, Sayyid Imomiddin? Eshitdingizmi, Xoja Isomiddin? Soqolini kestirishga ham rozi... Besoqol bo'lsa bo'lsin, otlar qo'ldan chiqmasin... Mana, qozilar tomoshasini ko'ring, mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin! Ko'ringlar! Nima qilsanglar o'zlarin qilinglar! Men aralashmayman ilos ishlarga!. Men rasadxonaga ketdim... Pokiza dargohimga... Yulduzli osmonimga... Ali Qushchining yoniga. «Soqolimni kesa qolsinlar, men roziman...» depti-ya. Vah-ha-ha! Van-ha-ha!

(*Ulug'bek sahnadan chiqib ketarkan,  
kulgu ovozi ham uzoqlashadi.*)

*Parda.*

## **MAQOLALAR**

### **ULUG'BEK BA UNING BOLALARI**

Birlashgan Millatlarning ta'lif, fan va madaniyat sohasidagi tashkiloti — «YUNESKO»ning qarori bilan 1994 yil — Ulug'bek Yili deb e'lon qilindi. Jahon falakiyot ilmiga bebahohissa qo'shgan buyuk olimimiz va muqaddas vatan — Turkistonimizning benazir hukmdori Muhammad Tarag'ay — Ulug'bekning 600 yillik to'yini faqat bizning mustaqil mamlakatimizda emas, butun dunyoda keng nishonlandi va tantanali anjumanlar o'tkazildi.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 1394 yildan 1449 yilgacha davom etgan 56 yillik umri davomida 5 o'g'ilu yetti qizning otasi bo'lgan edi. Birinchi qizi Habiba Sulton tug'ilganda Ulug'bek 18 yoshda edi. U paytlarda Turkiston Mavorounnahr deb atalar, boshkenti Samarqand edi. Ulug'bekning otasi Shohruh, onasi Gavharshodbegim, Xurosonda yashardilar va Xurosonning boshkenti Hirot shahri edi. Saroy qoidalariga ko'ra, Habiba Sulton Hirotdagi Gavharshodbegim tarbiyasiga beriladi va ikki yoshida vafot etadi. Men, Habiba Sulton otiona mehriga to'ymay, ichikishdan vafot etgan, deb taxmin qilaman. Ulug'bekning keyingi qizlarining nomlari Oqboshbegim, Sultonbaxtbegim, Qutluq' Turkonog'a, Tag'o Turkon, Og'o To'g'on va Robiya Sultonbegim bo'lgan. Ulug'bekning ular bilan muomalasi haqida tarixiy ma'lumotlar yo'q. Faqat kenja qizi Robiya Sultonbegim, Ulug'bekning fojiali va alamli halokatidan keyin, 1451 yilda ko'chmanchi o'zbeklarning xoni Abulxayrxonga uzatilgani ma'lum. Abulxayrxon Robiya Sultonbegimni Turkistonga olib ketgan va undan ikki o'g'il ko'rgan. Kattasi Ko'chkunchixon, kichigi Suyunchixon bo'lib, ular tarix sahnasida ko'p ishlar qilganlar.

Ulug'bek Mirzoning to'ng'ich o'g'li Ibodullo 5 yoshida vafot etgan, ikkinchi o'g'li Abdullo 14 yoshida, uchinchi o'g'li Abdurahmon 12 yoshida vafot etishgan. To'rtinchi o'g'li Abdullatif 1428 yilda tug'ilgan bo'lib, buvisi Gavharshodbegim qo'lida tarbiyalangan. Garchi ilm-fanlarga ishtiyoqi baland,

hatto she'rlar yozgan bo'lsa ham, manman tabiatli va qaysar bo'lgan. U, otasi Ulug'bekning yonida yashashni istagan. Ulug'bek esa, otasi Shohruhning taxti unga qolishini istagan va Hirotda turishiga tarafdar bo'lgan.

Beshinchchi o'g'li Abdulaziz Samargandda, Ulug'bekning ko'z ostida ulg'aygan. Ulug'bek o'zi ota-onasidan yiroqda, bobosi Sohibqiron Temurning yonida, buvisi Saroymulkxonim tarbiyasida ulg'aygan.

Ulug'bek tug'ilganida Sohibqiron Temur Qosqozdag'i Mordin qal'asini qamal qilib jang olib borayotgan edi. O'g'li Shohruh farzand ko'rganini eshitib, suyunchisiga Mordin xalqining moli va jonidan kechadi, yangi nevarasiga o'z otasining ismini qo'yadi, ya'ni uni Muhammad Tarag'ay deb ataydi.

Temur, Muhammad Tarag'ayni juda yaxshi ko'rardи, chunki jajji nevarasi nimjon bo'lsa ham, sinchkov va xotirasi kuchli, jovillagan, sersavol bola edi. Chunonchi, u yulduzlarни yaxshi ko'rар, ularni sanagan sanagan edi. Xalq rivoyatiga qaraganda, u bir kuni akasi bilan gap talashib qolgan. «Ho'v anavi yulduz meniki» degan eng yorug' yulduzni ko'rsatib. Akasi esa «Undoq dema, gunoh bo'ladi, bu Xudoning yulduzi» degan. Ikki aka-uka Temurning qoshiga borganlar. «Xudoning yulduzini meniki deyapti» degan akasi. «Nima, Xudo bitta yulduzni menga bergen!» deydi Muhammad Tarag'ayga. «Ha, mayli, o'sha yorug' yulduz Muhammad Tarag'ayga bo'la qolsin. Xudo rahmlи va rahmon. Bittasini Muhammad Tarag'ayga berishi mumkin» degan bobosi.

Ulug'bek, menimcha varrak uchirishni ham sevgan. Varrakning uchishi haqida mulohaza yuritib «Meni ham shamolda varrakning dumiga osiltirib, osmonga uchirishlari mumkin» deb gapiргan. «Yulduzlarni qisimlab ushlab ko'rsa, qo'l kuyarmikin?» deb so'rigan. «Qo'lchodir ko'tarib, tomdan pastga, qorlar ustiga sakrasa bo'lmaydim?» deb aytgan. Men shunday deb hisoblayman. Bobosi, Muhammad Tarag'ayning zehni va sinchkovligiga qarab, «Bu Ulug' bek bo'ladi» degan va «Ulug' bek!, Ulug' bek!» deya chaqira boshlagan. Bora-bora hamma uchun ham u «Ulug'bek» bo'lib ketgan.

Mehrga to'ygan odam buyuk va mehribon bo'ladi. Ulug'bek zakosining saxovatida bobosi bilan momosining ayricha mehri muhabbati katta rol o'ynagan.

Ulug'bekning o'zi ham bolalarga katta mehrli bo'lgan. O'g'illari Abdullo va Abdurahmondan umidi katta edi, ularni o'ziday ma'rifatli qilib tarbiyalamoqchi edi. Ular bilan go'yo tengdoshday samimiyl gaplashar, fikru xayollarini aniq fanlarga

jalg' etar edi. Ammo Ulug'bek farzandlar borasida tole'siz edi. Bu bolalari yoshlikda o'lib ketdi. To'rtinchchi o'g'li Abdullatif zakovatili, jasur, tadbirkor edi, lekin injiq, qaysar, o'z so'zli, pand-nasihatga quloqsiz, hayotga qo'ygan tarozi toshlari o'ziga hisbatan kattaroq edi. Shuning uchun Ulug'bek uni, garchi ota sifatida o'z qanotida olib yurgan bo'lsa ham, chin yurakdan sevmas edi. Asosiy ixlosi beshinchi o'g'li Abdulazizda edi, ammo u ham ulg'ayganda aqli-hushli bo'lindi. Saroy odatlari ta'sirida o'yinqaroq bo'lib chiqdi, bosayotgan qadamining oqibatini o'ylamaydigan, mulohazasiz yigit bo'ldi. Buning sababi, Ulug'bek bolalariga ko'p vaqt ajratolmagani, ilmiy va idoraviy ishlar bilan band bo'lgani deb o'ylayman. U, otalik mehrini bolalariga to'yib-to'yib sarflay olmadi. Shogirdi Ali Qushchini «O'g'lim» deb atashining sababi ham ana shunda; o'g'illariga sarflay olmagan otalik hissiyotlarini butun faoliyati davomida yonida yuradigan Ali Qushchiga baxshida etgandi. Ali Qushchi bekorga buyuk olim bo'lib yetishgani yo'q.

Ulug'bekning to'rtinchchi o'g'li Abdullatif toju-taxt uchun o'z otasini o'limga mahkum etdi va ukasi Abdulazizni ham qatl qildirdi. So'ng o'zi ham olti oy keyin otasining sodiq shogirdlari o'qidan halok bo'ldi.

## ULUG'BEKNING ASARLARI

Bu kungacha o'zbek olimlari Ulug'bek qalamiga tegishli besh asarni aniqlaganlar:

1. Sharqshunos olimimiz Azamat Ziyoning yozishicha, Muhammad Amin Buxoriy «Tarix muhiti» kitobida Mirzo Ulug'bek nog'oralarda chalinadigan Tabriziy, Buluiy, Shodiyonai Ulusiy, axloqiy, usuli ravn yo'llari haqida risola yozganligini ma'lum qilgan. Hozircha Ulug'bekning bu asari nima deb atalganligi va saqlanib qolgan-qolmadanligi aniq emas.

2. Sharqshunos olimimiz Ashraf Ahmad, Ulug'bekning «Risolai Ulug'bek» degan kitobi bo'lganligini aniqladi. Olimimizning aytishicha, Ulug'bekning bu risolasi Hindistondagi Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi. Bu risola hali butunlay o'r ganilmagan.

3. Ashraf Ahmad 1975 yilda Ulug'bekning «Bir daraja sinusini aniqlash to'g'risida risola»si bo'lganligini ham aytgan edi. Uning fikricha, avvallari bu risola Qozizoda Rumiyyniki deb hisoblangan. Masalan, rus sharqshunos olimi Rozenfeld shu fikrda bo'lgan. Keyinchalik u Ashraf Ahmadning tarixiy dalillari bilan tanishgach bu fikridan qaytgan. So'ng bu ikki olim birgalikda bu asar Ulug'bekning ekanligini e'lon qilganlar.

1983 yilda Berlin va Qohirada bu risolaning to'la nusxasi borligi aniqlandi va ruschaga tarjima qilindi. Asar hali o'zbekchada chiqmagan.

4. Akademik Bo'riboy Ahmedov Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» degan kitobi bo'lganligini isbotlab berdi. Olimlarimiz Naim Norqulov bilan Majid Hasanov bu asarni o'zbekchaga tarjima qildilar va u kitob holida nashr etildi. Kitob so'zboshisini yozgan Bo'riboy Ahmedov «To'rt ulus tarixi» XIII—XIV asrlarda hukmronlik qilgan ulkan hudud tarkibiy qismlari bo'lmish Ulug'yurt, Jo'chi, Halokuiylar va Chig'atoy uluslari tarixiga bag'ishlanganligini, turk va mo'g'ul qavmlari haqida ma'lumotlar berilganligini yozgan.

5. Ulug'bekning eng muhum asari «Ziyji jadidi Ko'ragniy»dir. Bu haqda ko'p ma'lumotlar e'lon qilingan va kitoblar nashr etilgan. Akademik Qori Niyoziy rus tilida «Ulug'bekning astronomik maktabi» nomli kitob yozgan. Akademik Ibrohim Mo'minov «Ali Qushchining bir risolasi haqida» nomli maqolasida «Ziyj» haqida ma'lumot bergen. Ammo «Ziyj» ustidagi ishni muhtaram olimimiz Ashraf Ahmad adog'iga yetkazdilar. Va asarni o'zbek va rus tillariga tarjima qilib, to'la tavsiflab berdilar. Olimimizning yozishlaricha, bu asar muqaddima va to'rt kitobdan iborat. Muqaddimada Ulug'bek Qur'on oyatlari va hadislar bilan falakiyot fanining zarurligini isbotlaydi. Birinchi kitob so'zboshi va yetti bobdan iborat. So'zboshida har xil kunlar — masalan, haqiqiy va o'rtacha kunlar, turli xalqlarda kun boshini aniqlash usullari, tekis va egri saatlar nimaligi to'g'risida izohlar berilgan. Muchallar bo'yicha vaqtini qanday o'lhash mumkinligi tushuntirilgan. Yetti bobda esa hijriy, yunoniy va forsiy eralarda yil hisoblari va bu eralarni bir-biriga o'tkazish yo'llari haqida; Malikshoh Alp Arslon nomi bilan atalgan «Malikiy» erasi, shuningdek, Xitoy va Turkistonda vaqt o'lhami, mazkur kunlar va bayramlar to'g'risida fikr yuritilgan.

Ikkinci kitob yigirma ikki bobdan iborat bo'lib, asosan matematika, sferik falakiyot, matematik geografiya va qisman yulduz ilmi masalalariga bag'ishlangan.

Uchinchi kitob o'n uch bobdan iborat bo'lib, ularda sayyoralar harakati va qo'zg'almas yulduzlar masalasi ko'rilgan. Kitob so'ngida sayyoralar harakati jadvali va yulduzlar katalogi keltirilgan. Bu jadvallar Ulug'bekning 30 yillik uzluksiz kuzatishlari mahsulidir va ularda 1014 yulduzning sferik joylari berilgan.

To'rtinchchi kitob to'la yulduzlar ilmiga bag'ishlangan. Ashraf Ahmadning yozishchicha, kimki bu kitobni sinchiklab

o'qib chiqsa, o'rta maktabni bitirgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniyning «Tafhim» va «Qonuni Mas'udiy» kitoblari bilan ham yaxshi tanish bo'lsa, inson tole'idan aniq karomatlar chiqarishi mumkin emish.

«Ziyiji jadidiy Ko'ragoni» asari o'zbek, rus va ingliz tillarida keng izohlar bilan ta'minlanib, Toshkentdag'i Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyotida nashr etildi.

## BAROQXON KIM BO'LGAN?

Boshkentimiz Toshkentda Baroqxon madrasasi bor. Bu madrasa XVI asrda qurilgan bo'lib, O'zbekiston hukumati tomonidan muhofaza qilinadi. Hozir u yerda O'zbekiston diniy ishlari boshqarmasi joylashgan. XVI asrda yashagan Baroqxon kim va bu madrasa nima uchun Baroqxon deb ataladi?

BAROQXONning haqiqiy ismi Navro'z Ahmadxondir.

BAROQXON — Mirzo Ulug'bekning evarasi.

BAROQXON — Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegning nevarasi.

Mirzo Ulug'bekning yetti qizi bo'lgan edi, Robiya Sultonbegim ularning kenjasи edi. Ulug'bek va Abdullatifning sojiali o'limidan keyin, 1451 yilda Samarcand taxtini Abusaid Mirzo egallaydi va Robiya Sultonbegim Shayboniylardan Abulkayrxonga uzatiladi. Abulkayrxon va Sultonbegim ikki o'g'il ko'radilar: ulardan birinchisi Ko'chkunchixon, ikkinchisi Suyunchixon edi. Baroqxon Suyunchixonning kichik o'g'lidi. U 1525—51 yillarda Toshkent xoni, 1551—56 yillarda Mavorounnahr xoni bo'lgan.

Baroqxon yoshligida Vosifiyga shogird tushgan. Vosifiydan she'riyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan ta'lim olgan. Chavandoziik va harbiy mashqlar bilan ham mashg'ul bo'lgan. Baroqxon nomi bilan tanga pullar zarb etilgan. Baroqxon obodonchilik ishlariiga katta e'tibor bergen, madrasalar qurdig'an. «Baroqxon madrasasi» shular jumlasidandir.

Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarida aytilishicha, Baroqxon 1556 yili Zarafshon daryosidan boshlangan Darg'om arnasi (kanali) ning bosh inshooti Ravotxo'ja to'g'onini tuzattirish uchun kelgan va shu yerda to'satdan valot etgan.

Baroqxon davrida Mavorounnahr ila Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Sibir o'rtaida savdo-sotiq, elchilik munosabatlari rivojlangan.

## TEMUR HAQIDA RIVOYATLAR

### 1. FIL

Oqshaharda Temur boquvga bir fil qo'ygan edi. Fil dalada erkin aylanib yurar, odamlarning ekinlarini payhon qilar edi. Kichkintoylar uni ko'rganda onalari yoniga dodlab qochardilar. Bir kuni dehqonlar qishloq oqsoqolini o'rtaga olib Temurning huzuriga fildan arz qilib bormoqchi bo'ldilar va ertasiga Temur saroyiga yo'l oldilar. Oqsoqol orqasidan o'n-o'n besh vakil kelayotganiga ishongan holda to'g'ri saroyga kirib borardi. Vakillar esa Temurning oldiga kirkani qo'rqib, bir-bir yo'lda qolib keta boshladilar. Oqsoqol devonga kirib borganda orqasiqa qarasa, bir juftgina vakil qolgan edi. Ular ham kelishilgan gaplarni aytmay, mum tishlab turaverishdi.

- Keling, oqsoqol, — dedi Temur. — Nima gap?
- Oqsoqol ham, vakillar ham duduqlanib, dovdirashar edi.
- Gapiring, — dedi Temur.
- Sulton janoblari, fil... — yana nafaslari ichga tushdi.
- Nima fil? Gapiring! — Achchiqlandi Temur.
- Oqsoqol bir fikrga keldi va sayray ketdi:
- Sulton janobi oliylari, qishlog'imizga iltifot qilib bir fil yuborgan ekansiz...
- Ha, ha bir fil yuborgan edingiz deyishdi dehqonlar.
- Shu filingiz yolg'izlik qilib siqilib qolganga o'xshaydi, — dedi oqsoqol.
- Siqilib qolganga o'xshaydi, — deyishdi vakillar.
- Unga bir o'rtoq kerakka o'xshaydi — dedi oqsoqol.
- O'rtoq kerakka o'xshaydi, — deyishdi vakillar.
- Bir tilagimiz bor, shuni yerda qoldirmasangiz, — dedi oqcoqol.
- Iltimos, iktimos, — deyishdi vakillar.
- Filga bir o'rtoq yuborsangiz.
- Shumi? Bor yo'g'i shumi? Bo'pti! Yuboraman! — dedi Temur va haholab kuldii.
- Kelganlarning odob va axloqidan xursand bo'lib yangi to'n va sarpolar in'om etdi.

### 2. AFANDI MERGAN

Afandi bir tillaga muhtoj bo'lib, Amir Temurdan so'ragani saroyga bordi. Borsa, Amir arkning maydoniga hamma tirandozlarini yig'ib, kimki shu o'qni nishonga tegizsa, 100 tanga

in'om oladi, deb turgan ekan. In'omni olish uchun musobaqa boshlandi. Lekin hech qaysi merganning o'qi nishonga tegmadi. Afandi sekin Temurning yoniga borib, bir tanga so'radi. Temur unga qo'lidagi o'q-yoyini tutqazib:

— Qani, siz ham omadingizni sinab ko'ring-chi, — dedi.

Afandi yoyni tortib o'jni otgan edi, o'q nishonga borib tegdi. Temur xursand bo'lib Afandini toza maqtadi-da va'da qilin-gan yuz tangani berdi. Afandi tangalarni sanab hamyoniga sol-di. Ammo Amir Temurga qarab turaverdi.

— Ha, tag'in nima qilib turibsiz?

— Haligi so'raganimning javobini kutyapman.

— Oladiganingizni oldingiz-ku, axir!

— Buni men menganligimga oldim! Amo hojatim uchun so'ragan bir tangamni olganim yo'q. Temur haholab kulib yubordi-da, Afandini yana bir tilla berib jo'natdi.

### 3. SADOQAT

Amir Temur bir kuni Afandiga dag'dag'a qildi:

— Sen nima desang til uchida aytasan, menga sodiq emas-san!

— Yo'q, xoqonim, — dedi Afandi, — men sizga juda sodiqman.

— Qani, — dedi Temur, — gaping rost bolsa, shu hovuz-ga o'zingni ot!

— Ho'p, — dedi Afandi, o'rnidan turib va ko'cha eshigi tomon yo'naldi.

— Ha, qayoqqa? — dedi Temur.

— Bاليقchi o'rtog'imnikiga borib suzishni o'rganib kelay!

## MUNDARIJA

### *Maktab sahnasi uchun darstar*

Buxoriy darsi . . . . .	3
Zamahshariy darsi . . . . .	19
Qodiriya qasabasi va Abdulqodirning to'g'riso'zligi . . . . .	26
Qardoshlik yo'llarida (Yassaviy) . . . . .	29
Temuriylar haqida bahs . . . . .	45

### *Temur va uning yaqinlari haqida hikoyallar*

Temur va Mullo Alibek . . . . .	54
Ikki Temur . . . . .	55
Temurning bolaligidagi to'rt qilig'i . . . . .	58
Temur va chumoli . . . . .	58
Temur beklarining matonati va sadoqati to'g'risida . . . . .	59
Temurning nabirasi Xalil Sultanning bahodirligi to'g'risida . . . . .	60
Qahramonlar ham qo'rqqan . . . . .	61
Temurning nabirasi Ulug'bekni qanday yaxshi ko'rgani to'g'risida . . . . .	62

### *Ulug'bek haqida p'yesalar*

Ota va o'g'il Koshiylar . . . . .	64
Ulug'bek va sadoshlari . . . . .	72
Ulug'bek va o'g'li Abdurahmon . . . . .	80
Ulug'bekning kulgusi . . . . .	85

### *Maqolalar*

Ulug'bekning bolalari . . . . .	104
Ulug'bekning asarlari . . . . .	106
Baroqxon kim bo'lgan? . . . . .	108

### *Ilova*

Fil . . . . .	109
Alandi mergan . . . . .	109
Sadogat . . . . .	110

1000v

MIRAZIZ A'ZAM  
**ENG YORUG' YULDUZLAR**

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2002

*Muharrir Erkin Malik  
Musavvir Xurshid Ziyorxonov  
Badiiy muharrir Qayrat Akchulakov  
Texnik muhartit Ra'no Boboxonova  
Kompyuter ta'minotchisi Tatyana Ogay  
Musahhih Sh. Xurramova*

Terishga berildi 20.04.2002. Bosishga ruxsat etildi 23.07.2002. Bichimi  
84x108 <sup>1/32</sup>. Antigua garniturasi. Oliset bosma. Sharflı bosma tabog'i 5,9.  
Nashriyot hisob tabog'i 7,8. Adadi 3000. Buyurtma № 3483. Bahosi shartno-  
yna asosida.

**«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
700083, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.**